

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“BANK ISHI” kafedrası



**Bank ishi fanidan
MA`RUZALAR MATNI**

Oliy ta'limning

ilim sohasi:	200000 – “Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq”
Ta'lim sohasi:	230000 – “Iqtisod”
Ta'lim yo'nalishlari:	5230700 – “Bank ishi”

Toshkent-2015

6-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING VALYUTA OPERATSIYALARI

Reja:

- 1.Valyuta va valyuta kursi tushunchasi.
- 2.Valyuta operatsiyalarini tashkil etishning huquqiy asoslari.
- 3.Valyuta pozitsiyasi va nazorati.
- 4.Joriy va muddatli operatsiyalar.
- 5.O'zbekiston Respublikasi valyuta bozorining shakllanishi.
- 6.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xorijiy valyutalarga bo'lgan talab va taklifni muvofiqlashtirish. (eksportga yo'naltirilgan korxonalar faoliyatini qullab-quvvatlash nuqtai nazaridan).

Valyuta va valyuta kursi tushunchasi.

Tashqi iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti turli mamlakatlarning valyutalari qiymatining o'zaro nisbatini o'lchashni talab etadi. SHu sababli valyuta kursi valyuta tizimining muhim elementi hisoblanadi.

Valyuta kursining zaruriyati quyidagilarda ifodalanadi:

- tovarlar va xizmatlar bilan savdo qilishda, kapital va kreditlar harakatida valyutalarni o'zaro almashtirish uchun; bunda, eksporter kelib tushgan chet el valyutasini milliy valyutaga almashtiradi. CHunki boshqa mamlakatlarning valyutalari mazkur davlat hududida qonuniy xarid qilish va to'lov vositasi sifatida muomalada aylanmaydi. Importyor chet eldan sotib olgan tovarlarini to'lash uchun milliy valyutani chet el valyutasiga almashadi. Qarzdor esa qarzini to'lash uchun va tashqi qarzlar bo'yicha foizlarni to'lash uchun chet el valyutasini sotib oladi;
- jahon va milliy bozor baholarini taqqoslash, shuningdek, milliy va chet el valyutalarida ifodalangan turli mamlakatlarning baho ko'rsatkichlarini taqqoslash uchun;
- firma va banklarning chet el valyutasidagi hisob varaqlarini vaqti-vaqti bilan qayta baholash uchun valyuta kursi zarur.

Valyuta kursi – bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida yoki xalqaro valyuta birliklarda ifodalangan bahosidir. Tashqi valyuta

kursi almashuv qatnashchilari uchun valyuta bozoridagi talab va taklif nisbati orqali aniqlanadigan bir valyutani boshqasiga qayta hisoblash koefitsientidir. Biroq valyuta kursining qiymat asosi bo'lib valyutaning xarid qobiliyati hisoblanadi. Valyutaning xarid qobiliyati investitsiya, tovar va xizmatlarning o'rtacha milliy narxlari darajasini ifodalaydi. Bu iqtisodiy (qiymat) kategoriyasi tovar ishlab chiqarishga tegishli bo'lib, u tovar ishlab chiqaruvchilar va jahon bozori o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi. Qiymat tovar ishlab chiqarish iqtisodiy shartlarining keng ko'lamli ifodasi bo'lgani uchun, turli mamlakatlarning milliy pul birliklarining taqqoslanishi qiymat munosabatiga asoslanadi va u ishlab chiqarish va almashuv jarayonlarida yuzaga keladi. Tovarlarni ishlab chiqaruvchilar hamda sotib oluvchilar valyuta kursi yordamida milliy narxlarni boshqa mamlakat narxlari bilan solishtiradilar. Taqqoslash natijasida mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarish yoki xorijda investitsiyani rivojlantirishning foydaliligi darajasi ko'rinadi. Qiymat qonuniga qanchalik amal qilinmasin, oxir oqibat valyuta kursi uning ta'siriga bo'ysinadi. Valyuta kursi valyutaning real kurs nisbatlari ko'rinadigan milliy va jahon iqtisodiyotlarining o'zaro aloqasini ifodalaydi.

Tovarlarni jahon bozorida sotilayotganida milliy mahsulot qiymatini internatsional o'lchovlari asosida jahon talabiga ega bo'ladi. Shuningdek, ushbu tovarlarning jahon xo'jaligi doirasida almashinishida valyuta kursi vositachi bo'ladi.

Valyuta kursining qiymat asosi shu bilan shartlanadiki, oxirgi navbatda jahon narxlariga asoslangan ishlab chiqarishning internatsional bahosi jahon bozoriga asosiy tovar etkazib beruvchi mamlakat ishlab chiqarishning milliy baholariga tayanadi.

Xalqaro kapital harakatining tez o'sishi bilan tovarlarga, shuningdek, moliyaviy aktivlarga nisbatan valyutaning xarid qobiliyati valyuta kursiga ta'sir ko'rsatadi.

■ Turli mamlakatlarning valyutalari va xalqaro pul birliklari tuzilgan xalqaro bitimlariga xizmat ko'rsatish jarayonida valyuta kursi aniqlanadi.

Kapitalning xalqaro harakatining tez o'sishi bilan bog'liq ravishda valyuta kursini o'zgarishiga valyutaning tovarlarni xarid qilish qobiliyati bilan birga moliyaviy aktivlarni xarid qilish qobiliyati ham ta'sir kursatadi.

Valyuta kurslari tasnifi

Kurs o‘rnatish mezonlari	Valyuta kursining turlari
1. Belgilash turi bo‘yicha	Suzuvchi, Qat’iy belgilangan, aralash
2. Hisoblash usuli bo‘yicha	Paritet, haqiqiy kurs
3. Nisbat bo‘yicha	Kross kursi, to‘g‘ri, egri (teskari), fiksing
4. Bitim turi	Spot – kurs, muddatli bitim (forward) kursi
5. O‘rnatish joyi	Rasmiy (MB), tijorat (banklar), qora bozor
6. Valyutaning xarid qobiliyati paritetiga nisbatan	Paritetli, oshirilgan, kamaytirilgan kurs
7. Bitim qatnashchilari bo‘yicha	Sotib olish kursi (sotib oluvchi uchun), sotish kursi (sotuvchi uchun)
8. Inflyasiyani hisobga olish bo‘yicha	real kurs, nominal kurs, o‘rtacha

Qonuniy normalarga va amaliyotga mos holda birjada chet el valyutasining kursining kimmatli kogoslar kursini yoxud tovarlar bahosini o‘rnatilishi katirovkalash deb ataladi. g‘ki kiskacha qilib aytganda valyuta kursini o‘rnatish katirovkalash deb ataladi. Jaxon amaliyotida katirovkalashning 2 xil usuli mavjud;

1) to‘g‘ri katirovkalash. Agar xorijiy valyuta birligining baxosi milliy valyutada kursatilsa, ya’ni milliy valyutada xorijiy valyutaning bir birligiga to‘g‘ri keladigan miqdor kursatilsa, bu to‘g‘ri katirovkalash deb ataladi. Masalan, 2003 yilning 30 sentyabrida 1 AQSH dollariga nisbatan o‘zbek so‘mining kursi 975,00 so‘mni, 1 Rossiya rubliga nisbatan 31,97 so‘mni tashkil etdi. Bu to‘g‘ri katirovka bo‘lib bunday katirovkalash hozirgi vaktida jahondagi ko‘pchilik mamlakatlarda qo‘llanilib kelinmoqda.

2) Egri (teskari) katirovkalash. Bunda bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutalardagi miqdori urnatiladi, ya’ni bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutadagi baxosi kursatiladi, masalan;

1

$$1 \text{ so‘m} = \frac{\text{-----}}{975,00} \text{ AQSH dollari yoki}$$

$$1 \text{ AQSH dollari} = 975,00 \text{ so‘m}$$

1

1 so'm = ----- Rossiya rubli yoki

31,97

1 Rossiya rubli = 31,97 so'm

Agarda ikki valyuta o'rtasidagi nisbat kandaydir uchinchi valyutaga nisbatan olingan kurslarida aniklansa, bunday nisbatni «kross-kurs» deb ataladi.

Masalan: 1 \$ AQSH dollari = 31 Rossiya rubli

1 \$ AQSH dollari = 5 Ukraina grivna

1Ukraina grivna =6,2 Rossiya rubli

Ko'rinib turibdiki, (kross-kurs) yukorida keltirilgan nisbat Ukraina girivnasining Rossiya rubliga nisbatan aniklangan kross-kursidir. Ushbu misolda AQSH dollari uchinchi valyuta rolini uynaydi. Jahon amaliyotida oxirgi yillargacha asosan uchinchi valyuta sifatida AQSH dollari qo'llanilardir, ya'ni barcha valyutalar jahon ayirboshlashida aynan shu valyutaga nisbatan katirovka qilishardi. Lekin oxirgi 1-2 yillar ichida Evopaning salohiyati oshib bormoqda hamda kross-kursni aniqlashda valyuta sifatida Evro kengroq qo'llanilmoqda.

Kross-kursdan foydalanish ancha og'ir va risklidir. Ammo ularni qo'llash quyidagi 2 xolatda zarur va foydalidir;

-sizning talabingizdagi valyutaga ega bo'lgan sotuvchilarda sizning valyutangizga talab mavjud emas. (Masalan, frank YAponiya ienasiga almashtirish kerak. Bu erda uchinchi valyuta AQSH dollari bulsin. YAponiya ienasi sotayotganlar ichida frank sotib olishni xoxlaydiganlar yo'q).

Oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirishda valyuta bozorida quyidagi valyuta kurslarining kurinishlaridan foydalaniladi;

«Spot-kurs» bu naqd (kassa) bitimlarining kursidir. Spot-kurs bu bir mamlakat pul birligining shartnoma tuzilgan vaqtda o'rnatilgan baho bo'yicha boshqa mamlakatlar pul birliklarida ifodalangan bahosidir. Bunda valyutani valyuta bitimi to'zilgan kundan boshlab 2 ish kunida almashtirib berish shart hisoblanadi. «Forward» kurs-bu muddatli valyuta bitimlarining kursidir.

Forward kursi valyutani kelajakda aniq bir kunga etkazib berish sharti bilan sotilish va xarid qilish bahosini o'zida ifoda etadi.

Forvard bitimlari odatda valyuta kurslarining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan risklarni bartaraf qilish maqsadida ishlatiladi. Bitim tuzilayotgan paytda forvard kursda aniqlanadi va ana shu kurs bo'yicha valyuta sotiladi yoki sotib olinadi. Agar shartnoma muddati tugagan kunda kurs shartnoma kursidan farq qilsa, unda bir tomon foyda ko'radi va bir tomon zarar ko'radi. Masalan, siz 2003 yil 1 yanvarda 2003 yili 1-iyun kuni 1\$= 965 so'm kursida sotib olish bitimini tuzdingiz. Ammo 2003 yil 1-iyun kuni 1\$=970 so'mni tashkil etdi, natijada siz har bir dollarga 5 so'm miqdorida qo'shimcha foyda ko'rasiz.

Agar 1-iyun kuni 1\$=963 so'mni tashkil etsa, unda xar bir dollardan 2 so'mdan zarar kurasiz.

Muddatli bitimlar buyicha valyuta kurslari (report) ustama yoki diskont metodi bo'yicha kapirovka kilinadi va «autrayt» kurslari deb ataladi.

Forvard kurs = Spot kurs + Forvard kurs ustamasi= Spot kurs-Diskont.

Misol. Bitim so'mmasi - 1 mln. dollar

Bitim muddati - 90 kun

Bitim valyutasidagi kreditning foiz stavkasi (USD) - 3,5 % Baxolovchi valyutadagi depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasi - 5,5 % Cpot kurs 1 =1,5210-1,5220 Evro

$$\text{Ust/Dis} = \frac{1,5210 \times (5,5 - 3,5) \times 90}{(360 \times 100) + (3,5 \times 90)} = \frac{273,78}{36315} = 0,0075$$

Farvard kurs = 1,5210 + 0,0075 = 1,5285 (ustama) Foiz

Ustama yoki dikont ekanligi % stavkalari o'rtasidagi farqdan bilish mumkin. Agar valyuta bitimi bo'yicha foiz stavkasi baholovchi valyutaning foiz stavkasidan past bo'lsa, bu valyuta yuqori kurs kotirovka qilinadi va chiqqan ko'rsatkich ustama sotiladi. Agar valyuta bitimining foiz stavkasi yuqori bo'lsa, bu ko'satkich diskont bo'ladi. Agar milliy valyutadagi depozitlarning foiz savkasi bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, olingan natija diskont hisoblanadi va aksincha bo'lsa ustama hisoblanadi.

Banklar valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda valyutani sotish va sotib olish kursini oʻrnatadi. Bu kurslar sotuvchining kursi va xaridorning kursi deb ataladi.

Sotuvchi kursi - bankning valyutani sotish kursi.

Xaridor kursi - bankning valyutani sotib olish kursi.

Bu kurslar oʻrtasidagi farq marja deb ataladi va u xizmat xarajatlarini qoplashga va maʼlum darajada foyda olishga sarflanadi.

Valyutaaning eng muhim xarakteristikasi uning konvertirlanganligidir.

Konvertirlanganlik - darajasiga koʻra valyuta kursi 3 ga boʻlinadi.

Erkin «suzib» yuruvchi cheklangan darajada «suzib» yuruvchi.

Qayd etilgan valyuta kurslari.

Erkin «suzib» yuruvchi valyuta kursi maʼlum valyutaga boʻlgan bozor talabi va taklifi taʼsirida oʻzgarib turishi mumkin. Masalan. AQSH dollari, Yaponiya ienasi, Angliya funt sterlingi; Evro kabi valyutalar jahon valyuta ayirboshlashida keng ishtirok etadi.

CHEklangan darajada «suzib» yuruvchi valyuta kurslarining oʻzgarishi ayrim valyutalar yoki bir guruh valyutalar (valyuta savati) kursi oʻzgarishiga bogʻliq. Misol uchun «Uchinchi dunyo»ning koʻpchilik mamlakatlari oʻz valyutalarini AKSH dollariga, Evropa mamlakatlarining «EURO»siga va boshqa boshqa xorijiy valyutalarga bogʻlaydilar. CHEklangan darajada «suzib» yuruvchi valyuta kurslari kiritilgan mamlakatlar oʻz valyutalarining tebranish chegarasini oʻzlari hamkorlik kilayotgan mamlakatlar bilan kelishib oladilar.

Qayd etilgan valyuta kursi-bu xorijiy valyutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy oʻrnatilgan bahosi boʻlib, unga valyuta bozorlaridaagi talab va taklifning oʻzgarishi taʼsir qilmaydi. Hozirgi vaqtda qayd etilgan valyuta kursi kam rivojlangan mamlakatlarda yoki iqtisodiy tashqi bozorga etarli darajada kirib bormagan mamlakatlarda, ularning moliya tizimini va milliy ishlab chiqarishini kuchli xorijiy raqabatchilaridan himoya qilish va quvvatlash maqsadida qoʻllaniladi.

Barcha mamlakatlar maʼlum muddatda oʻz valyutalari kurslari toʻgʻrisidagi axborotni eʼlon qilib boradilar Masalan Oʻzbekiston Respublikasi valyuta birjasi ish yakunlari matbuotda, televideniya eʼlon qilib boriladi. Bunda nominal valyuta kursi

belgilanadi. Lekin kuchayib borayotgan inflyasiya sharoitida jahon bozorida milliy mahsulotga bo'lgan talabni, uni raqobatbardoshligini aniqlashda milliy va xorijiy tovarlar baholari o'rtasidagi nisbatini ham bilish kerak bo'ladi. YA'ni milliy valyutaning real almashtirish kursini xisoblab chikish kerak. Real valyuta kursini xisoblashni O'zbekiston va Rossiyada ishlab chiqariladigan gazlama misolida ko'rsatish mumkin. Masalan, 1m gazlamaning bahosi respublikamizda 1000 so'm, Rossiyada 35 rubl, Valyutalarning amaldagi nisbati 1 Rossiya rubli = 35 so'm yoki 1so'm=0,032 Rossiya rubli bo'lganda, 1 m o'zbek gazlamasining bahosi Rossiya rublida $0,032 \cdot 1000 = 32$ rubl turadi. Bunday holda O'zbekiston va Rossiyada ishlab chiqarilgan 1 m gazlama baholari nisbati

$$\frac{0,032 \times 1000}{35} = \frac{32}{35} = 0,9$$

teng bo'ladi. Demak, ushbu nisbat o'zbek gazlamasining baxosi Rossiya gazlama baxosining 0,9 va undan arzon ekanligini ko'rsatadi. SHunday qilib, real valyutadagi bahosiga va nominal almashtirish kursiga bog'liq bo'lib, quyidagi tenglik bilan izoxlanadi;

Real kursi = nominal kursi - o'z mamlakatida ishlab chiqarilgan tovarlar bahosi, xorijiy tovarlar bahosi. Bu tenglikni umumiy ko'rinishda shunday yozish mumkin; Real valyuta kursining nominal valyuta kursi baholar darajasi nisbatlari past valyuta kursida milliy tovarlar nisbatan arzonroq, xorijiy tovarlar esa nisbatan qimmatroq turishni ko'rsatadi. SHuning uchun eksport o'sib boradi, import esa qisqarib boradi. Va aksincha, yuqori real valyuta kursida milliy tovarlar nisbatan qimmatroq, xorijiy tovarlar esa nisbatan arzonroq turadi. Natijada import usib, eksport qisqarib boradi.

Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar.

Har qanday baho kabi valyuta kursi valyutaga talab va taklif ta'sirida asosiy qiymatidan (ya'ni valyutaning xarid qilish qobiliyatidan) nari-beri siljiydi. Bunday talab va taklifning o'zaro mosligi bir qator omillarga bog'liq. Valyuta kursining ko'p

omilliligi uning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan bog‘liqligini, jumladan, qiymat, narx, pul, foiz, to‘lov balansi va boshqalar bilan bog‘liqligini aks ettiradi. SHuningdek ularing murakkab biri kuvi va ba’zi omillarning eng muhim omil sifatida yuzaga chiqishiga olib keladi. Bu omillar ichida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

1. **Inflyasiya sur’atlari.** Valyutalarning xarid qobiliyatlari bo‘yicha ularning o‘zaro nisbati o‘zida qiymat qonunini aks ettirib, valyuta kursini aniqlash vositasidir. SHu sababli valyuta kursiga inflyasiya sur’atlari ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakatda inflyasiya darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, milliy valyuta kursi shunchalik past bo‘ladi, (agar boshka omillar qarshi tasir ko‘rsatmasa).

Inflyasiya oqibatida pul qadrsizlanishi mamlakatda pulning xarid qobiliyatining pasayishiga va inflyasiya suratlari nisbatan past mamlakatlarning valyutalari kursidan tushib ketishiga sabab bo‘ladi. Bunday moyillik, odatda, o‘rta va uzoq muddatli rejada kuzatiladi. Valyuta kursining tenglashtirilishi, uni sotib olish qobiliyatining paritetiga moslashtirish o‘rtacha ikki yil davomida amalga oshiriladi. Bu shu bilan izohlanadiki, valyuta kursining kundalik kotirovkasi faqatgina uni sotib olish kobiliyatiga asosan amalga oshirilmay, unga shuningdek, boshqa omillar ham tasir etadi. 80- yillarda ko‘pincha valyuta kursining paritetidan 30%dan ortiq miqdorda siljishi yuz berib turar edi. Lekin spekulyativ va konyukturaviy omillar tasiridan ozod bo‘lgan valyuta kurslarining o‘zaro nisbati qiymati qonuniga muvofiq tarzda pul birliklarining xarid qobiliyati o‘zgarishi bilan o‘zgaradi.

Valyuta kursining inflyasiya sur’atlariga bog‘liqligi, ayniqsa, tovar-xizmatlar va kapitallarni xalqaro ayirboshlash hajmi katta bo‘lgan mamlakatlarda kuchliroqdir. Sababi shundaki, valyuta dinamikasi va inflyasiya sur’ati o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlik, valyuta kursining eksport baholarda hisob-kitob qilishda yuzaga keladi. Jahon bozori narxlari internatsional qiymatning puldagi ifodasini aks ettiradi. Import narxlariga kelsak, tegishli valyuta paritetida hisob-kitob qilish unchalik qulay kelmaydi, chunki, uning o‘zi valyuta kursi dinamikasiga bog‘liq. Sanoati rivojlangan mamlakatlar bunday hisob-kitob uchun ulgurji baholar indeksidan foydalangani ma’qulroq. CHunki bu mamlakatlarda ulgurji ichki savdo va eksport ma’lum darajada mos keladi. Boshqa mamlakatlarda ushbu indeksga ko‘pgina eksport qilinadigan tovarlar kirmaydi. CHakana narxlar asosidagi bunday hisob-kitob noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin,

chunki u jahon savdo ob'ekti bo'lmagan bir qator xizmatlarni o'z ichiga oladi. Oxirgi navbatda jahon bozorida real xarid qobiliyatiga mos ravishda stixiyali tarzda milliy valyuta kurslarining tenglashishi yuz bermoqda. Real valyuta kursi ikki mamlakat narxlari darajasi nisbatiga ko'paytirilgan nominal kurs sifatida aniqlanadi.

2. **To'lov balansi holati.** Aktiv to'lov balansi milliy valyuta kursining ko'tarilishiga olib keladi, chunki unga chet el qarzdorlari tomonidan talab ortadi. Passiv to'lov balansi milliy valyuta kursining pasayishiga moyillik yaratadi, unda qazdorlar milliy valyutani chet el valyutasiga o'z tashqi majburiyatlarini qoplash maqsadida sotadilar. To'lov balansining nobarqarorligi tegishli valyutaga talab va taklifning sakrash tarzida o'zgarishiga olib keladi. Zamonaviy sharoitlarda xalqaro kapital harakatining to'lov balansiga va natijada valyuta kursiga ta'siri ko'paydi.

3. **Turli mamlakatlarda foiz stavkalarining har xilligi.** Bu omilning valyuta kursiga ta'siri 2 ta asosiy holat bilan tushuntiriladi. Birinchidan, mamlakatda foiz stavkalarni o'zgarishi xalqaro kapital harakatining boshqa shartlarida ham ta'sir qiladi. Boshqacha qilib aytganda, foiz stavkasining ko'paytirilishi chet el kapitalining oqib kelishini, uning pasayishi esa kapitalning (milliy kapitalni ham) chet elga oqib chiqib ketishini rag'batlantiradi.

Kapital harakati, ayniqsa, spekulativ «qaynoq» pullar harakati to'lov balanslarining nobarqarorligini kuchaytiradi. Operatsiyalarni amalga oshirganda banklar milliy va jahon bozorlaridagi foiz stavkalaridagi farqni e'tiborga oladilar. Ular foyda olish maqsadida chet el bozorida arzonroq kredit olib (pastroq stavkada) hamda milliy kredit bozoriga, agar foiz stavkalari yuqori bo'lsa, chet el valyutasini joylashtirishni afzal ko'radilar.

4. **Valyuta bozori faoliyati va spekulativ valyuta operatsiyalari.** Agar qandaydir bir valyuta kursi pasayishga moyil bo'lsa, firma va banklar vaqtdan unumli foydalanib, uni yaxshiroq valyutaga sotadilar. Bunda kuchsizlashgan valyuta pozitsiyasi yanada yomonlashadi. Valyuta bozorlari iqtisod va siyosatdagi o'zgarishlardan, kurs nisbatlari siljishidan tez ta'sirlanadi. SHu bilan birga, ular valyuta spekulyatsiyasi imkoniyatlarini va stixiyali tarzda «qaynoq» pullar harakatini kengaytiradi.

5. Ma'lum bir valyutani evrobozorda va xalqaro hisob-kitoblarda ishlatish darajasi.

Masalan, bank operatsiyalarining 60-70%ni dollarda, Evroda amalga oshirilishi shu valyutalarga bo'lgan talab va taklif masshtablarini belgilaydi. Valyuta kursiga valyutaning xalqaro hisob-kitoblarda ishlatilish darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. 90-yillar boshida xalqaro to'lovlarning 55%ni neft, uchun hisob-kitoblarning 86-90%ni, tashqi qarzдорlikning 70% i dollarda amalga oshirilgan. SHu sababli, davriy neftga narxning o'sishi, hattoki dollarning xarid qilish qobiliyati tushgan sharoitlarda ham davlat qarzlari bo'yicha to'lovlarning o'sishi dollar kursining ko'tarilishiga imkon beradi.

6. Valyuta kursi nisbatiga xalqaro to'lovlarning tezlashishi yoki sekinlashishi ham ta'sir qiladi. Milliy valyuta kursining pasayishiga umid bog'lab, importyorlar kurs ko'tarilishi oqibatida zarar ko'rmaslik maqsadida, kontragentlariga chet el valyutasida to'lovlarni tezroq amalga oshirishga harakat qiladilar. Milliy valyutani mustahkamlashda esa ular chet el valyutasidagi to'lovlarni sekinlashtirishga harakat qiladilar. «Lidz end legz» nomli bunday usul to'lov balansi va valyuta kursiga ta'sir ko'rsatadi.

7. Milliy va jahon bozorlarida valyutaga ishonch darajasi. U mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy holat bilan, shuningdek, valyuta kursiga ta'sir qiluvchi yuqorida ko'rsatilgan omillar bilan aniqlanadi. SHuningdek, dilerlar nafaqat hozirgi vaqtdagi iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyasiya, valyutaning xarid qobiliyati darajasi, valyutaga bo'lgan talab va taklif nisbatini, balki ularning dinamikasi istiqbollari ham hisobga oladilar. Ba'zida hattoki savdo va to'lov balansi xaqidagi ma'lumotlar yoki saylov natijalari qanday bo'lishi talab va taklif nisbatiga, valyuta kursiga bog'liq.

8. Valyuta siyosati. Valyuta kursining davlat boshqaruvi va bozor boshqaruv o'rtasidagi nisbat valyuta kursi dinamikasiga ta'sir qiladi. Valyuta bozorlarida valyutaga talab va taklif mexanizmi orqali valyuta kursining shakllanishi oqibatida kurs nisbatlarining kuchli o'zgarishi ro'y beradi. Bozorda real valyuta kursi yuzaga keladi (Iqtisodiy holatni, pul aylanishi, moliya, kredit va muayyan valyutaning ishonchliligining ifodalovchi ko'rsatkich). Valyuta kursini davlat boqaruvi valyuta–

iqtisodiy siyosatdan kelib chiqqan holda, uning ko'tarilishi yoki tushishiga yo'naltirilgan. SHu maqsadda ma'lum bir valyuta siyosati o'tkaziladi.

SHunday qilib, valyuta kursining shakllanishi-murakkab ko'p omilli jarayon bo'lib, milliy va jahon iqtisodiyoti va siyosatining o'zaro aloqasiga asoslanadi. SHu sababli, valyuta kursini prognoz qilishda yuqorida aytib o'tilgan kursni shakllantiruvchi omillar, hamda ma'lum shart-sharoitga bog'liq ravishda ularning valyutalar nisbatiga ko'p tomonlama ta'siri hisobga olinadi.

Valyuta kursi takror ishlab chikarishda ham faol rol o'ynaydi. Tadbirkor valyuta kursi yordamida o'z ishlab chiqarish xarajatlarini jahon bozori narxlari bilan solishtiradi. Bu alohida korxona va mamlakatlarning tashqi iqtisodiy operatsiyalari natijalarini ko'rishga imkon beradi. Valyuta kursi eksport va import baholari nisbatiga, firmalar raqobatbardoshligiga korxonalar foydasiga ta'sir qiladi.

Valyuta kursi yoki milliy valyuta bahosi har qanday boshqa tovar bahosi kabi erkin boshqariladigan, o'rnatiladigan bo'lishi mumkin. SHuning uchun uni erkin suzib yuruvchi, cheklangan darajada suzib yuruvchi va qayd etilgan valyuta kurslariga ajratiladi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi ma'lum bo'lgan bozor talabi va taklifi ta'sirida o'zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSH dollari, Evro, YAponiya ienasi, Angliya funt sterlingi kurslari. SHu bois bu valyutalar jahon valyuta ayriboshlashida keng ishtirok etadi.

CHeklangan darajada suzib yuruvchi valyuta kurslarining o'zgarishi ayrim valyutalar yoki valyuta savati kursi o'zgarishiga bog'liq. Misol uchun, «uchinchi dunyoning ko'pchilik mamlakatlari o'z valyutalarini AQSH dollariga, fransuz franki»ga va boshqa xorijiy valyutalarga bog'laydilar. CHeklangan darajada suzib yuruvchi valyuta kurslari kiritilgan mamlakatlar o'z valyutalarining tebranish chegarasini hamkorlik qilayotgan sheriklari bilan kelishib oladilar.

Qayd etilgan valyuta kursi-bu xorijiy valyutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan bahosi bo'lib, unga valyuta bozori talab va taklifning o'zgarishi ta'siri qilmaydi. Hozirgi vaqtda qayd etilgan valyuta kursi ham rivojlangan mamlakatlarda yoki iqtisodiyoti tashqi bozorga etarli darajada

kirib bormagan mamalakatlarda ularning moliya tizimini va milliy ishlab chiqarishni kuchli xorijiy raqobatchilardan himoya qilish va quvvatlash maqsadida qo'llaniladi.

Valyuta operatsiyalarini tashkil etishning huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi hududida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish prinsiplari va valyuta qimmatliklari bilan ishlash tartibi O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi qonuni bilan aniqlanadi. Ushbu qonun talablariga muvofiq O'zbekiston hududida xorijiy valyuta bilan bog'liq barcha hisob-kitoblar faqat vakolatli banklar orqali, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining valyuta operatsiyalarini o'tkazishga ruxsat beruvchi litsenziyasiga ega bo'lgan tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday litsenziyaga ega bo'lgan tijorat banklari vakolatli bank hisoblanadi.

Davlat mustaqilligiga erishilishi bilan O'zbekiston Respublikasi oldida inflyasiya jarayonlari va ishlab chiqarish tushkunligiga barham berish, bozor talablariga javob beradigan moliyaviy tizimni vujudga keltirish, xalqaro valyuta va savdo tizimiga integratsiya qilinishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga oid murakkab masalalar paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan valyuta siyosati, bevosita hukumat tomonidan ishlab chiqilgan islohotlar strategiyasiga muvofiq holda olib borilmoqda. Davlat tomonidan valyutaviy huquqlarni himoyalashga doir mustaxkam qonunchilik va institutsional asosni yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rgan holda – davlat bosh islohotchi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Bu shuningdek, valyuta bozori infratuzilmasini yaratishga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan siyosatning amalga oshirilishida ham namoyon bo'lmoqda. SHu tarzda davlat islohotlarining murakkab bosqichlarida islohotlarni ancha oshirishga qodir bo'lgan etakchi kuch ekanligini ko'rsatmoqda. Davlat shuningdek, bir qator maxsus davlat organlarini tashqil etish yo'li bilan islohotlarni tartibga solishni amalga oshirmoqda. Albatta, Markaziy bank davlat banki sifatida bu borada muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, quyidagilar valyuta nazorati organlari hisoblanadi: jumladan, Markaziy bank, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Davlat Soliq Qo'mitasi, Davlat Bojxona Qo'mitalaridir. Ularni har biri o'z vazifa va funksiyalarga egadir.

Vakolatli banklar esa valyuta nazorati agentlari hisoblanadi.

Joriy va muddatli operatsiyalar

Xalqaro iqtisodiy, shuningdek valyuta-kredit va moliya, munosabatlari qatnashchilari risk ostida faoliyat ko'rsatadilar. Bu tijorat risklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) shartnoma tuzilgandan so'ng narxning o'zgarishi;
- 2) importchining tovar qabul qilishdan bosh tortishi, ayniqsa hisob-kitob inkasso shaklida bo'lganda;
- 3) xujjatlardagi yoki tovar uchun to'lovlardagi hatolar;
- 4) valyuta mablag'larini suiste'mol qilish yoki o'g'irlash, ularni qalbakilashtirish;
- 5) xaridor yoki qarzdorning to'lovga noqobilligi;
- 6) valyuta kurslarining nobarqarorligi;
- 7) inflyasiya;
- 8) foiz stavkalarining o'zgaruvchanligi va boshqalar;

70-yillardan boshlab valyuta va kredit risklarining oldini olish va qoplash uchun yangi usullardan foydalanila boshlandi. Ular qatoriga

- valyutaviy opsiyon (birinchi marta 1973 yil CHikago birjasida qo'llanila boshlagan)
- banklararo "svop" operatsiyasi
- forvard valyuta operatsiyasi
- valyutaviy fyuchers (1973 yildan boshlab Nyu-York valyuta bozorida, 1972 yildan boshlab CHikago valyuta bozorida va b.).

YUqorida sanab o'tilgan operatsiyalarni bir so'z bilan muddatli valyuta operatsiyalari deb ham nomlash mumkin, banklarda esa ular asosan konversion operatsiyalar nomi bilan ataladi.

O'z navbatida, barcha valyuta qiymatliklari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar o'z harakteri va namayon bo'lish usuliga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1. Spot turidagi valyuta operatsiyalari;
2. Muddatli valyuta operatsiyalari:
 - Forvard tipidagi valyuta operatsiyalari;

- valyuta opsiyalari bilan bog‘liq valyuta operatsiyalari;
- valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari.

3. Svop turidagi valyuta operatsiyalari.

SPOT operatsiyalari yoki kassa bitimlari (naqd bitimlar).

SPOT operatsiyasi - bu bitim kunini hisobga olmagan holda ikki ish kuni davomida valyuta ayriboshlash bo‘yicha operatsiyadir.

Spot kurs - bu spot bitim tuzilayotgan vaqtda bir mamlakat valyutasini boshqa bir mamlakat valyutasidagi bahosidir. Spot kurs uning suzib yuruvchi yoki qat’iy belgilangan rejimda ishlashdan qat’iy nazar operatsiya amalga oshirilayotgan vaqtda milliy valyutaning chet ellardagi qadri qancha ekanligini o‘zida aks ettiradi.

Asosan spot bitimlarining kursi - bu telegraf o‘tkazmasi kursidir. spot- kurs ikki xil yo‘l bilan aniqlanadi:

- valyuta birjasida dillerlarning yuzma-yuz savdo qilishi orqali;
- birjadan tashqari savdoda dilerlarning o‘zaro telefon orqali savdosida aniqlanadi.

Valyuta kursi sotib olish kursi (xaridor kursi) va sotish kursi (sotuvchi kursi)ga bo‘linadi. Valyuta kotirovkasini amalga oshiruvchi bank valyuta bitimini har doim o‘zi uchun foydali kurs bo‘yicha amalga oshiradi. Banklar xorijiy valyutani har doim qimmatga sotib (sotish bahosi), arzonroqqa sotib olishga (sotib olish bahosi) harakat qiladilar. Bu valyuta-tijorat operatsiyalarning asosiy tamoyilidir.

Sotish va sotib olish kurslari orasidagi farq marja deb atalib, bank xarajatlarini qoplash va qisman valyuta riskini sug‘urtalashga yqnaltililadi. Agarda bank amalga oshirilgan bitimni xuddi shu kurslar asosida taklif qilingan kontrbitim hisobiga qoplasa, u marja hisobiga foyda kqradi. SHuning asosida banklar valyuta operatsiyalari bo‘yicha mijozlarni ko‘proq jalb qilishdan manfaatdor.

Spot operatsiyalaridan keladigan foyda marjaga (albatta komissiya haqini chegirib tashlasa) teng bo‘lishi ham mumkin.

Umuman olganda spot operatsiyalari bir tomondan qisqa vaqtda yuqori foyda olishga imkoniyat bersa, ikkinchi tomondan mavjud valyuta operatsiyalari orasida risk darajasida eng yuqori bo‘lgan valyuta operatsiyasi hisoblanadi. Sababi shuki, spot

operatsiyalarini amalga oshirish vaqti qisqa bo'lganligi tufayli odatda u sug'urta qilinmaydi. SHuning uchun banklar payshanba va juma kunlari spot operatsiyalarini katta hajmda amalga oshirmaydilar, chunki bunda spot operatsiyasi muddati uzayib ketadi. Xuddi shu sababga asosan, banklar uzun va qisqa valyuta pozitsiyalarini ham maksimal darajada qasqartirishga harakat qiladilar.

Bu valyutalardan biri bank uchun yaxshi boshqasi yomon deb bo'lmaydi.

CHunki agarda bank misol uchun AQSH dollariga nisbatan «qisqa» pozitsiga ega bo'lsa va USD kursi tqsatdan kqtarilib ketsa, bank zarar kqrishi aniq. Kurs oshishi prognoz qilinayotgan vaqtda pozitsiyaning «uzun» bo'lgani ma'qul.

Agarda valyuta kursi tushib ketishi (USD) prognoz qilinganda «uzun» pozitsiya ijobiy natija bermasligi mumkin. Albatta, o'z mablag'larini garovga tikkisi kelmagan banklar valyuta pozitsiyalarini «yopiq» ushlashlari mumkin, lekin bunda ular kurs o'zgarishdan kelishi mumkin bo'lgan foydadan ham mahrum bo'ladilar.

Ikkinchi jahon urushidan keyin valyuta bozorlarida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining turlari rivojlanib ketdi. Amalga oshirilishiga kqra valyuta operatsiyalari naqd va muddatli bitimlarga bo'linadi.

Naqd valyuta operatsiyalari asosan «spot» shartlarida amalga oshiriladi. Buning mohiyati shundaki, valyuta sotish-sotib olish bitimi tuzilgandan keyin tuzilayotgan vaqtdagi kurs bo'yicha ikkinchi ish kunida naqd valyuta etkazib beriladi. Bu operatsiyalar eng keng tarqalgan bo'lib, butun valyuta bitimlarining 90 foiziga yaqinini tashqil etadi.

Spot turidagi valyuta bitimlari o'zida mablag'ni etkazib berish vaqti bo'yicha farqlanuvchi uch turdagi bitimni mujassamlashtiradi. Bu operatsiyalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

16-jadval

Kassa asosida amalga oshiriluvchi valyuta bitimlari turlari

Kassa asosida amalga oshiriluvchi valyuta bitimlari turlari	Operatsiya bo'yicha mablag'ni etkazib berish muddati	Bitim nomi	Ularning Qat'iy belgilangan kursi
	Bitim tuzilgan kun	TOD (TOD) bitimi	TOD kursi (ing. today - bugun)

	Bitim tuzilgandan keyingi ish kuni	TOM (TOM) bitimi	TOM kursi (ing tomorrow - ertaga)
	Bitim tuzilgandan bir ish kuni (ya'ni ikkinchi kun) keyin	SPOT bitimi	SPOT (ing. spot – naqd)

Tijorat banklari valyuta sotmoqchi yoki sotib olmoqchi bo'lsa, bitimning nomini (TOD, TOM, SPOT), kursini, summasini ko'rsatib ariza berishi lozim.

Valyuta bozorining ishtirokchilari bo'lgan banklar o'z nomidan o'zi uchun, yana o'z nomidan lekin mijozlari uchun valyuta sotib olish yoki sotishi mumkin. Agar banklar o'z hisobiga valyutani sotsa yoki sotib olsa, bu operatsiyalar ular yoki foyda olish uchun, yoki o'z likvidligini ushlab turish uchun, yoki chet eldan bank uchun jihozlar sotib olish va boshqa maqsadlar uchun amalga oshiradi.

«Spot» bitimlari bo'yicha valyuta oluvchi bank tomonidan kqrsatilgan hisobvaraqlarga etkazib beriladi. Bitimda kqrsatilgan kurs «spot» kurs deyiladi. Xuddi mana shu kurslar asosida valyuta bozoridagi muddatli kurslar ham, valyutani etkazib berish bo'yicha qisqaroq muddatli bir martalik bitimlar uchun kurslar ham aniqlanadi.

«Spot» operatsiyalari yordamida banklar o'z mijozlarining chet el valyutasidagi ehtiyojlarini, kapitallarning harakatini, shuningdek bir valyutaning boshqa valyutaga oqib qtishini ta'minlaydi, arbitraj va spekuliyativ operatsiyalarni amalga oshiradi. «Spot» operatsiyalari risk darajasi eng yuqori operatsiya hisoblanadi.

Foyda olish uchun banklar arbitraj va chayqovchilik bitimlarini amalga oshirishlari mumkin. Arbitraj bitimlar turli valyuta bozorlarida mavjud bo'lgan valyuta kurslari o'rtasidagi farqlardan foyda olish maqsadida chet el valyutasini qayta sotish (sotib olish) bo'yicha tuzilgan qarshi bitimdir. Agar valyuta bir valyuta bozoridan sotib olinsa va boshqa valyuta bozorida sotilsa – bu keng tarqalgan arbitraj deyiladi. Agar foyda vaqt o'tishiga qarab kurslar o'zgarishidan yuzaga keladigan bo'lsa bu vaqtinchalik arbitraj deyiladi.

Muddatli valyuta operatsiyalari va ularni amalga oshirish

Muddatli valyuta operatsiyalari - bu bitim tuzilgandan keyin bitimdagi kurs bo'yicha kelishilgan xorijiy valyutani ma'lum muddat qtgach etkazib berish kelishib olinadigan valyuta bitimlaridir. Bundan muddatli valyuta operatsiyalarining ikki xususiyati kelib chiqadi:

1. Bitim tuzilishi bilan bajarilish o'rtasida ma'lum davr vaqt bor.
2. Muddatli valyuta operatsiyalar bo'yicha valyuta kursi, ma'lum muddat o'tganidan keyin foydalanilsa ham, bitim tuzilayotgan paytda belgilanadi.

Muddatli bitimlar deb, belgilangan muddatda, ammo ikki ish kunidan oshik bulgan muddatda amalga oshiriladigan operatsiyalarga aytiladi. Amaliyotda muddatli bitimlarning quyidagi keng tarkagan turlari mavjuddir.

Ularga:

1. forward valyuta bitimlari;
2. fyuchers bitimlari;
3. valyuta opsiioni;
4. svop operatsiyalarini kursatish mumkin.

17-jadval

Valyuta operatsiyalari tasnifi

Nakd valyuta operatsiyalari	Muddatli valyuta operatsiyalari
SPOT	Forward
	Fyuchers
	Option
	Svop
	Arbitraj

Emitent davlat tashqarisida bir yoki bir nechta funksiyalarni bajaruvchi valyuta xalqaro valyuta hisoblanadi. Valyutaning xalqaro rolni bajarishi quyidagi omillarga bog'liq: milliy iqtisodiyot hajmiga, xorijiy investorlar ishonchiga, xalqaro savdoda mamlakatning tutgan o'rniga, moliyaviy bozorning erkinlik darajasiga. Asosiy valyuta (key currency) – xorijda pulning bir nechta vazifasini bajaruvchi valyutadir. Hozirgi

vaqtda valyutaning ushbu turiga evro, yapon ienasi, shveysariya franki, funt sterling kabi valyutalar kiradi. Xalqaro aylanmada sezilarli darajada yirik masshtablarda boshqa asosiy valyutalarga nisbatan pulning ko'pgina vazifalarini bajaruvchi valyuta dominantlik qiluvchi valyuta hisoblanadi. II jaxon urushidan so'ng, qariyb yarim asrdan buyon AQSH dollari dominant valyuta hisoblanadi. Etakchi valyuta (vehicle currency)- ikki davlatning o'zaro operatsiyalarida ishlatiluvchi va ushbu davlatlarning milliy valyutasi hisoblanmagan valyutadir. Amaliyotda agar valyuta, asosiy valyuta hisoblansagina etakchi valyuta bo'la oladi. Masalan, Rossiyadan Belorusiyaga etkazilgan neft to'lovi AQSH dollarida amalga oshiriladi.

Agar yuqorida keltirilgan mezonlarni umumlashtirsak, xulosa qilish mumkinki, milliy valyuta milliy iqtisodiyot doirasidan chiqib xalqaro hisob-kitoblarda ishlatilishni boshlaydi, agar mamlakat iqtisodiyoti etarlicha ulkan bo'lsa, bozor munosabatlari ochiq va yuqori darajada rivojlangan bo'lsa. Ochiq, lekin kichik iqtisodiyotga ega mamlakat o'z valyutasini etakchi valyutaga aylantira olmaydi. SHu bilan birga samarali valyuta siyosatini olib borish, o'z navbatida, ushbu davlat va boshqa davlatlar bilan tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishni rag'batlantiradi, ichki cheklangan konvertatsiyaga ega bo'lgan valyuta erkin konvertatsiyalanuvchi va hattoki xalqaro valyuta maqomiga ham ega bo'lishi mumkin. Har qanday davlat milliy valyuta maqomining o'zgarishi valyuta bozori hamda tashqi savdo aloqalari erkinlashayotganligiga yorqin dalil bo'la oladi.

1980 yillarda ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi savdo siyosatida, nisbatan ochiq iqtisodiyotni shakllantirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, resurslar taqsimoti va iqtisodiy o'sishni uzoq muddatli tendensiyalari o'zgarishlarini yanada samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan samarali islohotlarni amalga oshirdilar. Ushbu islohotlarda asosiy o'rinlardan birini valyuta kursi siyosati egallagan.

Faraz qilaylik, O'zbekiton tijorat banki 3 oylik forward bitimini tuzmoqchi. Dollarning so'mga nisbatan spot kursi quyidagicha:

$$\text{USD/UZB}_{\text{bid}} = 1400$$

«Bank ishi» fani. «Bank ishi» kafedrasi. TMI-2015. Tel: +(998)71 234-43-42, email: kbni@tfi.uz

$$\text{USD/UZB}_{\text{offer}} = 1420$$

$$\text{USD/UZB}_{\text{average}} = 1410$$

1 oylik depozitlarga foiz stavka esa quyidagicha:

	Bid – talab (%)	Offer – taklif (%)	Average – o‘rtacha (%)
USD	3.875	4.125	4
UZB	5.875	6.125	6

Demak, $\text{Forward punkti}_{(\text{bid})} = [1400 \cdot (5.875 - 4.125) \cdot 90 \text{ kun}] / [360 \cdot 100 + (4.125 \cdot 90)] = 6.06$

$\text{Forward punkti}_{(\text{offer})} = [1420 \cdot (6.125 - 3.875) \cdot 90 \text{ kun}] / [360 \cdot 100 + (3.875 \cdot 90)] = 7.01$
 Forward punktlaridan kelib chiqib bank dileri tomonidan kotirovka quyidagicha tashqil etiladi:

Barqaror iqtisodiyot sharoitida forward kursi banklararo foiz stavkasiga bog‘liq va quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Forward kursi} = [(1 + \text{Bid}) \cdot C] / (1 + \text{Offer})$$

YA’ni, bid – banklararo kreditlarga talab foiz stavkasi, masalan UZIBID

Offer – banklararo kreditlar taklif foiz stavkasi, masalan UZIBOR

S – joriy spot kursi.

Agar UZIBID – 5 %

LIBOR – 6%

C – 1400 USD/UZB bo‘lsa, unda, $\text{Forward kursi} = (1 + 0.05) \cdot 1400 / (1 + 0.06) = 1386.79$ bo‘ladi.

Sxemadan ko‘rib turganimizdek keltirilgan misolda importyor forward bitimini tuzish natijasida 8500 AQSH dorllarida foyda ko‘radi.

Valyuta bozorida valyuta riskini jahon amaliyotida turli usullari mavjud. Mazkur operatsiyalarda banklar, moliyaviy uylar va nomoliyaviy institutar qatnashadi. Mazkur

institutlarning tarkibi va ulushini Xalqaro hisob-kitob Banki ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

Odatda riskni tushirish uchun , to'lashga to'g'ri keladi. Xedjerlashdan foydalanishda bir nechta harajatlarni yuzaga keladi.

1. FOREKS bozorida tuzilgan hohlagan bitim valyutani sotish va sotib olish bahosi o'rtasidagi farq (spread) ko'rinishidagi harajat bilan bog'liq. Biroq , bozor amaliyotida bu farq bitim summasining 0.05%-0.1% ni tashqil etadi.

2. Bitim tugaguncha pozitsiya ochiq bo'ladi va har kuni pozitsiyani valyuta bo'yicha foiz stavkalari farqini hisobga olgan holda keyingi sanaga o'tkazish amalga oshiriladi. Bozor amaliyotida bu bir kunga bitim summasining 0.01% ni , ya'ni bir oyga 0.3% ni tashqil etadi. Lekin , bitim yo'nalishiga qarab (sotib olish yoki sotish) mijoz yo bu pozitsiyani o'tkazganligi uchun bu summani to'laydi yoki bu summani oladi.

3. Pozitsiyani ochish uchun garantiya depoziti ochilishi kerak. Depozit miqdori odatda tuzilgan bitimning 1% idan 5% igacha tashqil etadi. Pozitsiyani yopgandan so'ng depozitni savdo schetidan o'chirish mumkin (foyda yoki zararni hisobga olgan holda).

SHunday qilib, xedjerlashga ketadigan harajat xedjerlanayotgan bitim summasiga qaraganda ancha kichik summani tashqil etadi. Xedjerlashning maqsadi qo'shimcha daromad olish emas balki, potensial yo'qotishlar riskini tushirish hisoblanadi. SHuning uchun ham xedjerlashning samarasini faqatgina savdo kompaniyasining asosiy faoliyatini hisobga olgan holda baholash mumkin. Puxta tuzilgan xedjerlash dasturi faqatgina riskni tushiribgina qolmasdan , balki kompaniya resurslari erkinlashishiga , qo'shimcha qilinadigan zahiralariga ketadigan harajatlarni oldini oladi hamda menejerlarga biznesni boshqarishda ancha qulaylik yaratadi.

Albatta valyuta risklarini sug'urtalanishi Xalqaro Valyuta Fondi tomonidan erkin almashinadigan valyuta sifatida e'tirof etilgan valyutalarda amalga oshiriladi va bu ularning nisbatan barqarorligi va emission davlat Markaziy Banki tomonidan barcha cheklovlar olib tashlanganligi bilan belgilanadi.

Muddatli bitimlarni imzolanishi aynan shu xudud kompaniya va firmalarini jahon moliya bozorlariga integratsiyalashganligi bilan izohlanadi. Keyingi jadvalda xududlar bo'yicha ijro etilgan valyuta bitimlarini ko'rib chiqamiz.

Valyuta birjalarida tuziladigan fyuchers va opsiyonlar asosan SHimoliy Amerika va Evropa birjalarida tuziladi. Evrohudud tashqi iqtisodiy faoliyat va barqarorligi bo'yicha so'ngi yillarda xajm jihatdan oshish tendensiyasiga ega. Ammo SHimoliy Amerika birjalari etakchi o'rinlarni ham fyuchers, ham opsiyonlar bo'yicha saqlab kelmoqda.

Fyuchers operatsiyalarining qo'llanilishi qadimgi YUnoniston zamonlaridan boshlangan desak, mubolag'a bo'lmaydi, chunki shu davrda ba'zi mahsulotlar savdosi fyuchers asosida olib borilgan. G'arbiy Evropa mamlakatlarida (chunonchi Gollandiyada) fyuchers operatsiyalari ilk bor gullola savdosi bo'yicha amalga oshirila boshlagan. YAponiyada esa ilk Fyuchers operatsiyalarining paydo bo'lishi XVII asrga to'g'ri keladi. SHoli bilan savdo qiluvchi yapon tadbirkorlari fyuchers operatsiyalari yordamida kon'yuktura o'zgarishidan himoyalanganlar.

Hozirga zamon Fyuchers operatsiyalari tarixining rivojlanishi XIX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. SHu davrda AQSHning CHikago shahri tijorat markazi hisoblangan. Aynan AQSHningCHikago shahri dunyoda birinchi bo'lib, 1848 yilda 82 savdogar tomonidan birja savdosi tashqil qilindi, u CHikago savdo palatasi (Chicago Board of Trade-CBT) deb nomlanib, hozirgi paytda dunyoagi eng yirik fyuchers birjasi hisoblanadi.

Bugunki kunda fyuchers savdosi AQSHning 11 ta yirik birjalarida, shuningdek g'arbiy evropa, Janubi-SHarqiy Osiy mamlakatlari va Avstraliya birjalarida amalga oshirilmoqda. Eng mashxur va ko'lami jihatidan yirik birjalarga quyidagilar kiradi:

[AMEX](#) - Amerikan fond birjasi

[BOVESPA](#) - Braziliya fond birjasi

[CBOT](#) - CHikago Tovarnaya Birja zernovye, fyuchersы

[CHX](#) - CHikago fond birjasi

[LIFFE](#) - London xalqaro fyuchers i opsiyonlar birjasi

[London Stock Exchange](#) - London fond birjasi

[NYMEX](#) - Nyu-York tovar birjasi

[NYSE](#) - Nyu-York fond birjasi

[SBF](#) - Parij birja

[SES](#) – Singapur Fond birjasi a

[SET](#) – Tailand Fond birjasi a

[TSE](#) - Tokio fond birjasi

[TSE](#) - Toronto Fond birjasi

[LSEX](#) - London fondovaya LSEX

[LIFFE](#) - London fyuchersnaya i opsionnaya LIFFE

[CBOE](#) - CHikago opsion birjasi

[PHLX](#) - Filadelfiya fond birjasi va boshqalar.

Fyuchers bozorining rivojlanishi va o'sishiga asrimizning 70-yillarida sodir bo'lgan Bretton-Vuds valyuta tizimining inqirozi ham turtki bo'ldi. Ushbu valyuta tizimining inqirozidan keyin rivojlangan mamlakatlar valyuta kurslari to'xtovsiz tebrana boshladi buni oldini olish maqsadida CHikago savdo birjasida 1972 yilda valyuta kurslari bo'yicha birinchi fyuchers bitimlari tuzila boshlandi. 1982 yilda shuningdek, London xalqaro moliyaviy fyuchers birjasi (The London International Financial Futures Exchange - LIFFE), 1990 yilning oxirida muddatli shartnomalar bo'yicha nemis birjasi – Deutche Terminal Borse – tashqil qilindi.

Fyuchers operatsiyalarining joriy qilinishiga eng asosiy turtki bo'lib bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarning va valyuta kursining doimiy ravishda o'zgarib turishi hisoblanadi. Bunday sharoitda narxlar va valyuta kursining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan riskdan himoyalani chorasini izlab topish juda dolzarb bo'lib qoldi, chunki sanab o'tilgan holatlar ta'sirida xo'jalik yurituvchi sube'ktlar jiddiy moliyaviy talofot ko'ra boshladilar, bu esa o'z navbatida makroiqtisodiyotga ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Fyuchers operatsiyalari (inglizcha futures transaction-birja orqali amalga oshirilidigan kelishuv yoki shartnoma) – tovar, moliyaviy aktivlarni shartnoma tuzilayotgan davrdagi narxda ma'lum muddat vaqt o'tgach sotish yoki sotib olish jarayonini anglatadi. Fyuchers operatsiyalari fyuchers operatsiyalarini tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi. Fyuchers kontrakti – tovar, moliyaviy aktivlarni kelgusida

etkazib berish to'g'risidagi ikki tomon o'rtasida birjada tuziladigan shartnoma (kelishuv)dir.

Valyuta fyuchers operatsiyalari ham boshqa muddatli valyuta bitimlari kabi ma'lum bir valyutani boshqa bir valyutaga belgilangan muddatda sotish yoki sotib olish bitimidir. Bu jihatdan bu turdagi bitim autrayt-forward bitimi bilan o'xshash bo'lib, lekin ular bir-biridan tuzilmaviy va institutsional tarzda farq qiladi:

- Fyuchers bitimlari savdosi ochiq ommaviy tarzdgai taklif asosida tashqillashtirilgan birjalarda amalga oshiriladi. Va ularning faoliyati milliy qonunchilik va maxsus muvofiqlashtiruvchi organlar tomonidan tartibga solinadi. forward bitimlari esa birjadan tashqari bozorda amalga oshiriladi, ularning ustidan nazorat tijorat va soliq qonunchiligiga asosan amalga oshirladi;

- Fyuchers bitimlari standartlashgan bo'ladi, ya'ni ularning summasi va sanasi standart shaklda bo'ladi. Forward bitimlari odatda mijoz ehtiyojiga qarab tuziladi;

- Fyuchers bitimlari har kuni qayta baholanadi va bozordagi joriy baholarga qarab kotirovkalanadi hamda korrektirovka qilinadi. Forward bitimlari bitim muddatigacha hech qanday to'lovni talab qilmaydi, lekin bank forward bitimini imzolayotganda ta'minot talab etishi mumkin;

- Fyucherslar bilan hisob-kitoblar valyuta kliring palatasi orqali amalga oshiriladi. Kliring palatasi marjasini o'tkazib beradi va har bir bitimni sotib oluvchi va sotuvchi tomonidan bajarilishini kafolatlaydi. Forward bitimlari esa ikki tomonlama bitim bo'lib, unda hech qanday vositachilar bo'lmaydi.

Bu ikki bitimni quyidagi jadval orqali qiyosiy harakteristikasini keltirib o'tamiz.

jadval.

Fyuchers va forward bozorlarining qiyosiy harakteristikasi

Taqqoslash belgilari	Fyuchers bozori	Forward bozori
Bozor ishtirokchilari	Banklar, korporatsiyalar, alohida investorlar, chayqovchilar.	Banklar va faqat kata korporatsiyalar, yakka nvestorlar qatnashishi chegaralangan.
Aloqa usuli	Bitm ishtirokchilari bir-birini bilishmaydi.	Bitm ishtirokchilari bir-birini bilishadi.
Vositachilar	Bitim ishtirokchilari brokerlar orqali bitim tuzishadi.	Odatda bitim ishtirokchilari bir-biri bilan bitim tuzishadi. Ularga market-meykerlar vositachilik qilishadi.
Bitim tuzish usuli va	Birjaning operatsion zalida	Banklararo valyuta bozorida telefon

joyi	ogʻzaki bitim tuzish yoʻli bilan tuziladi.	yoki teleks orqali tuziladi.
Maxsus depozit	Riskni qoplash uchun ishtirokchilar kliring palatasiga kafolatli depozit topshirishlari shart.	Kafolatli depozit topshirishlari talab etilmaydi.
Bitim summasi	Standart shartnoma	Ishtirokchilar kelishuviga koʻra tuziladi.
Aktivlarni etkazib berish.	SHartnomalarning 1%-6% haqiqatda etkazib beriladi.	SHartnomalarning 95% haqiqatda etkazib beriladi.
Valyuta pozitsiyasi	Pozitsiyalar osonlik bilan yopiladi.	Pozitsiyalarni yopish osonlik bilan boʻlmaydi
Bozor harakteri va kotirovkalanadigan valyuta miqdori.	Bir tomonlama bozor, bitim ishtirokchilari shartnomani haridori yoki sotuvchisi hisoblanadi va bir turdagi valyuta kotirovkalanadi.	Ikki tomonlama bozor va ikki turdagi valyuta kotirovkaladi.
Nazorat qilish	Milliy nazorat organlari nazorat qilishadi.	Ishtirokchilar nazorat qilishadi.
Transaksiya narxi	Broker xizmat haqi	Bankning valyuta sotishdagi talab va taklif spreadi.

Bu ikkala moliyaviy vositalarning farqini tushunish juda muhim. YUqorida aytganimizdek, fyuchers bitimlari kliring palatasi orqali amalga oshiriladi va har kuni qayta baholanib turiladi bu esa yuzaga kelishi mumkin boʻlgan kredit riskini kamaytiradi. Kliring palatasi ikkala tomon majburiyatlarini bajarilishini kafolatlaydi, fyuchers bitimidagi pozitsiyani yopish uchun boshqa bir pozitsiyasi yopilishi kerak boʻlgan fyuchers bitimiga teskari boʻlgan standartlashgan fyuchers bitimi sotib olinadi. Forvard bitimida esa uning egasi oʻz pozitsiyasini yopish uchun ushbu pozitsiyaga qarshi boshqa bir bitim sotib olishi yoki tuzishiga toʻgʻri keladi bu esa yana bir kredit riskini yuzaga keltiradi.

Valyuta fyucherslari quyidagi xususiyatlarga ega boʻlishi lozim:

- Bajarilish kuni
- Bajarilmagan bitimlar
- Savdo boshlangandagi yuqori, past va yopilish vaqtidagi baho. qori, past va yopilish vaqtidagi baho.
- Koʻrsatilgan kundagi savdo qilingan bitimlar soni

- Bajarilish kuni

Odatda fyucherslarning 2 % amalga oshiriladi hamda bu bitim spekulativ va xedjerlash operatsiyalari uchun tuziladi.

-jadval.

Svop va fyuchers bitimlarining farqli jihatlari

Tagqoslash belgilari	Fyuchers	Svop
Bitim tuzilish hajmi	Standartlashgan	10 mlndan yuqori hohlagan summada
Belgilanadigan vaqti	Qat'iy belgilangan vaqtda	Hohlagan paytda.
Boshqarishning qiyinlik darajasi	Murakkab	Oddiy
Pozitsiyani tugatish	Qarama-qarshi bitim bilan.	Aksi yoki sotish.
Bitimni tugatish	birjada	Tijorat va investitsion banklar.

Valyuta fyuchers operatsiyalarining mohiyati shundan iboratki, bunda standartlashtirilgan miqdordagi chet el valyutasini shartnomalar asosida kelgusida ma'lum vaqtda AQSH dollariga almashinuv tarzida etkazilib beriladi. Lekin valyuta fyuchers shartnomalari ham, tovar fyuchers shartnomalari singari qayta-qayta sotilishi mumkin, ya'ni shartnoma ijro qilinish muddati kelgunga qadar bir haridordan ikkinchi haridorga o'tib turadi. Fyuchers shartnomalari bilan savdo qilish jarayonida ikki qoidaga qat'iy rioya qilish muhim hisoblanadi: 1-qoida: valyuta kursining kelgusidagi o'zgarishini ko'ra bilish; 2-qoida: fyuchers shartnomasining amal qilish vaqtida valyuta kursining o'zgarishini doimiy ravishda kuzatib borish.

Fyuchers shartnomasi egasi yuqoridagi qoidalar asosida valyuta bozorida nomaqbo'l jarayon vujudga kelishi mumkinligini ko'ra bilishi natijasida, shartnomadan o'z vaqtida qutilish (ya'ni sotib yuborish) choralarini ko'radi, aks holda u katta miqdorda zarar ko'rishi muqarrar.

Valyuta fyuchers operatsiyalari ikki vazifani bajaradi: birinchidan, fyuchers shartnomalari investorlarga valyuta kursining bozordagi nomaqbo'l ravishda o'zgarishi tufayli vujudga keladigan riskdan himoyalaniish imkoniyatini bersa, ikkinchidan, birjadagi broker va shu kabi qatnashchilarga fyuchers shartnomalari bilan savdo qilish natijasida foyda olishga yordam beradi.

YUqoridagi fikrdan shunday xulosa qilish mumkinki, agar valyuta kursi qanchalik o'zgaruvchan (tebranuvchan) bo'lsa, fyuchers bozorida himoyalaniishga

ehtiyoj shuncha ko‘p bo‘ladi. Valyuta kursining turli omillar ta’sirida tinmay o‘zgarib turishi natijasida yuzaga keladigan riskka javoban, ya’ni undan himoyalaniish maqsadida valyuta fyuchers operatsiyalari joriy qilingan.

Valyuta fyuchers operatsiyalari amaliyotda keng qo‘llaniladigan forward shartnomalarining bir ko‘rinishi hisoblanadi. Bu ikki shartnomalarning asosiy farqi shundan iboratki, forward operatsiyalari birjadan tashqarida amalga oshirilsa, fyuchers shartnomalari esa tartibli birjalarda amalga oshiriladi.

Valyuta fyuchers operatsiyalari orqali xedjirlash usulini eksport-import bitimlari misolida ko‘rib chiqamiz.

Eksport-import operatsiyalari bilan faoliyat ko‘rsatuvchi kompaniya YAponiyaning tashqi savdo firmasidan yirik partiyadagi yapon soatlarini sotib olish maqsadida muzoqaralar olib bormoqda, deb faraz qilaylik. YApon firmasi etkazib beriladigan soatlar uchun hisob-kitoblar YAponiyaning pul birligi hisoblangan ienada amalga oshirishni talab qilmoqda, chunki shartnomaga asosan yapon soatlari uchun hisob kitoblar yapon ienasida emas, AQSH dollarida amalga oshiriladigan bo‘lsa, u holda YAponiya kompaniyasi valyuta kursining tebranishi tufayli yuzaga keladigan risk natijasida moliyaviy talofatga uchrashi mumkin.

Tuzilgan shartnomaga ko‘ra har bir yapon soatining narxi 2850 ienadan belgilanib, 15000 dona soatni haridorga 7 oydan so‘ng 42750000 yapon ienasi miqdoridagi to‘lovni amalga oshirib berishi zarur bo‘ladi.

Quyida shartnoma tuzilgan kundagi AQSH dollarining yapon ienasiga almashtirish kurslarining joriy stavkalari keltirilgan:

- | | | |
|----|---|----------|
| 1. | Joriy naqd almashtirish kursi | 0.004173 |
| 2. | Iyun fyuchers shartnomasi bo‘yicha almashtirish kursi | 0,004200 |
| 3. | Sentyubr fyuchers shartnomasi bo‘yicha almashtirish kursi | 0.004237 |
| 4. | Dekabr fyuchers shartnomasi bo‘yicha almashtirish kursi | 0.004265 |

YUqorida keltirib o‘tilgan kurslardan foydalangan holda, harid qilinayotgan yapon soatlarining qiymatini aniqlashimiz mumkin. Joriy almashtirish kursi bo‘yicha 1 AQSH dollari 0.004173 yapon ienasiga teng bo‘lgan sharoitda, harid qilinayotgan 15000 dona yapon soatining qiymati 178.396 AQSH dollariga ega bo‘ladi.

Agar fyuchers bozoridagi valyuta kurslarini bo'lajak almashtirish kurslari deb qarasak, bunda AQSH dollarining yapon ienasiga nisbatan kursi pasayish ehtimoldan holi emas. Dekabr fyuchers shartnomasi bo'yicha 1 AQSH dollari qiymati 0.004265 yapon ienasiga teng bo'ladi deb olsak, u holda 15000 dona yapon soatining qiymati 182.329 AQSH dollariga teng bo'ladi.

SHartnomaga asosan soatlarni etkazib berish va ular bo'yicha hisob-kitoblar dekabr oyida amalga oshirilishini e'tiborga olsak, yapon soatlarini import qilayotgan kompaniya 178.396 AQSH dollari emas, balki 182.329 dollar to'lashi zarur bo'ladi, ya'ni import qiluvchi kompaniya valyuta kursining tebranishi natijasida 3933 AQSH dollari miqdorida zarar ko'rishi ma'lum bo'lib qoldi.

YUqorida ko'rsatib o'tkanimizdek, eksport-import operatsiyalari bilan faoliyat ko'rsatuvchi kompaniya va YAponiyaning tashqi savdo firmasi o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan 15000 dona yapon soatlari noyabr oyida etkazib berish ko'zda tutilgan, shu sababli import qiluvchi kompaniya fyuchers bozorida ijro muddati dekabr oyida bo'lgan valyuta fyuchers operatsiyalarini amalga oshirishga qaror qiladi. Buning sababi shuki, dekabr oyidagifyuchers shartnomasi ijro qilinadigan davrdagi valyuta kursi import qiluvchi kompaniya uchun zaruriyat tug'ilgan davrda (ya'ni noyabr oyida) shakllangan "spot", ya'ni real bozordagi valyuta kursiga juda yaqin turadi. Ikkinchidan, dekabr fyuchers shartnomalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning sarf-harajatlari boshqa davrdagi (ya'ni matr, iyun, sentyabr oylari) shartnomalari harajatlariga nisbatan ancha miqdorda kam bo'ladi. Valyuta fyuchers shartnomasining miqdori 12500 ming yapon ienasi miqdorida standartlashtirilganligi bois import qiluvchi kompaniya navbatdagi muammoga duch kelishi mumkin, chunki 15000 dona yapon soatlari qiymatini to'lash uchun unga 42750 ming yapon ienasi zarur, u holda u fyuchers bozorida 3 valyuta valyuta fyuchers bitimini amalga oshiridigan bo'lsa, ularning umumiy miqdori 37500 ming yapon ienasiga, 4 ta valyuta fyuchersi bitimini tuzadigan bo'lsa, ularning umumiy miqdori 50 mln yapon ienasiga teng bo'lib qoladi.

-jadval

Muddatli bitim va fyuchers bitimlarining farqli jihatlari

Kunlar	Muddatli bitim	Fyuchers bozori
Aprel	Kompaniyaga noyabr oyida 42750 ming yapon ienasi zarur, uning joriy valyuta kursi bo'yicha qiymati 178.396 AQSH dollarini, noyabrdagi kutilayotgan kurs bo'yicha esa 182.329 AQSH dollarini tashqil qiladi.	Kompaniya fyuchers bozorida yaopn ienasi bo'yicha 3 ta dekabr fyuchers shartnomasini 0.004265 AQSH dollari kursi bo'yicha 159.938 AQSH dollariga sotib oladi
Noyabr	SHartnomada ko'zda tutilgan 15 ming dona yapon soatlarini real bozordagi kurs bo'yicha (0.004273 doll.) 182.671 AQSH dollariga sotib oladi.	YApon ienasi bo'yicha 3 ta dekabr fyuchers shartnomasini 0.004270 kursi bo'yicha 160.125 AQSH dollariga sotadi.
Real bozordagi natija		Fyuchers bozoridagi natija
Kutilgan sarf-harajatlar – 182.329 AQSH dollari		Foyda – 187 AQSH dollari
Haqiqiy sarf-harajatlar – 182.671 AQSH dollari		
Zarar – 342 AQSH dollari		
Sof natija:	Zarar – 155 AQSH dollari	

Faraz qilaylik, kompaniya nihoyat, 3 ta valyuta fyuchers shartnomasi bilan operatsiya o'tkazish to'g'risida qaror qabull qildi.

Komapaniyaning mo'ljaliga ko'ra yapon soatlarini sotib olish uchun unga 42750 ming yapon ienasi kerak bo'ladi, ushbu mablag'ning ekvivalenti joriy kurs bo'yicha 178.396 AQSH dollariga, kutilayotgan valyuta kursi bo'yicha esa 182.329 AQSH dollariga teng bo'ladi. YApon ienasining xedjirlash jarayonida qanchalik muvafaqiyatli bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Kompaniya fyuchers bozorida 0.004264 AQSH dollari kursida yapon ienasi bo'yicha 3 ta dekabr fyuchers shartnomalarini 159.938 AQSH dollariga sotib oladi.

Komapaniyaning ikkala boordagi faoliyati, ya'ni real va fyuchers bozoridagi umumiy natijasi 155 AQSH dollari miqdorida zarar ko'rish bilan yakunlandi.

Fyuchers shartnomalari qiymati ikki xil harajatlardan tashqil topgan.

1. o'zgaruvchan, komission harajtlar

2. shartnoma tuzilayotganda kiritiladigan birlamchi depozit hamda vlayuta kursining yomon tomonga o'zgarishi extimolida yuzaga keladigan qo'shimcha badallardan tashqil topgan doimiy harajatlar.

Valyuta fyuchers bozorida quyidagilar qatnashadilar.

-kompaniyalar va banklar;

-valyuta riskini xedjerlovchi xedjerlar;

-birja spekulyantlari, riskni o'zlariga olib, baho tebranishidan daromad olishni ko'zlagan o'yinchilar.

Birja spekulyantlari bozorda muhim o'rinni egallaydilar, ular o'zalriga riskni olish orqali, bozor likvidliligini ta'minlaydi.

Ular barcha asosiy moliyaviy gazetalarda nashr qilinadi (Financial Times, Wall Street Journal...) va har xil bitimlar to'g'risida ma'lumot beradi.

-jadval

Funt sterlingda fyuchers bitimlari xaqida yakuniy ma'lumot keltirilgan¹

Oy	Ochili shi kursi	Eng baland kurs	Eng past kurs	Kelishilg an kurs	Tebranish kursi	Eng yuqori	Eng past	Bitim hajmi
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Iyun	1,5068	1,5130	1,5056	1,5128	+0,0068	1,5870	1,7910	55897
Sentyabr	1,5030	1,5120	1,5030	1,5117	+0,0068	1,5840	1,7910	142

Birinchi satrda quyidagilar keltirilgan:

-valyutasi: funt sterling

-moliya bozori: IMM

-kotirovkasi: barcha fyuchers bitimlaridollar funt sterling nisbatda keltirilgan.

Bu valyutalar uchun teskari kotirovka ishlatiladi.

1.2-jadvalda keltirilgan ustunlarda quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

1-ustun: bitimning ijro vaqti

2-ustun: barcha ijrolar uchun birja ochilishdagi kurs

3-ustun: eng yuqori kurs

¹ Wall Street Journal.-2010 йил 26 апрель

«Bank ishi» fani. «Bank ishi» kafedrasi. TMI-2015. Tel:+(998)71 234-43-42, email: kbni@tfi.uz

4-ustun: eng past kurs

5-ustun: yopilish vaqtidagi kurs

6-ustun: yopilish vaqtidagi kursning o'zgarishi

7-ustun: eng yuqori kursning ro'yxatga olinishi

8-ustun: eng past kursning ro'yxatga olinishi

9-ustun: kun yakunidagi muddatli shartnomalar hajmi. Har bir bitim sotuvchi va haridorga taqdim etiladi.

*Oxirgi satrda

-so'ngi ikki kunda imzolangan bitimlar hajmi;

-bitimlarning umumiy soni;

-bitim imzolangan vaqtdagi tebranishlar ko'rsatiladi.

Agar kompaniya fyuchers bozoridagi holatga qarama-qarshi pozitsiyaga ega bo'lsa, u shu yo'l bilan yo'qotadigan daromadini ikkinchi bozorda shu summada kompensatsiya qiladi.

Valyuta opsiyonlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar

Valyuta opsiyonlari birinchi marta 1982 yilda Filadelfiya birjasida amalga oshirilgan. SHundan keyin valyuta opsiyonlari bilan savdolar jahonning ko'pgina birjalarida amalga oshirila boshladi. Opsiondan investitsiya portfelining muhim elementi va sug'urtalashning samarali usuli sifatida foydalanish uchun uni qanday ishlatilishini bilish lozim. Fyuchers va forvard bitimlaridan farqli ravishda u majburiyat emas, balki huquqdir.

Valyuta opsioni – bu sotuvchi va xaridorning shunday bitimki, u xaridorga biror valyutaning bozor narxlaridan qat'iy nazar belgilangan miqdorini oldindan belgilangan vaqtda va kursda etkazib berish bo'yicha huquq beradi. Sotuvchiga esa belgilangan valyutani oldindan belgilangan vaqtda va kursda sotish majburiyatini beradi.

Valyuta opsioni shunday instrumentki, u ham spekulyatsiya ham xedjirlash vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Opsiionlar birjadan tashqari bozorda va birjadagi bozorda ham keng ko'lamda qo'llaniladi. Valyuta opsiionlarining katta qismi, jumladan 81 % birjadan tashqari

bozorda amalga oshiriladi.² Valyuta opsionida fyuchers savdosida qatnashmaydigan ekzotik valyutalar uchun ham bitimlar tuzish mumkinligi uning ahamiyatini oshiradi. Valyuta opsioning muddati turli muddatlarda tuzish mumkinligi bilan ajralib turadi uni bir necha soatdan tortib bir necha yillargacha tuzishingiz mumkin, ammo asosan muddatlar sifatida to'liq muddatlar masalan bir hafta, bir oy, ikki oy va h.klar olinishi mumkin.

Quyidagi etti omil opsion narxini shakllantiradi:

1. Valyuta kursi.
2. Strayk baho (realizatsiya bahosi).
3. Valyuta kursining volatillik darajasi.
4. Amalga oshirilish muddati.
5. Foiz stavkalaridagi farqlar.
6. Bitim turi (koll yoki put).
7. Opsionning modeli – amerika yoki evropa opsioni.

Ushbu etti omildan valyuta kursi asosiy omil sanaladi. Aynan valyuta kursiga qarab opsion narxi o'zgaradi. Opsion narxini o'zgarishini va uni shakllantirishda quyidagi indekslardan foydalaniladi.

Delta

Delta yoki oddiy qilib aytganda Δ – opsion narxini shakllantirishdagi birinchi hosiladir. Bu indeksni uchta aspektda ko'rishi mumkin:

1. Valyuta opsioning narxi valyuta kursining o'zgarishiga bog'liqligi sifatida. Masalan, opsion narxining o'zgarishi $\Delta = 0.5$ ga teng bo'lsa demak, valyuta kursi o'zgarishining yarmiga teng bo'ladi. Ya'ni, valyuta kursi 10 % ga oshsa, valyuta opsioning kursi 5 % ga oshadi.
2. Opsion riskini sug'urtalash darajasi sifatida.
3. Pozitsiyadagi ulush sifatida, ya'ni koll xaridori sotib olish (uzun) pozitsiyada, put xaridori esa sotish (qisqa) pozitsiyada bo'ladi. Va $\Delta = 0.5$ da put xaridori $\frac{1}{2}$ valyuta fyuchersini sotadi.

Gamma

² Кравченко П.П “Фьючерсный рынок и рынок опционов”, Финансовый Менеджмент № 4/2001
«Bank ishi» fani. «Bank ishi» kafedrasi. TMI-2015. Tel: +(998)71 234-43-42, email: kbni@tfi.uz

Gamma – bu opsiyon narxini shakllantirishning ikkinchi hosilaviy modeli hisoblanadi va u deltaning o‘zgaruvchanlik darajasi hisoblanadi. Gamma 0 dan 100 % gacha bo‘lgan darajada o‘zgaradi.

Vega

Vega volatillikka nisbatan opsiyon narxining o‘zgarish darajasini belgilaydi. Masalan, $V = 0.2$ bo‘lsa, u opsiyon narxini 2 % ga oshishini belgilaydi va aksincha.

Teta

Teta indeksi (T) opsiyon narxining u amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vaqtdan o‘tib ketgach opsiyon narxining kamayish darajasi belgilaydi. Masalan, $T=0.2$ bo‘lsa, bu opsiyon narxining har bir kun uchun 0.02 yo‘qotilishini anglatadi.

Valyuta opsiyonlarining turlari

Opsiyon huquqi qaysi sub’ektga tegishligiga qarab ikki turga bo‘linadi:

- Koll opsiyon – bu huquq, ammo majburiyat emas, u asosiy valyutani sotib olishni bildiradi. YA’ni, huquq sotib oluvchida bo‘ladi.

- Put opsiyon – bu asosiy valyutani sotish huquqini beradi, ammo bu majburiyat emas. YA’ni, huquq sotuvchida bo‘ladi. Bu ikkala bitim bir-biridan farq qiladi, ular bir-biriga qarama-qarshi bitim shakli emasdir.

Opsiyonni sotib oluvchi tomon – bu opsiyon egasi (xaridor), opsiyonni tashqil etuvchi tomon – anderayter (sotuvchi) deb yuritiladi. Asosiy valyutaning sotish yoki sotib olish – bu opsiyon amalga oshiriladigan narx, ya’ni strayk baho deb yuritiladi. Opsiyon premiyasi bu xaridor anderayterga to‘laydigan summa tushuniladi. Ayirboshlashda to‘langan premiya evaziga xaridor spot kursining o‘zgarishidan ko‘radigan zararini sug‘urtalaydi. Anderayter esa cheklanmagan miqdordagi riskka boradi va bundan himoyalaniish uchun xedjirlash va kompensatsion bitim tuzadi.

Opsiyonlar qanday vaqtda qo‘llanishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

- Evropa opsiyon – bunda opsiyon, bitimda belgilangan vaqtda amalga oshiriladi;
- Amerika opsiyon – bunda opsiyon, bitimda belgilangan vaqtgacha amalga oshirilishi mumkin.

Amerika opsiyonining foydaliligi Evropa opsiyoninikidan kam emas, ammo ular analitik qiyin amalga oshiriladi. Birjadan tashqari bozorda samarali tarzda evropa koll-

opsioni amalga oshiriladi, lekin ayrim valyutalarga nisbatan an'anaviy tarzda amerika opsionlari qo'llanib kelmoqda.

Birjadan tashqari valyuta ayirboshlash opsioni – bu ikki tomonlama bitim bo'lib, u ikki qatnashchi tomondan tuziladi. Birjadagi va birjadan tashqari opsion bozorining farqi birjadan tashqari opsion bozorida kliring palatasi bo'lmaydi va nazorat qiluvchi organlar hamda savdo qoidalarini o'rnatuvchilar bo'lmaydi. Agar tashqillashtirilgan birjadagi opsionlar standart opsionli bitim tuzilsa, birjadan tashqari opsion bozorida ular investorning ehtiyoji, investitsiyasi hamda xedjirlashiga bog'liq tarzda tuziladi. Mutaxassislarning hisobiga ko'ra, birjadan tashqari opsion bozorining miqdori tashqillashtirilgan birjadagi opsionlarning miqdoridan 5 marta ko'proqdir. Bu ikki opsion bozori bir-biri bilan raqobatlashadi hamda bir-birini to'ldirib turadi.

Professional treyderlar birjadan tashqari bozorda o'z daromadlarini oshirish, mumkin bo'lgan yo'qotishlarni oldini olish uchun kombinatsion opsionlardan foydalanishadi. Hozirgi vaqtda birjadan tashqari valyuta opsioni bozorlarida quyidagi turdagi kombinatsion opsionlar qo'llaniladi:

➤ Streddl (yoki stellaj yoki ikkita opsion (straddle)), u ikki opsiondan biri put opsion va boshqa biri koll-opsion bo'ladi hamda ularning nominali, narxi va muddati bir xil bo'ladi. Narxi odatda forvard kursi atrofida bo'ladi va foyda keltirmaydi, ular bo'yicha delta taxminan 0.5 ga teng bo'ladi. Agar joriy volatillik kutilganidan yuqori bo'lsa, uzun streddl daromad keltiradi. Agar joriy volatillik kutilganidan past bo'lsa, qisqa streddl daromad keltiradi.

➤ Stregl (strangle) – opsion strategiyasi bo'lib, u qachonki investorda koll va put opsion pozitsiyasi turli xil narxda bo'lsa ishlatiladi. Bunda strayk baho forvard kursidan yomonroq, shuning uchun ular daromadsiz yoki zararlidir. Odatda strayk baho 0.25 deltada topiladi.

➤ Risk riversiyasi bu o'zida ko'proq narxga yo'naltirilgan o'yin bo'lib, u volatillikka unchalik xos emas. Dilerlar daromadsiz put-opsionni daromadsiz koll-opsionga ayirboshlaydilar yoki aksincha. Ushbu daromadsiz put va koll opsionlar narxlari bilan farq qiladi va dilerlar ayirboshlashda ular orasidagi farqni premiya sifatida to'lab berishadi yoki unga ega bo'lishadi.

Birjadan tashqari bozorda opsionlarning turli xil ko'rinishlari amal qiladi:

«Bank ishi» fani. «Bank ishi» kafedrası. TMI-2015. Tel:+(998)71 234-43-42, email: kbni@tfi.uz

✚ Multivalyutali opsiyon – biror valyutani boshqa bir valyutaga biror bir valyuta orqali maxsus ayirboshlash kursi orqali ayirboshlash huquqidir.

✚ Bar'erli opsiyon (barrier option) – opsiyon tugash muddati qisqaradigan yoki uzaytiriladigan opsiyon bo'lib, unda belgilangan kurs etib kelishi kutiladi.

✚ Bermud opsiyonlari (Bermuda options) – amerika va evropa opsiyonlarining birlashmasidir.

✚ Osiyo opsiyonlari – yoki o'rtacha kurs opsiyonlari (average rate options).

Har bir opsiyon narxining uch elementi mavjud:

- Strayk yoki amalga oshirilish bahosi, ya'ni xorijiy valyutaning sotilish yoki sotib olinish bahosi;

- Premiya, ya'ni opsiyonning narxi;

- Bozordagi spot kurs.

SHuningdek, opsiyonlar keltiradigan daromadga qarab ham turlarga bo'linadi:

- Daromadsiz (at-the-money - ATM) opsiyonlar, bunda opsiyonning strayk bahosi spot kurs bilan teng bo'ladi.

- Daromadli (in-the-money - ITM) opsiyonlar, bunda opsiyonning strayk bahosi premiyadan tashqari ham daromad keltiradi.

- Zararli (out-the-money - OTM) opsiyonlar, bunda opsiyonning strayk bahosi premiya bilan ham daromadsiz bo'ladi.

Opsiyonlar ham birjadan tashqari bozorda ham birjada samarali tarzda savdo qilinib kelmoqda. Birjadan tashqari bozorda ular asosan bir tomondan AQSH dollari va ikkinchi tomondan funt sterling, shvetsiya franki, yaponiya ienasi, kanada dollari va evroga nisbatan tuziladi. Birjadan tashqari bozor opsiyonlari xaridorlarning ehtiyojiga qarab tuziladi. SHuningdek, ularda kontragent riski mavjud bo'ladi va u asosan banklar hamda individual kontragentlar tomonidan foydalaniladi. Birjadagi opsiyonlar esa xuddi fyucherslar kabi savdo qilinadi.

Valyuta opsiyonlarining amalga oshirilishi

Opsiyonlar valyuta riskidan xedjirlash hamda spekulyatsiya uchun qo'llanishini aytib o'tgan edik, endi uni spekulyatsiya uchun qo'llanishini ko'rib chiqamiz.

Agar spekulyator nuqtai nazaridan qarasak, unda spot, forward va opsiyon bozorida savdo qilish, ya'ni spekulyativ operatsiyalar amalga oshirish imkoniyati bor.

Spot bozori spekulyatsiyasi

Masalan, uning 100 ming AQSH dollari bo'lsa va u shvetsiya franki bo'yicha olti oylik spot kursi har bir shvetsiya franki uchun 0.6000 AQSH dollari bo'lishini taxmin qilsa (albatta tahlillar natijasida), unda u spekulyatsiyani amalga oshirish uchun birinchi navbatda bugungi kundagi har bir shvetsiya franki uchun 0.5851 AQSH dollari spot kursi bo'yicha 100 ming AQSH dollariga 170910.96 shvetsiya franki sotib olishi kerak. Spekulyator o'zi taxmin qilgan valyuta kursi etib kelmaguncha uni o'zida ushlab turadi va agar u mo'ljallagan kurs etib kelsa u sotadi:

$$170910.96 \text{ Sfr} * \$ 0.6000/\text{Sfr} = \$ 102546.57$$

Natijada, u 2546.57 AQSH dollari miqdorida yoki 2.5 % foyda ko'radi.

Forvard bozori spekulyatsiyasi

Forvard bozorida spekulyatsiyani amalga oshirish uchun spekulyator birinchi navbatda olti oylik \$ 0.5760/Sfr forvard kursi bo'yicha 173611.11 shvetsiya frankini sotib oladi. Bu bosqich spekulyatoridan hech qanday xarajatni talab qilmaydi. Olti oydan keyin \$ 0.5760/Sfr forvard kursi bo'yicha 100 ming AQSH dollariga 173611.11 shvetsiya frankini sotib oladi va shvetsiya frankini spot bozorida \$ 0.6000/Sfr kurs bo'yicha sotadi:

$$173611.11 \text{ Sfr} * \$ 0.6000/\text{Sfr} = \$ 104166.67$$

Natijada, 4166.67 AQSH dollari miqdoridagi foydani hech qanday investitsiyasiz oladi.

Option bozori spekulyatsiyasi

Option bozorida spekulyatsiyasini amalga oshirishda spekulyator qanday turdagi opsiyonni sotib oladi yoki sotadi aniqlab olishi kerak.

Koll opsiyonni sotib olishda u frankdagi avgust koll opsiyonini $58 \frac{1}{2}$ (\$ 0.5850/Sfr) strayk bahoda va 0.50 yoki \$ 0.0050/Sfr premiyani xarid qiladi. Agar spot kurs strayk bahodan past bo'lsa, spekulyator koll opsiyonni sotmaydi. Chunki, frank spot bozorda koll dagiga qaraganda arzonroqdir. Spekulyatorning yo'qotishi faqat premiyadan (0.50) iborat bo'ladi. Agar spot kurs strayk kursdan yuqori bo'lsa, masalan, $59 \frac{1}{2}$ bo'lsa, u shvetsiya frankini $59 \frac{1}{2}$ kurs o'rniga $58 \frac{1}{2}$ kurs bilan sotib oladi va uni spot bozorida $59 \frac{1}{2}$ kurs bo'yicha sotib foyda oladi.

$$\text{Foyda(zarar)} = \text{spot kurs} - (\text{strayk baho} + \text{premiya})$$

$$= \$ 0.595/\text{Sfr} - (\$0.585/\text{Sfr} + \$0.005/\text{Sfr}) = \$0.005/\text{Sfr}$$

SHuningdek, spekulyator kursni yana ham ko'tarilishini ko'tishi mumkin. YA'ni opsiyon bozorida yo'qotish cheklangan (premiya bilan) daromad esa cheklanmagan bo'ladi.

Kol opsiyonini yozib berishda spekulyator o'ziga sotish majburiyatini oladi. Sotib oluvchi tomon esa belgilangan valyutani sotib olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda u cheklangan foyda va cheklanmagan yo'qotishda bo'ladi. Spekulyatorning kol opsiyon yozib berishdagi daromad (zarar)i quyidagicha:

$$\text{Foyda(zarar)} = \text{Premiya} - (\text{Spot kurs} - \text{Strayk baho})$$

$$= \$0.005/\text{Sfr} - (\$0.595/\text{Sfr} + \$0.585/\text{Sfr}) = -\$0.005/\text{Sfr}$$

SHvetsiya frankiga 58.5 US/SF strayk baho bilan kol opsiyonni yozib beruvchi spekulyatorning daromadi cheklangan bo'ladi va u spot kurs 58.5 US/SF strayk bahodan quyi bo'lgan holda 0.50 US/SF ga teng bo'ladi. Spekulyatorning yo'qotishi esa cheklanmagan darajada bo'ladi, ya'ni agar spot kurs 59.0 US/SF (huquqdagi) dan yuqori bo'lsa spekulyatorning yo'qotishi cheklanmagan bo'ladi.

Put opsiyonni sotib olish bilan spekulyator valyutani strayk bahoda sotish huquqi bo'ladi. Kol opsiyon singari bunda ham cheklangan yo'qotish, cheklanmagan yutuq bo'ladi. Agar spot kurs strayk bahodan tushib ketsa ham spekulyator put opsiyonni strayk baho bo'yicha amalga oshirib daromad oladi. Spekulyatorning put opsiyon sotib olishdagi foyda(zarari) quyidagicha bo'ladi.

$$\text{Foyda(zarar)} = \text{Strayk baho} - (\text{Spot kurs} + \text{Premiya}) = \$0.585/\text{Sfr} - (\$0.575/\text{Sfr} + \$0.005/\text{Sfr}) = \$0.005/\text{Sfr}$$

SHvetsiya frankini 58.5 US/SF strayk baho bo'yicha put opsiyon sotib olgan spekulyator cheklangan miqdordagi, ya'ni spot kurs 58.5 US/SF dan yuqori bo'lgan holda 0.50 US/SF zarar ko'radi va cheklanmagan miqdordagi foyda olishi mumkin, ya'ni spot kurs 58.5 US/SF dan quyi bo'lsa foyda ko'ra boshlaydi.

Put opsiyonni yozib berishda spekulyator strayk bahoda belgilangan valyutani etkazib berish majburiyatini oladi. Bunda ham kol opsiyonni yozib bergandagi kabi cheklanmagan zarar, cheklangan yutuq bo'ladi. Bunda spekulyatorning foyda(zarari) quyidagicha topiladi:

$$\begin{aligned} \text{Foyda(zarar)} &= \text{Premiya-(Strayk baho-Spot kurs)} \\ = \$0.005/\text{Sfr}-(\$0.585/\text{Sfr}-\$0.575/\text{Sfr}) &= -\$0.005/\text{Sfr} \end{aligned}$$

YA'ni, spekulyator strayk bahodan ko'ra spot kurs ko'tarilib ketishidan daromad ko'rishi mumkin

SHvetsiya frankini 58.5 US/SF strayk baho bo'yicha put opsiya yozib bergan spekulyator cheklangan miqdordagi, ya'ni spot kurs 58.5 US/SF dan yuqori bo'lgan holda 0.50 US/SF foyda ko'radi va cheklanmagan miqdordagi zarar ko'rishi mumkin, ya'ni spot kurs 58.5 US/SF dan quyi bo'lsa spekulyator zarar ko'radi.

Forvard valyuta shartnomasi – bu kelajakdagi belgilangan muddatda aniq xorijiy valyuta summasini sotish yoki sotib olish bo'yicha banklararo bitimni bajarish majburiyatidir. Bunda valyuta, summa, almashuv kursi va to'lov muddati bitim tuzilgan paytda belgilanadi. Forvard bitim muddati 3 kundan 5 yilgacha bo'lishi mumkin, ammo uning 1, 3, 6 va 12 oylik muddatlari odatda ko'p uchraydi.

Forvard shartnomasi bank shartnomasi hisoblanadi, shuning uchun u standartlashtirilmagan va biror aniq operatsiya ostida ham qo'llanilishi mumkin. Forvard bitimlari bozori (6 oygacha bo'lgan muddat uchun) asosiy valyutalarda etarli darajada barqaror, 6 oydan ko'proq muddatga esa nobarqaror, bunda ayrim operatsiyalar almashinuv kurslarining kuchli tebranishiga olib kelishi mumkin.

Odatda Forvard operatsiyasi «svop» operatsiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar forvard bitimining o'zigina qo'llansa, (ya'ni bir vaqtning o'zida «spot» operatsiyasini amalga oshirish bilan emas), u holda bu operatsiya autrayt (outright) deb nomlanadi.

Valyuta opsiya ham valyuta operatsiyalarining turi bo'lib, undan sotuvchi haridor oldida kelajakdagi muayyan muddatda qat'iy belgilangan narx bo'yicha muayyan miqdordagi xorijiy valyutalarni harid qilish va sotish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Opsiylarning quyidagi 2 ta asosiy turi mavjud:

- «koll-opsiya» (coll option)-sotib olinadigan opsiya
- «put-opsiya» (put option)-sotiladigan opsiya
- «koll-put» (coll-put-option)-ikki yoqlama opsiya

Koll opsiinning xaridori oldindan belgilangan narx bo'yicha muayyan tovarni sotish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu «huquq» haridorga aniq tovarni sotib olish yoki sotish uning uchun foyda keltirmaydigan bo'lgan holda undan voz kechish imkoniyatini beradi.

Opsiinning sotuvchisi koll-opcion holatida opsiinni bajarishi, ya'ni sotishi lozim. Put-opcion holatiga ega opcion xaridori buni talab qilsa, muayyan tovarni sotib olishi shart.

Valyuta opsiionlarining quyidagi kamchiliklari mavjud:

a) Baho mukofotning bahosi valyuta bilan qoplangan umumiy summaning 5% atrofini tashkil qiladi, shunday bo'lsa-da, summaning aniqligi kutilayotgan kursning ayriboshlanishi o'zgarishiga bog'liqdir.

b) «oldindan» to'lovning zarurligi. Valyuta opsiionlari uning tuzilishi vaqtida to'lanadi. Bu barcha kompaniyalarga yoqmaydi, chunki ular opsiinni amalga oshirishni istasalar ham ular har doim naqd pulga ega bo'lmaydilar.

v) savdo opsiionlarini barcha valyutalarga nisbatan olib bo'lmaydi, shunday bo'lsa-da birjadan tashqaridagi opsiionlar har qanday erkin konvertirlanadigan valyutaga erkin tarzda sotiladi.

a) Koll-opcion – opcion egasiga kelajakda kursi oshib ketishi mumkin bo'lgan valyutani nisbatan past strayk-bahoda xarid qilish huquqini beradi.

b) sotish uchun yoki put-opcion egasi kelajakda kursi tushib ketishi mumkin bo'lgan valyutani nisbatan yuqori strayk bahoda sotish huquqini beradi.

v) put-koll opcion egasi bazis bahoda valyutani sotib olishi yoki sotishi mumkin. Opcion bilan forvord bitimi orasidagi asosiy farqlar quyidagilardan iborat:

- xaridor apsayddan daromad oladi
- xaridor daunsayddan himoyalangan
- xaridor opcion uchun mukofot to'laydi.

Apsayd – almashinuv kursining strayk bahoga nisbatan o'sishi, daunsayd-strayk bahoga nisbatan pasayishi.

Svop operatsiyasi – bu bir vaqtning o'zida chet el valyutasini har xil sanaga turli hisob-kitoblar shartida teng summaga sotib olish va sotishdir. YA'ni svop – bu valyutani kelajakda sotib yuborish garovi bilan qandaydir vaqtga sotib olishdir. Bunda

bir vaqtning o'zida valyuta almashuvi bo'yicha 2ta alohida bitim tuziladi. Bu bitimlar qarama-qarshi yo'nalishga va turli hisob-kitob sanasiga ega bo'ladi.

Svop operatsiyalari ko'pgina banklar tomonidan o'zlarining chet el valyutasidagi majburiyatlarini qoplash maqsadida foydalanadi. Svop operatsiyasi ikki bank tomonidan amalga oshirilganda bir bank ikkinchi bankga bir valyutani, ikkinchisi ikkinchi valyutani almashadi va qandaydir vaqt o'tishi bilan valyutalar qaytarib olinadi.

Asosiysi shundaki, svop bitimlari ochiq valyuta pozitsiyasini keltirib chiqarmaydi va vaqtincha kurs o'zgarishi bilan bog'liq riskdan holi bo'lgan valyuta bilan ta'minlaydi. Svop bitimlari odatda 1 kundan 6 oygacha muddatga tuziladi, muddati 5 yilgacha bo'lgan svop bitimlari esa juda kam uchraydi.

Svop operatsiyalari tijorat banklari o'rtasida, tijorat bank va markaziy bank o'rtasida, hamda mamlakatlar markaziy banklariaro amalga oshirilishi mumkin.

Umumiy qilib aytganda, kassa va forvard operatsiyalarini muvofiqlashtiruvchi valyuta shartnomasini svop shartnomasi hisoblanadi.

Valyuta arbitraji – bu valyutani sotish yoki sotib olish bo'lib, keyinchalik teskari bitim tuzib, valyuta kurslari farqi yordamida foyda olish maqsadida o'tkazishni ifodalaydi. Arbitraj operatsiyalarini o'tkazishning asosiy shartlaridan biri bozorning turli segmentlariaro kapital oqimi erkin bo'lishi, ya'ni valyutalarning erkin konvertirlanishi, valyuta cheklovlarining yo'qligi va boshqalar hisoblanadi.

Arbitraj ikki xil – joylashuvga ko'ra va vaqtli bo'ladi. Ularning har biri ham o'z navbatida oddiy va murakkabga bo'linadi. Operatsiya ikki valyuta ishtirokida amalga oshirilsa oddiy, uch va undan ortiq valyutalar bilan amalga oshirilsa murakkab bo'ladi.

Joylashuvga ko'ra arbitraj banklarning turli valyuta bozorlaridagi kurs farqi orqali foyda olishini bildiradi. U valyuta risk bilan bog'liq emas, chunki valyuta savdosi bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Masalan, bank vakili Singapurda valyutani sotib oladi (sotadi) va shu vaqtning o'zida u o'zining Londondagi korrespondenti orqali shu valyutani sotadi (sotib oladi).

Vaqtli arbitraj vaqt o'tishi bilan valyuta kursi orasidagi farq orqali foyda olishdir. Valyuta arbitraji spot va forvard sharoitida amalga oshirilishi mumkin va bu turdagi operatsiyalarda valyuta risklari mavjud bo'ladi.

Arbitraj operatsiyalari tijorat banklari dillerlari ishining asosiylaridan hisoblanadi. Ko‘pincha arbitraj bitimlarini o‘tkazish imkoniyatlari sanoqli daqiqalardagina to‘g‘ri kelishi mumkin, shuning uchun dillarning arbitraj operatsiyasini tezda baholash va hisoblashi qobiliyatidan ko‘p narsa kelib chiqadi. Arbitraj operatsiyasini muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun bozorni yaxshi o‘rganish, kelajakni ko‘ra bilish kabilar dillerlar uchun zaruriy shartlardan biridir.

Hozirgi kunda vakolatli banklar valyuta amaliyotlarini amalga oshirish doirasini jaxon amaliyotiga muvofiq, kengaytirishga yordam beradigan O‘zbekiston valyuta bozorini erkinlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni hisobga olgan holda, manfaatdor idoralarga xalqaro valyuta bozori faoliyat yuritish uslublarini diqqat bilan o‘rganish hamda mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta’sirlarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida valyuta risklarini tartibga solish instrumentlarini qo‘llash uchun shart-sharoitlar yaratish choralarini ko‘rishlari lozim.

Hozirgi vaqtda tijorat banklarining valyuta bozoridagi faoliyatining Markaziy bank tomonidan tartibga solinishi bank tizimidagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunning 40-moddasiga muvofiq, Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organi bo‘lib hisoblanadi.

Bu masalaning dolzarbligi asosan, ko‘pgina yirik vakolatli banklar aktivlarining asosiy qismini valyuta sohasiga yo‘naltirilganligi, ya’ni xorijiy valyutadagi aktivlardan iboratligi bilan izohlanadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish prinsiplari va valyuta qimmatliklari bilan ishlash tartibi O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida»gi qonuni bilan aniqlanadi. Ushbu qonun talablariga muvofiq O‘zbekiston hududida xorijiy valyuta bilan bog‘liq barcha hisob-kitoblar faqat vakolatli banklar orqali, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining valyuta operatsiyalarini o‘tkazishga ruxsat beruvchi litsenziyasiga ega bo‘lgan tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday litsenziyaga ega bo‘lgan tijorat banklari vakolatli bank hisoblanadi.

Tijorat banklarining valyuta faoliyatlarini tartibga solishda ochiq valyuta pozitsiyasini yuritilishi haqidagi hisobot muhim o‘rin tutadi. Bu hisobotni tahlil qilishning zarurati Markaziya Bank tomonidan vakolatli banklarga chet el valyutasi

bilan bog‘liq operatsiyalarga limit o‘rnatilishidadir. Bu tartib bo‘yicha bankning o‘z mablag‘lariga nisbatan 20%gacha valyuta sotib olishi va sotishiga ruxsat bor, ya’ni bir valyuta turi bo‘yicha bu ko‘rsatkich 5% qilib belgilangan. Limit o‘rnatishning asosiy sababi, vakolatli banklar barcha aktivlarini chet el valyutalariga qo‘ysa va bu valyutalarning kursi jahon valyuta bozorida tushib ketsa, bank aktivlari kamayishi va hatto bank bankrot bo‘lishi mumkin va bu o‘z navbatida mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta’sir qiladi. SHuning oldini olish maqsadida, bu limit barcha vakolatli banklar uchun joriy qilingan. Ana shu erda shuni ta’kidlash lozimki, respublikamizda 15 oktyabr 2003 yildan joriy operatsiyalar bo‘yicha to‘liq konvertatsiya joriy qilinishi bu limitni o‘zgartirishni zarur qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida xozirgi vaqtda amalda Markaziy Bank boshqaruvida 1998 yilning 28 martida 392-son bilan qabul qilingan «Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritilishi qoidalar» amal qiladi.

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan tartibda bir qator o‘z echimini kutuvchi masalalar uchraydi. Xususan, qoidaning 2-bandi bo‘yicha: ochiq valyuta pozitsiyasining limit miqdori juda kam o‘rnatilgan, ya’ni barcha xorijiy valyuta pozitsiyasi bo‘yicha 20%, aniq bir valyuta turi bo‘yicha esa 5%. Fikrimizcha, ushbu foizlar miqdorini qayta ko‘rib chiqish kerak. CHunki, bizning respublika vakolatli banklari asosan ikki valyuta(EVRO, AQSH dollari) bilan ishlaydi.

Joriy operatsiyalar bo‘yicha konvertatsiya masalasining hal qilinishi, banklar, jumladan, ularning mijozlari hisoblanmish korxona va tashkilotlar xalqaro jahon bozoriga, ya’ni integratsiya jarayoniga jadal kirishib ketadilar. Demakki, umumiy pozitsiyaning miqdori kimligi bu jarayonga xalaqit berishi mumkin.

Valyuta pozitsiyasi va nazorati

Valyutali banklar chet el valyutasini sotish va sotib olish huquqiga egalar:

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining «Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish» qoidasida ochiq valyuta pozitsiyasi uchun quyidagi limitlar o‘rnatilgan:

- Ixtiyoriy valyutada ochiq valyuta pozitsiyasi limiti har bir operatsion kun oxirida valyutali banklarda regulyativ kapitalning 5%idan oshmasligi va bankning

umumiy ochiq valyuta pozitsiyasining limiti har operatsion kunning oxirida uning bank regulyativ kapitalining 20%idan oshmasligi lozim;

- Summali ochiq valyuta pozitsiyasida uzun valyuta pozitsiyasi ko‘rinishi o‘rnatiladi. Valyutani sotish va sotib olishda bank faqat ochiq valyuta pozitsiyasidan foydalanmaydi. Kun ora banklarda umumiy valyuta pozitsiyasi «Nostro» schyoti bo‘yicha olib boriladi. Quyidagiga ko‘ra ular to‘lovi foydalanadigan kungacha o‘rnatiladi. Agar to‘lovlar kirim bilan qo‘shilib ketsa, bir schyotdan boshqa schyotga mablag‘larni o‘tkazishda xatolikka yo‘l qo‘yilsa, bunda bank kun ora ochiq maxsus schyot bo‘yicha tekshirish o‘tkazadi.

CHet el valyutasini sotish va sotib olishda bank valyuta pozitsiyasi limitiga rioya qilishi kerak. Bank valyuta operatsiyalarini bajarganda valyuta operatsiyalarining bir qismini sarflaydi. Bunda bankning xorijiy valyutalar bo‘yicha majburiyati va talablari orasidagi nisbat o‘zgaradi. Bankning xorijiy valyutalarni sotish va sotib olish jarayonidagi valyutalar bo‘yicha talab va majburiyatlari nisbati holati banklarning valyutaviy holati deyiladi. Valyutaviy holat ochiq va yopiq bo‘lishi mumkin.

Hohlagan bir valyuta bo‘yicha ochiq valyuta pozitsiyasi deganda bankning shu xorijiy valyuta bo‘yicha aktivlarining majburiyatlaridan oshgan summasi tushuniladi va u uzun valyuta pozitsiyasi deb yuritiladi. Bank valyutani sotib olganda u uzun valyuta pozitsiyasiga ega bo‘ladi va uni shu valyuta bo‘yicha boshqalar oldida talabi oshadi, sababi sotgan tomon valyutani etkazib berish majburiyatini olgan.

Aksincha, shu valyuta bo‘yicha majburiyatlarning aktivlardan oshsa, ya’ni xorijiy valyutani sotish uni sotib olishdan yuqori bo‘lsa valyuta pozitsiyasi qisqa bo‘ladi. Xorijiy valyuta sotganda qisqa valyuta pozitsiyasi yuzaga keladi, sababi valyutani sotib olgan tomongan etkazib berish majburiyati shakllanadi.

Agar valyuta bo‘yicha talablar va majburiyatlar teng bo‘lsa valyuta pozitsiyasi yopiq bo‘ladi.

Valyuta pozitsiyasining umumiy holati(summasi) deganda barcha valyutalar bo‘yicha uchun(qisqa) pozitsiyalar umumiy summasi tushuniladi.

Agar bank operatsion kun davomida valyuta operatsiyalarini olib borishda ochiq valyuta pozitsiyasi bo‘yicha qo‘yilgan limitdan ortiq operatsiya amalga oshirgan, ya’ni

valyutani ko‘p sotib olgan bo‘lsa bo‘lsa, u holda valyuta pozitsiyasi ortiq sotib olingan valyutani sotib yuborish yo‘li bilan balanslashtirib yopiladi.

Vakolatli banklar ochiq valyuta pozitsiyasi limitiga hisoblangan foizlar, ko‘chmas mulk, qimmatli qog‘ozlar va boshqa moddiy qiymatliklarni sotish yoki sotib olish bilan bog‘liq valyuta operatsiyalarini ham amalga oshiradi. Vakolatli banklar o‘zlarining joylaridagi filiallari uchun ochiq valyuta pozitsiyasining chegarasini mustaqil belgilashlari mumkin. Lekin filiallar bo‘yicha belgilangan ochiq valyuta pozitsiyasining yig‘indisi bank bo‘yicha uning o‘z mablag‘larining 20%idan oshmasligi lozim.

Vakolatli banklar har oyda oyning 3chi kunigacha Markaziy Bankka o‘zlarining ochiq operatsiyalari va unga rioya qilinganligi to‘g‘risida hisobot berishlari lozim. Hisobot quyidagi shaklda tuziladi:

Ochiq valyuta pozitsiyasi limitini hisoblash.

Aytaylik tijorat bankining regulyativ kapitala miqdori 50.000 so‘m. Bankning xorijiy valyutalar bo‘yicha quyidagicha pozitsiyaga ega:

-jadval

Valyuta pozitsiyasi va uning turlari

Valyutalar	Sotish-sotib olish operatsiyalari		Muddatli operatsiyalar		Umumiy(summa) pozitsiya	
	uzun	qisqa	uzun	qisqa	uzun	qisqa
AQSH dollari	80		-100		-20	
evro	40		-10		30	
SHveysariya franki	-90		150		60	
Kanada dollari	10		-		10	
Avstraliya dollari	-200		40		-160	

«-» bilan qisqa valyuta pozitsiyasi belgilangan.

Jadvaldan ko‘rib turganimizdek mazkur bank umumiy pozitsiya bo‘yicha AQSH va Avstraliya dollarida qisqa, qolgan valyutalar bo‘yicha esa uzun pozitsiyalarga ega.

O‘zbekiston Respublikasi valyuta bozorining shakllanishi.

O'zbekiston Respublikasida ijobiy tendensiya kuzatilmoqda. YA'ni, amalga oshirilgan oqilona iqtisodiy siyosat natijasida tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i 2005 yildagi 29% dan 2008 yilda 13,3% ga qadar qisqargan.

Bundan tashqari tashqi iqtisodiy siyosatda erishilgan yutuqlarni mustahkamlab ularni yanada chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

- iqtisodiyotning ildam, barqaror rivojlanishini ta'minlash, uning importga
- bog'liqligini kamaytirish;
- ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni joriy qilishni
- tezlashtirish;
- mahalliy xom ashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish va buning asosida
- zamonaviy raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish;
- valyuta resurslaridan tejab-tergab va omilkorlik bilan foydalanish;
- tovarlarni ishlab chiqarishda nafaqat ichki bozor, balki tashqi bozor ham hisobga olinishi lozim.
- bojxona va soliq imtiyozlari hisobiga bo'shayotgan mablag'lardan uskunalarni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishda foydalanishlari mumkin. Bu esa, o'z navbatida, raqobatbardoshli eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va kengaytirish mafsadga muvofiq.
- tijorat bankalari, «O'zstandart» agentligi hamda manfaatdor vazirlik va muassasalar tomonidan
- xalqaro standartlarga javob beruvchi sifatni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va
- joriy qilishda, shuningdek, xodimlarni yangi malakalarga o'qitishda har tomonlama ko'mak
- ko'rsatiladi. Bu esa korxonaning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Hozirda ko'plab mutaxassis va ekspertlar tomonidan jahon moliyaviy inqirozining global tus olishi va iqtisodiy inqiroz jarayonlarining kuchayishi retsessiya va iqtisodiy pasayishni, investitsion faollik ko'lami cheklanib borishini, talab va

xalqaro savdo hajmining kamayishi hamda jahonning ko‘plab mamlakatlariga ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofotlar sodir bo‘lishi mumkinligi e’tirof etilmoqda.

Xususan, 2008 yilda jahon miqyosida bevosita xorijiy investitsiyalar oqimi 20% gacha pasayganligi kuzatilgan. 2009 yilda jahon yalpi ichki mahsulotining pasayishi, bevosita xorijiy investitsiyalar ko‘laminin yanada pasayishini kuzatilishi hamda xalqaro savdo hajmi qariyb 15% ga pasayishi ehtimol qilinmoqda. Bu holat esa ishsizlik darajasining ortishi bilan bog‘liq jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi ishsizlik keyingi 3 yil mobaynida o‘tib borishi kuzatilmoqda. 2009 yilda AQSHda ishsizlik darajasi 7,2%, Yaponiyada 4,4%, Buyuk Britaniyada 6,4%, Germaniyada 8,2% ga o‘shishi kutilmoqda. Bu o‘z-o‘zidan ijtimoiy transfertlarning ko‘payishi hisobiga davlat harajatlarining o‘shishiga olib keladi.

SHunga ko‘ra, hukumatlar darajasida inqirozdan chiqish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda bandlik masalalarini, talabni rag‘batlantirish orqali ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan keskin choralarni ko‘rish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xorijiy valyutalarga bo‘lgan talab va taklifni muvofiqlashtirish. (eksportga yo‘naltirilgan korxonalar faoliyatini qullab-quvvatlash nuqtai nazaridan).

Valyuta nazoratining asosiy maqsadi, bu eksport bo‘yicha valyuta tushumining o‘z vaqtida eksportchi tashkilot hisob raqamiga tushishini ta’minlash va import mahsulotlari uchun o‘tkazilayotgan valyuta mablag‘larini to‘planishi, xaqiqatda Respublika hududida kelib tushgan mahsulot narxiga muvofiqligi, shuningdek, belgilangan tartibda valyuta tushumidan majburiy, sotuvni amalga oshirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Moliya Vazirligi va Davlat Soliq Qo‘mitalari valyutani nazorat qiluvchi organlar hisoblanadilar. Tijorat banklari valyuta nazoratining Agentlari hisoblanadilar. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 28 mart 1998 yildagi 393-sonli Eksport va barter shartnomalarini hisobga olish va bajarilishi nazorati tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomasi Eksport – import shartnomalarini bank muassasalari

tomonidan ro'yxatga olish qoidasi va ular ustidan nazoratni amalga oshirishni belgilaydi. Korxona va tashkilotlarning mulkchilik shaklidan qat'iy nazar tuzgan eksport shartnomalari, ularning valyuta hisobraqami ochilgan vakolatli banki orqali o'tishi lozim. YArmaka savdosida, birjada tuzilgan eksport shartnomalari bankda ro'yxatga olinmaydi .

Amaldagi qonunchilikka asosan, ro'yxatga olinishi lozim bo'lgan eksport shartnomalarida Tashqi iqtisodiy aloqalar Vazirligidan ro'yxatga olingandan so'ng bankda ro'yxatga olinadi .

Eksport shartnomasining summasi qat'iy valyutada belgilanishi lozim .

Mahsulot, sotilishi bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar oldindan, amalga oshirilishidan eksportda tashkilot belgilangan shaklda ariza, shartnoma taqdim etadi. Xizmat ko'rsatayotgan bank ikki ish kuni mobaynida shartnomani ko'rib chiqib, imzolanib, shartnoma va uning nusxasining har bir varag'ini bank shtampi bilan tasdiqlaydi, so'ngra eksport shartnomaga identifikatsiya nomeri o'zlashtirib belgilangan shaklda ma'lumotnoma beriladi.

Keyin shartnomaning bir nusxasi eksportyor tashkilotga berilib, ikkinchi nusxasi ish yig'ma jildiga tikiladi.

Eksport shartnomalari «ko'zda tutilgan holatlar» 95497 hisobvarag'i shartnoma ro'yxatga olingan sanasiga spot kursi bo'yicha hisoblanib, so'mda hisobga olinadi. Analitik hisobda ham shartnomalarga litsevoy schyot ochiladi Eksport shartnomasining summasi 95497 hisobvarag'i bo'yicha debetlanadi .

Operatsiya quyidagi provodka bilan rasmiylashtiriladi;

Debet scheti №95497 «Ko'zda tutilmagan vaziyatlar, boshqa schyotlari»

Kredit scheti №96397 «Kuzda tutilmagan vaziyatlar kontr-schyoti»

Operatsiya haqiqatda amalga oshirilganda ushbu shartnoma bo'yicha eksportyor tranzit schyotiga kelib tushgan valyuta tushumi №95497 schyotida kreditlanadi.

Operatsiya kuyidagi provodka bilan rasmiylashtiriladi ;

Debet scheti №96397 «Ko'zda tutilmagan vaziyatlar kontr-schyoti»

Kredit schyoti №95497 «Ko'zda tutilmagan vaziyatlar boshqa schetlari».

Vakolatli banklar (Bo'limlar, boshqarmalar) eksport-import operatsiyalari bo'yicha quyidagi hujjatlar tikiladigan yig'ma ish jildi ochishlari lozim;

«Bank ishi» fani. «Bank ishi» kafedrasi. TMI-2015. Tel:+(998)71 234-43-42, email: kbni@tfi.uz

- korxonaning arizasi;
- ro'yxatga olingan shartnomaning nusxasi ;
- shartnomaga identifikatsiya nomeri o'zlashtirilganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma ;
- hisob-kitob ma'lumotnomasi;
- mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasidan chiqarganligini tasdiqlovchi bojxona reestori;
- Haqiqatda eksportyor tashkilotiga kelib tushgan valyuta tushumi tushganligini tasdiqlovchi schyotdan bildirishnoma. Belgilangan tartibda valyuta tushumidan majburiy sotuvni amalga oshirish va qoldiqni asosiy hisobvarag'iga o'tkazish ;

Ushbu shartnomaga tegishli bo'lgan har xil turdagi yozishmalar, yuqori tashkilot bilan soliq idoralari, bojxona xizmati ;

-Xizmat ko'rsatayotgan bank tomonidan talab qilingan zarur bo'lgan hujjatlar.

Barter shartnomalari ham shu tartibda amalga oshiriladi . Barter shartnomalarini tuzish uchun tashkilotlar tegishli idoralardan (Vazirlar Mahkamasi, Hokimiyatlar) ruxsat olishlari kerak. Ruxsatnoma olganlaridan keyin barter shartnomasini 10 kun muddat ichida bankka taqdim etishlari lozim. Barter shartnomalari bankda ro'yxatga olingan kunga spot kursi orqali o'tkazilib so'mda '90969 «Barter shartnomalari» hisobvarag'ida hisobga olinadi. Analitik hisobda har bir shartnoma uchun litsevoy schyot ochiladi.

'90969 hisobvarag'i shartnoma ro'yxatga olinguncha spot kursi orqali hisoblangan sumdagi ekvivalent shartnoma summasi debetlanadi.

Debet schet '90969 «Barter shartnomalari»

Kredit schet '96317 «Barter shartnomalari bo'yicha kontr-schet».

'90969 schet amalga oshirilgan majburiy sotuv va kelib tushgan tovar summasiga kreditlanadi.

Ushbu operatsiya quyidagi provodka bilan rasmiylashtiriladi ;

Debet schet ' 96317 «Barter shartnomalari buyicha kotnr-schet»

Kredit schet ' 90969 «Barter shartnomalari»

Bunaqa hisob yuritish eksport – barter shartnomalarini bajarilishini kerakli darajadan nazorat o'rnatish uchun valyuta tushumlarini o'z vaqtida va to'liq ravishda

ta'minlash, shuningdek belgilangan tartibda majburiy sotuvni amalga oshirishlari uchun zarur. Qonunda belgilangan muddatda tushum bo'lmasa yoki mahsulot kelib tushmasa, vakolatli bank bir hafta mobaynida chora ko'rish uchun tegishli organlarga xabar berishi lozim. Xat nusxasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining tashqi aloqalar va valyutani boshqarish departamentiga, Davlat Soliq Qo'mitasiga yuborilishi lozim.

Shuningdek import shartnomalari tashkilotning valyuta hisobraqami ochilgan vakolatli banklarda ro'yxatga qo'yilishi kerak. Ta'sischi shartnomasi yoki kelib tushgan mahsulot pul to'lanmaydigan shartnomalar bankda ruyxatga olinmaydi.

Import shartnomalarini xizmat ko'rsatayotgan bankda ro'yxatga ko'yish uchun mijozlar tomonidan bankka taqdim etishlari lozim bo'lgan hujjatlar;

- Belgilangan shaklda ariza;
- shartnomaning asl nusxasi va uning nusxasi;
- import bitimi pasporti;
- TIAV ning import shartnomalarining ro'yxatga olish sertifikatini kabilardir.

Tashki iqtisodiy aloqalar Vazirligida ro'yxatga olinmaydigan import shartnomalari bo'yicha ro'yxatga olish uchun importni sifatli mahsulotlar bilan taminlash maqsadida, xo'jalik subektlariga import shartnomalarining konsalting firmalarida ekspertizadan o'tish tavsiya etiladi.

Shartnomalar O'zbekiston Respublikasi Tashki iqtisodiy aloqalar Vazirligida import shartnomalarini ro'yxatga olish tartibining uchinchi bandiga asosan rasmiylashtirilishi lozim. Bundan tashqari, vakolatli banklar shartnomalarining quyidagi majburiy shartlarini:

- shartnomada chet el hamkorining to'liq rekvizitlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim (mamlakat, mol jo'natuvchining to'liq nomi, xizmat ko'rsatayotgan bank nomi, hisob raqamining nomeri);

- oldindan to'lov, shartnoma summasidan 15% dan oshmagan va chet el hamkorining bankidan bank kafolatnomasi mavjud bo'lishi;

- shartnomaning to'lov shartiga tegishli barcha o'zgarishlar tomonlarning qo'shimcha kelishuvida aks etishi lozim. Vakolatli bank taqdim etilgan hujjatlarni ikki kun mobaynida ko'rib chiqib, ro'yxatga oladi, agarda taqdim etilgan hujjatlar qonunda

belgilangan tartibda javob bermasa, bank yozma rad xatini barcha kamchiliklarini ko'rsatgan holda belgilangan tartibda rasmiylashtirish uchun mijozga qaytaradi.)ni tekshirishlari kerak.

- Ro'yxatga olish vaqtida import shartnomalariga indentifikatsiya nomeri o'zlashtiriladi SHartnomaning asl nusxasiga, uning ko'chirma nusxalarining barcha varaqalariga va import bitimi pasportining barcha nusxalariga bank shtampi bosiladi va vakolatli bank xodimi imzosi bilan tasdiklanadi, shundan so'ng shartnomaning asl nusxasi mijozga qaytarilib, uning nusxasi bankda ish jildiga tikiladi.

«Mahsulotlarni bojxona xizmatida rasmiylashtirish tartibining» 4-bandiga asosan kelib tushgan mahsulotlarni rasta qilish maqsadida raqamda shaxsiy mablag'lari mavjudligi to'g'risidagi malumotnoma yoki kafolatnoma berish uchun bankka yozma murojaat qilinadi. Mijozning yozma arizasiga asosan, amalga oshirilayotgan oldindan to'lov, ochilgan akkreditiv, berilgan bank kafolati yoki ushbu shartnoma bo'yicha kelib tushgan molning pulini to'lash uchun mablag'ni zahiralanganligi ko'rsatilgan holda o'z mablag'lari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnoma beradi.

Mablag'lar № 29896-sonli depozit hisob raqamida mijozning yozma arizasiga asosan rezerv qilinadi. Rezerv qilingan mablag'lardan fakat ushbu shartnoma bo'yicha kelib tushgan mahsulotlarning pulini to'lash maqsadida foydalanish lozim. Mablag'larni rezerv qilishning asosiy shartlaridan biri bu mijozning byudjet oldida va har xil turdagi soliqlardan qarzi yo'qligini tasdiqlovchi soliq idoralarning malumotnomasining mavjudligi hisoblanadi.

Vakolatli bank tomonidan mijozlarga kafolatnoma berishning asosiy sharti Markaziy Bank yo'riqnomasining talablariga muvofiq importyor foydasiga uchinchi shaxs tomonidan kafolatnoma berilishidir. SHuningdek, uchinchi shaxs tomonidan berilgan kafolatnoma bankning kredit komissiyasida ko'rib chiqilishi lozim. Ijobiy xulosaga kelishgandan so'ng vakolatli bank rahbari bojxona xizmatiga taqdim etish uchun kafolatnoma berishga ruxsat beradi.

Korxona va tashqilotlar mulkchilik shaklidan kat'iy nazar tuzilgan eksport shartnomalari , valyuta xisob rakami ochilgandan vakolatli bankda kuyilishi lozim. YArmarka savdosida ,birjada tuzilgan eksport shartnomalari bankda ruyxatga olinmaydi.

TIAV-da amaldagi qonunchilikka asosan ruyxatga olinishi lozim bo'lgan eksport shartnomalari , bankda faqat TIAV- da ruyxatga olingandan sung ruyxatga olinadi. Eksport shartnomasining summasi kat'iy valyutada belgilanishi lozim.

Maxsulot, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar sotilishi oldindan, eksportchi-tashqilot belgilangan shaklda ariza, bitta shartnoma va yana bitta nusxasi bilan. Xizmat ko'rsataetgan bank 2-ish kuni mobaynida shartnomani ko'rib chikib, javobgar shaxs tomonidan imzolanib, shartnoma va uning nusxasi har bir varagida bank shtampi bilan tasdiklanadi, sungra eksport shartnomaga identifikatsiya nomeri uzlashtirib belgilangan shaklda ma'lumotnoma beriladi.

Keyin shartnomaning bir nusxasi eksportchi tashqilotga berilib, ikkinchi nusxasi ish yigma jiltiniga tikiladi.

Vakolatli banklar (Bo'limlar,boshqarmalar) quyidagi xujjatlar tikiladigan ish jildi ochishlari lozim

- korxonaning arizasi;
- ruyxatga oligan shartnomaning nusxasi ;
- shartnomaga identifikatsiya nomeri uzlashtirilganligi to'g'risidaga ma'lumotnoma ;
- xisob-kitob ma'lumotnomasi;
- maxsulotlarni O'zbekiston Respublikasidan chiqarganligini tasdiklovchi bojxona riestori;

-Xakikatda eksportchi tashqilotiga kelib tushgan valyuta tushumitushganligini tasdiklovchi litsevoy schetdan bildirishnoma Belgilangan tartibda valyuta tushumidan majburiy sotuvni amalag oshirish va qoldiqni asosiy xisob varagiga utkazish ;

-Ushbu shartnomaga tegishli bo'lgan har xil turdagi ezishmalar , yuqori tashqilot bilan solik idoralari , bojxona xizmati ;

-Xizmat ko'rsatayotgan bank tomonidan talab kilingan zarur bo'lgan xujjatlar .

-jadval

Eksport bitimlarini ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar va ularni ko'rib chiqish muddatlari.

ORGAN	MUDDATLARI
-------	------------

Bitimni TIASSV (agar shunday talab bo'lsa)da ro'yxatdan o'tkazish	5 ish kunidan 10 ish kunigacha.
Tovarni tovar-xom ashyo birjasida ro'yxatdan o'tkazish (tovar faqat tovar-xom ashyo birjasi orqali sotilayotgan hollarda)	Bitim imzolangan paytdan boshlab 1 ish kuni mobaynida.
Bitimni vakolatli bankda hisobga qo'yish	1 ish kunidan (dehqon va fermer xo'jaliklari bitim lari) 2 ish kunigacha (boshqa eksport bitimlari).
Bitimni bojxona organida hisobga qo'yish	1 ish kunida (qishloq xo'jalik mahsulotlarini eks port qilish bitimlari), 2 ish kunigacha (tovar-xom - ashyo birjasida imzolangan bitimlar), 3 ish kunigacha(boshqa eksport bitimlari).
Bitimni vakolatli bankda hisobdan chiqarish	1 ish kuni.
Bitimni bojxona organida hisobdan chiqarish	1 ish kunidan 7 ish kunigacha.

Quyida eksport sohasida mavjud imtiyozlarga doir qisqacha ma'lumotlarni keltiramiz:

- Tovar va xizmatlar eksportida bojxona rasmiylashtirish yig'imidan tashqari bojxona bojlari olinmaydi.
- Eksporchi korxonalar uchun daromad (foyda) solig'i va mulk solig'i to'lashning shunday tartibi o'rnatilganki, unga ko'ra, bu soliqlarning miqdori korxona tomonidan ishlab chiqarilib, realizatsiya qilingan jami tovarlar (ishlar va xizmatlar) hajmida erkin almashtiriladigan valyuta (EAV) hisobidagi eksport ulushiga bog'liq (eksport ulushi 15%dan 30%gacha bo'lgan holda yuqorida ko'rsatilgan soliqlar miqdori 30%ga, eksport ulushi 30 % va undan yuqori bo'lgan holda 2 baravarga pasayadi. Mazkur tartib yagona soliq to'lovini hisoblashda mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun ham joriy etilgan (bu tartib korxonalar tomonidan o'z eksport mahsulotini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki vazirlik, muassasa va korporativ birlashmalarning bo'linmalari hisoblangan ixtisoslashgan tashqi savdo birlashmalari va firmalari orqali realizatsiya qilinganda amal qiladi).
- Eksport qilinayotgan tovarlarni tashish, ortish, yukni tushirish, qaytadan ortish xizmatlari va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida EAV hisobiga tovarlar,

- ishlar va xizmatlar eksport qilish qo‘shimcha qiymat solig‘iga tortilmaydi. Eksport qilinayotgan tovarlardan aksiz solig‘i olinmaydi.

Don (bug‘doy, javdar, arpa, suli, guruch, makkajo‘xori, grechixa); non mahsulotlari (korxonaning o‘zi tomonidan ishlab chiqarilgan unli konditerlik mahsulotlari, pirojniylar, pechenelardan tashqari); un va yorma; qoramol, parranda, go‘sht va go‘shtli kalla-pocha mahsulotlari; shakar; jiddiy badiiy, tarixiy, ilmiy yoki o‘zga madaniy qiymatga ega bo‘lgan qadimiy buyumlar (Madaniyat va sport ishlari vazirligining xulosasiga ko‘ra); o‘simlik moylari (texnik moylardan tashqari); teri xom ashyosi (jumladan, nostandart teri mahsulotlari ham), mo‘yna xom ashyosi, shu jumladan qorako‘l teri (nostandart qorako‘l teri ham); rangli metallarning parchalari va chiqindilari; pilla, xom ipak, ipak chiqindilari.

Qizil kitobga kiritilgan yovvoyi o‘simliklar, ularning qismlari va ulardan olingan mahsulotlar (ruxsatnoma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan beriladi);

ozon qatlamini buzadigan moddalar va tarkibida shu modda bo‘lgan mahsulotlar (ruxsatnoma O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan beriladi);

ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari, nou-xaular, kashfiyotlar (Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnika rivojini muvofiqlashtirish qo‘mitasi);

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi kasbiy faoliyati (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi)

Qurollar va harbiy texnika, ularni ishlab chiqarish uchun maxsus ehtiyot qismlar; qimmatbahometallar, qotishmalar, ulardan yasalgan buyumlar; qimmatbaho ruda metallari, konsentratlari,parchalari va chiqindilari;

qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan buyumlar, qimmatbaho tabiiy toshlarning chiqindilari, kukunlari va ularning reko‘peratorlari, marvarid va undan yasalgan buyumlar, qahrabo va undan yasalgan buyumlar;

uran va boshqa radioaktiv moddalar hamda ulardan yasalgan buyumlar, radioaktiv moddalarning chiqindilari, radioaktiv moddalar foydalanilgan asbob va uskunalar;

rangli metallar, rangli metallari prokati, rangli metallarning parchalari va chiqindilari;

qora metallar, qora metallari prokati, qora metallarning parchalari va chiqindilari;
xom neft, tabiiy gaz; paxta tolasi, paxta linti.

paxta tolasi, paxtadan yigirilgan ip; paxta linti; xom neft, gaz kondensati, neft mahsulotlari; elektr quvvati; qimmatbaho metallar, ularning qotishmalari, parchalari va chiqindilari; qora metallar, ularning qotishmalari, parchalari va chiqindilari.

Davlat sub'ektlariga ular zimmasiga davlat tomonidan yuklangan xuquq va majburiyatlarni tasarrufchilari kiradi. Bo'lar o'z-o'zini boshqaradigan hududlar, ularning mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi sub'ektlardir (aksionerlik jamiyatlari, davlat korxonalari, kichik va o'rta korxonalar, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar, xususiy korxonalar, tadbirkorlar va boshqalar).

2012 yilda valyuta siyosati milliy valyuta va narxlar barqarorligini ta'minlash hamda eksportni rag'batlantirishga yo'naltirildi.

Bunda ichki valyuta bozorida almashuv kursini maqsadli koridor doirasida ushlab turish uchun, valyuta savdolarida intervensiya operatsiyalarini amalga oshirish orqali Markaziy bank tomonidan so'm almashuv kursining o'zgarib boruvchi boshqariladigan usuli qo'llanildi. Eksportni rag'batlantirish maqsadida so'mning AQSH dollariga nisbatan kursini bosqichma-bosqich pasaytirish choralari ko'rildi.

Natijada 2012 yil davomida so'mning AQSH dollariga nisbatan ayirboshlash kursi 10,5 foizga pasayib, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra bir AQSH dollari 1984,0 so'mni tashkil qildi.

2012 yilda banklari ichki valyuta bozoridagi jami operatsiyalar hajmi 13,7 mlrd. AQSH dollarini, shundan Markaziy bank operatsiyalari 4,8 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi.

So'mning AQSH dollaridan boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslari ushbu valyutalarning tashqi valyuta bozorlaridagi AQSH dollariga nisbatan kurslari dinamikasi va ichki valyuta bozorida so'mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursi ta'siri ostida shakllandi.

SHunga muvofiq, 2012 yilda soʻmning almashuv kursi funt sterlingga nisbatan 14,4 foizga, evroga nisbatan 11,9 foizga, yapon ienasiga nisbatan 2,2 foizga va xitoy yuaniga nisbatan 12,2 foizga pasaydi.

7-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN OPERATSIYALARI

1. Qimmatli qog‘ozlar tushunchasi va uning turlari.
2. Qimmatli qog‘ozlar bozori va uning ishtirokchilari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari.
4. REPO operatsiyalari.
5. Anderrayting operatsiyalari.
6. Trast operatsiyalari.
7. Qimmatli qog‘ozlar bilan balans va nobalans operatsiyalari.
8. Fond birjasi va depozitariylar faoliyati bilan bank tizimining o‘zaro hamkorlik darajasi.
9. *Dunyo mamlakatlarining fond bozorlariga moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta’siri va unda yuzaga kelgan tanglik sabablari.*

Qimmatli qog‘ozlar tushunchasi va uning turlari

Qimmatli qog‘oz – o‘zi bilan bog‘liq mulkiy huquqlarni aks ettiradigan hujjatdir, u daromad manbai bo‘lib xizmat qiladi, bozorda muomalada yuritilishi va oldi-sotdi vositasi bo‘lishi mumkin. Jahon amaliyotida qimmatli qog‘ozlarning har xil turlari ishlatilmoqda.

Qimmatli qog‘ozlar bozori kredit munosabatlari bilan birgalikda, o‘z qiymatiga ega bo‘lgan, sotish, sotib olish va to‘lovini amalga oshirish mumkin bo‘lgan maxsus hujjatlar (qimmatli qog‘ozlar)ga egalik qilish bilan ham bevosita bog‘liq. Qimmatli qog‘ozlar o‘zida mulkchilik huquqini mujassamlashtirgan bozorda erkin aylanadigan, sotib olish-sotish va boshqa bitimlarning ob’ekti bo‘ladigan, doimiy va bir martalik daromad olish manbai bo‘lib xizmat qiladigan, pul kapitalining bir ko‘rinishidagi hujjatdir. Qimmatli qog‘ozlar turli sub’ektlar tomonidan chiqarilishi mumkin. Umumiy holda bu emitentlar 5 guruhga bo‘linadi:

1. hukumat;

«Bank ishi» fani. «Bank ishi» kafedrasi. TMI-2015. Tel: +(998)71 234-43-42, email: kbni@tfi.uz

2. davlat korxonalari;
3. xususiy sektor;
4. Markaziy bank;
5. chet el sub'ektlari.

Hamma qimmatli qog'ozlarni davlat, xususiy yoki xalqaro qimmatli qog'ozlarga ajratish mumkin. Xususiy sektor tomonidan chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlar tarkibiga turli ishlab chiqarish korxonalari, tijorat banklari, investitsion banklar, investitsion fondlar va boshqalarning qimmatli qog'ozlari alohida o'rin tutadi. Xalqaro qimmatli qog'ozlar ularning hisoblanadigan valyuta va emitentlari bo'yicha bo'linadi.

Qimmatli qog'ozlar muomalada bo'lish xududiga ko'ra regional (mahalliy), milliy va xalqaro qimmatli qog'ozlarga bo'linadi.

o'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng 1993 yil 2 sentyabrida Oliy Kengash tomonidan «qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil qilish bo'yicha birinchi va asosiy hujjat bo'ldi. Keyinchalik bu qonunga 5 marotaba qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi (1994 yil 23 sentyabrida, 1995 yil 22 dekabrda, 1999 yil 26 aprelida, 30 avgustida, 27 dekabrda).

Bu qonunga asosan, o'zbekiston Respublikasi xududida quyidagi turdagi qimmatli qog'ozlar chiqarilishi va muomalada bo'lishi mumkin:

1. Aksiyalar;
2. Obligatsiyalar;
3. Xazina majburiyatlari;
4. Depozit sertifikatlari;
5. Veksellar;
6. Qimmatli qog'ozlar hosilalari, ya'ni opsiya va fyucherslar kiradi. (1-sxemaga qarang).

SHu bilan birgalikda, o'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 96 moddasiga binoan qimmatli qog'ozlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1. CHek.**
- 2. Depozit va jamg'arma sertifikatlari.**
- 3. Bankning taqdim qiluvchiga pul beriladigan jamg'arma daftarchasi.**
- 4. Konosament.**
- 5. Obligatsiyalar.**
- 6. Veksellar.**

Qimmatli qog'ozlarning bu turlariga qisqacha ta'rif beramiz:

AKSIYA – bu qimmatli qog'oz bo'lib:

- xarakat muddati cheklanmagan;
- huquqiy yoki jismoniy shaxs tomonidan Aksionerlik jamiyatiga muayyan hissa qo'shgan ulushini va mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini guvohlovchi;
- aksiya bo'yicha dividend ko'rinishida foyda olish huquqini beruvchi aksiyadorning shu jamiyat boshqarish ishiga qatnasha olishini tasdiqlovchi yuridik hujjatdir.

OBLIGATSIYA. «Oblig» – lotin tilida «qarz olish» mazmunini bildiradi. Emitentga obligatsiya egasi tomonidan ma'lum bir pul mablag'ini kiritganligi va unda ko'rsatilgan muddatda nominal qiymatini hamda qo'shimcha foiz to'lab berish majburiyatini guvohlovchi qimmatli qog'ozdir. Obligatsiya uning egasiga emitentning ishini boshqarishda qatnashish huquqini bermaydi.

XAZINA MAJBURIYATLARI – uning egasi tomonidan ma'lum bir pul mablag'ini byudjetga kiritganligi va uning butun aylanish davrida aniq chegaralangan foizni to'lab berish majburiyatini guvohlovchi qimmatli qog'ozdir.

DEPOZIT SERTIFIKATLARI jamg'armachining bankka qo'ygan pul mablag'ini ifodalovchi va muomala muddati to'gaganidan keyin qo'ygan pul mablag'ini hamda foyda sifatida ustama foizini huquq va imkoniyatini beruvchi qimmatli qog'ozdir. Depozit sertifikati bank tomonidan beriladi.

VEKSEL - qarz majburiyati bo‘lib, veksel beruvchining ushbu vekselni ko‘rsatilgan muddatda taqdim etganda, veksel ushlovchiga uning nominal qiymatini to‘lab berish guvohini beruvchi qimmatli qog‘oz va to‘lov vositasidir.

QIMMATLI QO‘SOZLAR HOSILALARI – bular shunday qimmatli qog‘ozlarki, ularning foydasi yoki zarari bir nechta bozor ko‘rsatkichlari bilan, ya’ni bozor indekslari bilan bog‘liqdir. Qimmatli qog‘ozlar xosilalari – «opsion» yoki «fyucherslar» ko‘rinishida bo‘ladi.

KONOSAMENT – yuk tashuvchi tomonidan yuk egasiga, yukni dengiz orqali olib o‘tishga qabul qilinganligini guvohlovchi va yuk qabul qiluvchiga yukni etib borish portida taqdim qilish majburiyatini tasdiqlab beruvchi hujjatdir.

Hozirgi davrga kelib qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilmalar tobora ko‘payib bormoqda. YA’ni va yosh davlatlarda aksionerlashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, korxona va tashkilotlarni akutsionerlik jamiyatlarga aylanishi va ular tomonidan har xil qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarishlari, shu bilan birgalikda fond bozorlarini rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda. Agar 1985 yilga kelib butun dunyoda muomalada aylanib turgan barcha aksiya va obligatsiyalarning bozor narxi **9 trln.** AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, ayrim baholarga ko‘ra, hozirgi kunda ushbu ko‘rsatkich **50 trln.** AQSH dollarga yaqin summani tashkil qilgan ekan.

Qimmatli qog‘ozlar jahonning katta bir boyligi hisoblanib, boshqa boyliklarga nisbatan ham umumiy qiymati bo‘yicha, ham hajmi bo‘yicha oldingi o‘rinlarga chiqmoqda.

Qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarib, pullarni bir necha o‘n yillar yoki umuman muddatsiz foydalanishga olish mumkin. Bu korxona va tashkilotlar uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etib, ularga ishlab chiqarish, hamda moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun bank ssudalaridan foydalanmasdan turib pul resurslarini jalb qilish imkoniyatini beradi.

CHunki, barqaror bo‘lmagan iqtisodiyot va pulning qadrsizlanishi sharoitida bank qisqa muddatli kreditlarni berishni afzal ko‘radi. Qimmatli qog‘ozlar aholi uchun ham juda katta ahamiyatga ega, ular pullarni ko‘lda ushlab turmasdan,

qimmatli qog'oz olib, ularga egalik qilish yo'li bilan o'z jamg'armalari hisobiga daromad oladilar va korxonalarni boshqarishda amalda ishtirok etadilar.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlari va aholi vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini omonatga qo'yishdan ko'ra qimmatli qog'ozlarga sarflashlari ma'lum afzalliklarga ega, masalan, sarflangan mablag'lar muddatidan ilgari foydalanish zarurati tug'ilganda uni sotishi hamda undan qulay va hech qanday sarf-xarajatsiz to'lov vositasi yoki kredit olish uchun garov sifatida foydalanishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozori va uning ishtirokchilari.

Fond birjasi - qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdisi o'tkaziladigan joy.

Fond birjasidagi qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni shartli ravishda 3 turga bo'lish mumkin:

- brokerlik operatsiyalari;
- dillerlik operatsiyalari;
- market-meykerlik.

Brokerlik operatsiyalari – mijozning topshirig'iga asosan va uning pul mablag'lari evaziga amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Dillerlik operatsiyalari – tashkilot o'z nomidan va o'z pul mablag'i evaziga amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Market-meykerlik fond bozorida emitentlarga ko'rsatiladigan xizmat turi. Bu xizmatlarga quyidagilar kiradi:

- Sotib olish va sotish kotirovkalarini bir maromda ushlab turish;
- Aksiyalar likvidligini ushlab turish;
- Moliyaviy maslahatlar;
- Aksiyalarni emissiyaga va bozorga taklif qilishda boshqarish;
- Maqsadli sotib olish yo'li bilan aksiyalarga sun'iy talabni tashkil etish;
- Emitentning aksiyalarini sotib oladigan jiddiy investorlarini jalb qilish.

Fond birjasining asosiy vazifalari:

- qimmatli qog'ozlarning bir maromda muomalada bo'lishining zarur sharoitini ta'minlash;
- qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talab va takliflar o'rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarni, ya'ni bozor bahosini belgilash;
- qimmatli qog'ozlar va qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarini kasb mahoratini yuqori darajada saqlab borish;
- muntazam ravishda narx aniqlanishiga, indeksatsiya o'zgarishiga, savdo-sotiq vaqti, qimmatli qog'ozlar, shartnomalarning miqdoriga va boshqa ko'rsatkichlarga doir axborotlarni, birjaning holatini va uning rivojlanishiga doir taxminiy shartlarni e'lon qilish.

Hozirgi vaqtda, rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 150 dan ortiq fond birjasi bo'lib, ulardan o'n ikkitasi eng yirik birja sifatida xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorining asosini tashkil etadi.³ Bularga Nyu-York, London, Tokio, Frankfurt, Tayvan, Seul, Syurix, Parij, CHikago, Kuala-Lumpur, Gonkong, Istambul fond birjalaridir.

Xalqaro fond birjalarining infrato'zilasida yuzaga kelgan muhim o'zgarishlardan biri birjalar o'rtasida mijoz uchun raqobat kurashining kuchayganligi hisoblanadi. Uning isboti sifatida bozorning professional ishtirokchilari sonining tobora oshib borayotganligini ko'rsatish mumkin.

XX asrning 80-yillarida Angliya SEAQ International yuzaga keladi.

Bu nafaqat ingliz korxonalarining aksiyalarini, balki ular bilan birga, boshqa evropalik emitentlar hamda amerikalik va yaponiyalik emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdi qilish maqsadida tashkil etilgan dilerlik bozori hisoblanadi. Undan keiyn Bryusselda yuqori texnologiyali kompaniyalarning aksiyalarini oldi-sotdi qilish amalga oiriladigan Evropa savdo tizimi-ESDAQ yuzaga keladi.

³ И.Г. Доронин. Мировые фондовые рынки: закономерности тазвития и соврменное состояние //Дик, №8-2002.-с49.

XX asrning 90-yillarida muqobil savdo tizimlari- INSTINET va TRADEPOINT yuzaga keladi. Bularning birinchisi litsenziyalı broker-diler bo'lsa, ikkinchisi Angliyadagi litsenziyalı investitsiya birjasi hisoblanadi.

90-yillarning ikkinchi yarimida elektron kommunikatsiya tarmog'i- Elektronı communication networks yuzaga keladi. Ushbu tizim AQSHning an'anaviy birja xizmatlaridan qoniqmasdan, investitsiya kompaniyalarining tashshabusi va ishtiroki bilan yuzaga keladi.

Xalqaro qimmatlı qog'ozlar bozorining yuqorida qayd etilgan professional ishtirokchilari va ularga xizmat ko'rsatuvchi kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi, provard natijada, ular o'rtasidagi raqobat muhitini keskinlashuviga olib keladi. Buning natijasida ko'satilayotgan xizmatlar uchun olinadigan to'lovlarning kamayishi yuz beradi. Ular mijozlarga an'anaviy birjalar yopilgandan keyin ham savdo qilish imkoniyatini yaratadi, investitsiyalar uchun turli xildagi instrumentlar foydalanishni taklif qiladi va kotirovkalarni sir tutilishi kafolatlaydi.

2000 yilning boshiga kelib sharbiy Evropadagi barcha yirik fond birjalari to'liq elektron birjalarga aylanadi. Bu esa, o'z navbatida, savdo ishtirokchilari sonini keskin oshirish, savdo chiqimlarini kamaytirish imkonini beradi.

Bir qator mamlaktlarda fond birjalari o'zlarining raqobat pozitsiyalarini mustahkamlamoqda. Bu holat moliyaviy bozorlarning xizmatlaridan foydalanuvchilar uchun bir necha xizmat turlarini bir joyda markazlashtirayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Parij, Amsterdam, Frankfurt, Xelsinki, Bryussel birjalari birlamchi va ikkilamchi bozorlarni, hosila institumentlari bozorlarini, kliring va hisob-kitoblarni birlashtiradi.

Xalqaro qimmatlı qog'ozlar bozorining infrato'zilasidagi ikkinchi jiddiy o'zgarishlar birja ittifoqlarini to'zish jarayonlarining boshlanganligi va tobora chuqurlashib borayotganligi hisoblanadi.

Birja ittifoqlarini to'zish yo'lidagi dastlabki qadam 1997 yilda Benilyuks birjasining to'zish orqali qo'yildi. Ushbu birjani to'zish to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi bir vaqtning o'zida uchta birjaga kross-a'zolik

huquqini ta'minladi. Hamkorlik hosila instrumentlari bozorlariga (forvard, fyuchers, opsion bozorlari), kliring va hisob-kitoblar jarayoniga ham tarqaldi.

Ayni vaqtda, AQSHning birjadan tashqari savdo tizimi **NASDAQ** global ahamiyatiga ega bo'lgan xalqaro qimmatli qog'ozlar bozoriga aylanib bormoqda. U amerika bozorida muvaffaqiyatli tarzda faoliyat yuritish bilan birga, jahonning 10 ta yirik fond birjasidan biri sifatida e'tirof etiloqda.

NASDAQ aksiyalar savdosining hajmi va o'sishi sur'ati bo'yicha Nyu-York fond birjasini ortda qoldirdi.

Listing va delisting.

Listing – bu qimmatli qog'ozlarni birjaga qo'yish, ya'ni joylashtirishdir. Qimmatli qog'ozlar listingga qo'yilgan bo'lsa, birja ro'yxatidan o'tgan bo'lsa, ularni savdoga qo'yish mumkin.

Delisting – bu qimmatbaho qog'ozlarni birjaning yoki kompaniyaning o'z qaroriga binoan ro'yxatdan chiqarilishi, ya'ni listing imtiyozlaridan to'la maxrum bo'lishidir.

Birjada qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi operatsiyalarini faqat vositachilar bajaradi. Ularga jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, investitsiya kompaniyalari, brokerlik firmalarning topshirig'i bilan brokerlar bitimlarni amalga oshirib qimmatli qog'ozlarni sotib oladi yoki o'zinig hisobidan keyinchalik qayta sotish uchun xarid qiladi.

Fond birjasiga qimmatli qog'ozlar olib kelinmaydi. Uning borligini broker qo'lidagi xujjatlar, sertifikatlar bilan tasdiqlashi zarur.

Birjada qimmatli qog'ozlar to'plarda savdoga qo'yiladi. Birjada faqat listingda qayd qilingan qimmatli qog'ozlar sotiladi. Baho fond birjasida talab va taklifdan kelib chiqqan holda ochiqdan-ochiq o'rnatilib, birja tablosida e'lon qilib turiladi. Birjada uch tomon qatnashadi. Bir tomonda birja, emitentlar va tadbirkorlar, ikkinchi tomonda vositachilik haqi evaziga mijozlarning topshirig'ini bajaruvchi brokerlar va uchinchi tomon qimmatli qog'ozlarga muxtoj shaxslar. Har uchchala tomonning manfaatini birlashtiruvchi joy – bu fond birjasidir.

Birja kotirovkasi – bu birjada sotiladigan qimmatli qog‘ozlarning e’lon qilingan narxi.

Birja indeksleri – bu qimmatli qog‘ozlarning birjadagi harakatini ifodalovchi ko‘rsatkich.

Birjada ko‘llaniladigan eng mashxur indekslardan biri bu – Dou-Djons indeksidir. U AQSHdagi 30 yirik sanoat korporatsiyalari aksiyasining birjadagi kursi bilan belgilanadi. Dou-Djons indeksini hisoblash uchun kundalik bozor narxini o‘sha davrdagi aksiyalar guruhidagi sonlarga ko‘paytirib umumiy aksiyalar soniga bo‘lish kerak:

$$\sum A_i P_i$$

Dou-Djons indeksi -----

1. A

Bunda, A_i – kompaniyalarda chiqarilgan aksiyalar soni;

P_i – tegishli kompaniyalar aksiyalarining bozor narxi;

A - umumiy aksiyalar soni.

Professional fond bozorida faoliyat ko‘rsatish jarayonida turli «o‘yinlarni» qo‘llaydilar.

«Ayiqlar» o‘yini – daromad olish maqsadida qimmatli qog‘ozning bozor narxini pasaytirishga qaratilgan jarayon. Professional ma’lum qimmatli qog‘ozning bozor narxini pasayishini oldindan sezgan holda uni ma’lum muddatga qarzga olib turadi. Qarzga olingan qimmatli qog‘ozning narxi pasaymasdan payt poylab darrov sotib yuboriladi.

Qarz muddati etib kelgan qimmatli qog‘ozning narxi pasayib ketadi va shu pasaygan narx bo‘yicha «ayiq» qarzga olgan qimmatli qog‘oz uchun o‘z qarzini to‘laydi. Bunda, «ayiq»ning daromad qarzga olingan qimmatli qog‘ozni sotish narxi va qarzni to‘lash vaqtida uning bahosi tafovuti ko‘rinishida ifodalanadi.

«Buqa» - qimmatli qog‘ozlarni naqd pulga sotib oladi va ularni qimmatroq narxda sotish maqsadida bozor narxining ko‘tarilishini poylab turadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida bank faoliyatining turlari

Qimmatli qog'ozlar bozorida bank faoliyatining umumiy asoslari Rossiya Federatsiyasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunida aks ettirilgan. Rossiya banklarining bank operatsiyalarini amalga oshirish to'g'risidagi litsenziyasi banklarga qimmatli qog'ozlarni chiqarish, sotish, sotib olish, hisobini yuritish, saqlash va boshqa operatsiyalarni quyidagi turlarini amalga oshirish imkoniyatini beradi:

- to'lov hujjati (veksel, chek) funksiyasini bajarish;
- pul mablag'larini jamg'arma va bank schyotlariga jalb qilish (depozit va jamg'arma sertifikatlarini)ni muljallamoq.

O'zbekiston banklari Markaziy bankdan olingan bosh litsenziyaga muvofiq, fond bozorida operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi.

Bank maxsus litsenziya asosida federal qonunlarga muvofiq ravishda qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yuritish huquqiga ega. Bank qimmatli qog'ozlar bozorida o'z faoliyatini tashkil qilishi uchun litsenziyani qo'lga kiritish uchun o'z shtatida har bir operatsiya turi bo'yicha (kamida) bitta FKSB tomonidan berilgan kvalifikatsiya attestatiga ega bo'lgan mutaxassis bo'lishi shart.

Qimmatli qog'ozlar bozoridagi bank faoliyati rangbarangdir.

Brokerlik faoliyati - bu qimmatli qog'ozlar bilan ishonchli shaxs yoki komissiya a'zosi sifatida bitim to'zish, topshiriq shartnomasi yoki komissiya asosida amalga oshadi.

Dillerlik faoliyati – bu qimmatli qog'ozlarni o'zining hisobidan sotish – sotib olish bitimini amalga oshirish.

Depozitar faoliyati – bu qimmatli qog'ozlar sertifikatlarini saqlash bo'yicha xizmat ko'rsatish yoki qimmatli qog'oz huquqini o'tkazish va hisobini yuritish bo'yicha xizmat ko'rsatish. Depozitariya xizmatidan foydalanuvchi tomon deponent deyiladi. Deponent nomiga qimmatli qog'ozlar xarakatining hisobini

yurituvchi depo schyoti ochiladi. Qimmatli qog'ozlar bilan banklararo operatsiyalarni amalga oshirish uchun banklar bir-birlarida depo («loro» va «nostro») schyotlari ochiladi. Depozitar va mijoz o'rtasida ochiq yoki yopiq saqlash yo'llari aks ettirilgan shartnoma to'zilgan bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarni ochiq saqlash usuli – bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilish huquqini shunday registratsiya qilish yo'liki, qaysiki, deponent depozitariyga alohida nishonalarsiz (nomer, razryad, seriya) faqatgina ma'lum miqdordagi qimmatli qog'ozga topshiriq berishi mumkin. Saqlashning yopiq usulida depozitariy depo schyotidagi mavjud aniq qimmatli qog'oz bo'yicha deponentning barcha topshiriqlarini qabul qilish va bajarishga majbur.

Ishonchli boshqaruv bo'yicha faoliyat (trast) bankning o'z nomidan amalga oshiriladi va egaligi jihatidan boshqa shaxsga tegishli bo'ladi, ishonchli boshqaruvni quyidagilar bilan amalga oshirish mumkin:

- qimmatli qog'ozlar bilan;
- pul mablag'lari bilan (qimmatli qog'ozga investitsiya qilish uchun mo'ljallangan bo'lsa);
- qimmatli qog'ozlarni boshqarish jarayonida qo'lga kiritilgan pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar bilan.

Trast (agentlik) xizmatlari tijorat banklari bilan mijoz o'rtasidagi shartnoma asosida ko'rsatiladi. qimmatli qog'ozni saqlash uchun depo schyoti ochiladi. Ko'rsatilgan xizmat uchun bank komission xaq undiradi. Bank, shuningdek qimmatli qog'ozlar bilan bajarilgan operatsiyalar uchun to'lovni o'rnatadi. qimmatli qog'ozlar portfelining shakllanishi va uni boshqarish uchun ularga doimiy axborotlar oqimi va ish analizi kerak bo'ladi, hamma investor ham bu muammoni o'zi hal qila olmaydi. Mahsus trast bo'limlariga ega bo'lgan banklar xavfsizlik, daromadlilik va likvidlilik talablariga javob beradigan qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishga yordam beradilar.

Banklar qimmatli qog'ozlarni birlamchi joylashtirish bo'yicha ham xizmatlar ko'rsatishi mumkin: aksiyalarni moliya bozoriga joylashtirish (anderrayting), aksionerlar reestrlarini yuritish, yillik foydani to'lash.

Kliring faoliyati – bu faoliyat o‘zaro majburiyatlarni aniqlash bo‘yicha (yig‘im, sverka, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha bitim axboroti korrektirovkasi va bular bo‘yicha buxgalteriya hujjatlarini tayyorlash) va qimmatli qog‘ozlar taklifi bo‘yicha hisobotdir.

Aksionerlik tijorat banki o‘zining shaxsiy qimmatli qog‘ozlarini ustav kapitalini oshirish yoki mablag‘larni o‘zlariga jalb qilish maqsadida chiqarishlari mumkin.

Shu yo‘l bilan bank qimmatli qog‘ozlar bozoriga moliyaviy vositachi (broker), moliyaviy investor (diler) va qimmatli qog‘ozlar emitenti sifatida qatnashishi mumkin.

REPO operatsiyalari.

REPO operatsiyasi – bu qimmatli qog‘ozlarni keyinchalik yuqoriroq bahoda sotish (sotib olish) majburiyati bilan sotib olish (sotish). REPO shartnomasining birinchi qismida sotuvchi kreditlanadi va ikkinchi qismida pul mablag‘lari egasiga ortig‘i bilan qaytariladi. Qimmatli qog‘ozlar egaligini huquqiy berish ma’lum vaqtga kreditni ta’minlangan qiladi va riskni kamaytiradi.

Haqiqiy REPO va sotuv turidagi REPO qayta sotib olish bilan farqlanadi. Haqiqiy REPO faqatgina tomonlar o‘rtasida REPO bitimini to‘zish to‘g‘risidagi bosh shartnoma bo‘lgandagina to‘ziladi. Bunday shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlarini hamda ular o‘rtasidagi hisob-kitob qoidalari aniq ko‘rsatiladi. Haqiqiy REPOning foizli daromadlari sotish va qaytib sotib olish turidagi REPOnikidan yaqqol farq qiladi.

Banklar mustaqil ravishda investitsiya va savdo portfelini shakllantirish tartibini o‘rnatadi shu bilan birga qimmatli qog‘ozni bir portfeldan ikkinchisiga o‘tkazishni ham.

Odatda qimmatli qog'ozlar kutilgan daromadni keltirmasa va keltirish kutilmasa, shuningdek u o'z oldiga qo'yilgan vazifani bajarib bo'lsa yoki moliyaviy resurslarni ishlatilishini yaxshiroq yo'llari paydo bo'lsa ular sotiladi.

Bankning qimmatli qog'ozlar portfelining strukturasi.

Qimmatli qog'ozlar portfeli		
Investitsiya portfeli	Savdo portfeli	
Foiz va dividend shaklida foyda olish maqsadida olingan qimmatli qog'ozlar	qaytarib sotish bo'yicha qimmatli qog'ozlar	REPO operatsiyalari bo'yicha olingan qimmatli qog'ozlar

Moliya bozorida ishtirok etuvchi KTi bank boshqaruvining umumiy shartlariga bo'ysungan holda axborotlarni sir saqlaydi.

Qimmatli qog'ozlarning bozor koterovkasiga ega bo'lgan turiga ularning qadrsizlanishi bo'yicha rezervlarni hosil qilish maqsadida chiqarilgan emission qimmatli qog'ozlar kiradi, quyidagi shartlarga javob beradigan:

a) qimmatli qog'ozlar bozorida savdo tashkillashtiruvchi orqali yoki fond birjasida amal qilish uchun ruxsat, bunda davlat komissiyasi qimmatli qog'ozlar bo'yicha tegishli litsenziyani bergan bo'lishi kerak, xorijiy fond birjasi yoki savdo tashkiloti uchun – milliy vakolatli organ;

b) yuqorida ko'rsatilgan fond birjasi yoki savdo tashkiloti hisobot oyi oboroti miqdori 20 ming evrodan kam bo'lmasligi kerak;

v) bozor narxi to'g'risida axborotning ochiqligi, ya'ni unga kirish uchun qonunchilik asosida foydalanuvchidan maxsus huquq (imtiyoz) talab qilinmaydi.

Bozor narxi deganda bitim bo'yicha bir fond birjasi yoki savdo tashkiloti kunidagi bir qimmatli qog'ozning o'rtacha o'lchangan narxi tushuniladi. Agar qimmatli qog'oz to'zish sanasi yoki bitimning rezerv korrektirovkasi ikki yoki undan ortiq fond birjalarida amalga oshirilgan bo'lsa, unda bozor narxi hisobot oyida eng katta oborotni fond birjasidan olinadi.

K.T. hisobot oyining natijalari bo'yicha oldin to'zilgan rezervlarning korektirovkasini qimmatli qog'ozlarni miqdori va bozor narxini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Agar qimmatli qog'ozlarga bank mablag'i qo'yilgan bo'lsa, hisobot oyi natijalari bo'yicha ularni qadrsizlanishiga rezervlar to'zish uchun mo'ljallangan bozor koterovkasini qimmatli qog'ozlarga tegishli bo'lsa, hisobot oyini oxirgi ish kunidagi bozor narxi qimmatli qog'ozlarning ikki marta kamaygan amaldagi narx bo'yicha olinadi.

Bozor koterovkali qimmatli qog'ozlarga aksiyalarni olib borishda ularni qadrsizlanishiga rezerv hisoblash uchun ushbu emitent bir qancha chiqargan va turli davlat nomerli aksiyalar bo'yicha to'zilgan bitimlar hisobot oyi bozor oboroti qimmatli qog'ozlarga ruxsat beriladi. Rezerv har bir olingan qimmatli qog'ozlar paketini, ularning balans qiymatidan kelib chiqqan holda to'zilishi kerak bir turdagi qimmatli qog'ozlarning o'rtacha qiymatidan kelib chiqqan holda rezerv shakllantirishga ruxsat berilmaydi .

Agar hisobot oyi natijalari bo'yicha bank rezidentlari va boshqa yuridik shaxs rezidentlar chiqargan qarz majburiyatlari va aksiyalar qayta sotishga va investitsiyaga olingan bo'lsa unda ular bozor korektirovkasiga ega kategoriyadan koterovkalanmaydigan kategoriya o'tkaziladi

Qimmatli qog'ozlar qadrsizlanishi bo'yicha rezervlarni shakllantirish va boshqarish tartibi.

Qog'ozning bozor narxi o'zgarish xarakteri	Qadrsizlanish bo'yicha rezerv tashkil qilish tartibi
Rezervlarni birlamchi tashkil qilinishi	
Qimmatli qog'ozlarning balans tannarxidan past bo'lgan bozor narxi	Pasaytirish narxi miqdorida rezerv tashkil qilinadi (balans tannarxi va qayta baholash narxi o'rtasidagi farq)
Rezervlarni boshqarish	
A) rezerv tashkil qilishda qo'llaniladigan bozor narxi bazaviy narxdan oshib ketdi	Mablag'larning foyda schyotiga butunlay o'tkazilguniga qadar rezerv kamaytirib borladi
B) rezerv tashkil qilish uchun qo'llanilgan bozor narxi bazaviy narxdan tushib ketdi.	Narx tushganda rezervga qo'shimcha kiritiladi.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha yuzaga keluvchi turli xil risklarni qoplash uchun tashkil qilinadigan rezervlarda avvalombor qimmatli qog'ozlarning tannarxidan past bo'lmagan bozornarxi bo'lishini e'tiborga olish kerak.

Bu holda qimmatli qog'ozlarni balans tannarxi va ularni qayta baholash bo'yicha narx o'rtasidagi farqdan kam bo'lmagan rezerv tashkil qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tashkil qilingan rezervlarni samarali boshqarishda turli usullarda foydalanish mumkin.

Bu usullarni barchasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan olib boriladigan operatsiyalarni unga yuqori daromad olib kelishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Anderrayting operatsiyalari.

Investitsiya kompaniyasi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri **anderrayting** — kimmatli kogozlarni xarid qilish yoki ularni sarmoyadorlar o'rtasida joylashtirish kafolatini berish—xisoblanadi. Anderraytingga kuyidagilar kiradi: kimmatli kogozlarni chikarish shartlarini belgilash, ularning yangi nashrlarini tayyorlash, kimmatli kogozlarni keyin sarmoyadorlarga kayta sotish uchun emitentlardan sotib olish, ularni joylashtirish kafolatini berishni tashkil etish.

Anderrayter — bu kimmatli kogozlarga xizmat ko'rsatuvchi va ularning birlamchi joylashtirilishiga kafolat beruvchi, kimmatli kogozlarni keyinchalik xususiy sarmoyadorlarga kayta sotish uchun emitentdan sotib oluvchi investitsiya muassasasidir.

Investitsiya kompaniyalari tomonidan anderraytingning amalga oshirilishini kuyidagi asosiy bosqichlarga bo'lish mumkin: kimmatli kogozlarni muomalaga chikarishga tayyorlash, shu jumladan, emitent va bunga ko'maklashuvchi boshka tashkilotlar bilan xamkorlikda nashrlarni rejalashtirish, muomalaga chikariladigan kimmatli kogozlarni baxolash, emitent xamda nazarda tutilayotgan sarmoyadorlar o'rtasida alokalarni o'rnatish

va x.k.; kimmatli kogozlarni taksimlash, shu jumladan, emissiyaning bir kismini yoki butun summasini sotib olish, kimmatli kogozlarni sarmoyadorlarga sotish, mazkur kimmatli kogozni joylashtirish vaktida uning bozor narxini ko‘llab — kuvvatlash; sotilgandan keyingi davrda kimmatli kogozi kursini ma’lum vakt mobaynida ko‘llab — kuvvatlash (odatda bir yil); shuningdek, kimmatli kogozi kurs qiymati o‘zgarishini taxlil va nazorat qilish, unga ta’sir etuvchi omil larni aniqlash.

TRAST OPERATSIYALARI

Trast-ingliz tilida “ishonch” degan ma’noni bildiradi. Bank jismoniy va yuridik shaxslardan pul mablag‘larini ma’lum bir muddatga jalb qilib, shu muddat ichida ishonch olingan mablag‘ni yuqori foyda olib keladigan operatsiyalarga joylashtiradi. Trast operatsiyalari bank ishida va banklarning sanoat va iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan aloqalarida katta rol o‘ynaydi.

Trast operatsiyalarini banklarda paydo bo‘lish tarixi yana bir bor tijorat banklariga bo‘lgan ishonchni katta ekanligidan dalolat beradi. Sababi shundaki, juda badavlat insonlar tomonidan hali balog‘at yoshiga etmagan farzandlari nomiga qoldirilayotgan boyliklarni, ularning vafotidan so‘ng boshqarish muammosini yuzaga kelishi banklarnig trast operatsiyalarini paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Banklar ushbu mablag‘lari fazandlar balog‘at yoshiga etgunga qadar, ishonchli tarzda boshqaradilar.

Trast operatsiyalari asta-syokin banklarning korporativ mijozlari bilan bo‘ladigan munosabatariga ko‘chdi.

Mijoznig qimmatli qog‘ozlari portfelini yoki ushbu portfelning bir qismini hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan pul mablag‘larini boshqarish tijorat banklarining trast operatsiyalari tashkil qiladi.

Tijorat banklari trast operatsiyalarini amalga oshirish tufayli birinchidan, qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish, birjadagi operatsiyalarda foydalanishi mumkin bo‘lgan o‘zoq muddatli moliyaviy resurslarni bahramand bo‘la oladi. Ikkinchidan, trast operatsiyalariga bog‘liq bitimlarni banklar o‘z mijozlarining shartnomalari asosida amalga oshiradi, shuning uchun bitimlar qonunlar bilan cheklanmaydi.

Uchinchidan, bank qimmatli qog'ozlarni boshqarishdan komission mablag'lar olib, o'zi boshqarayotgan qimmatli qog'ozlardan tushayotgan foydadan o'z ulushini oladi. To'rtinchidan, bank o'z sarmoyalari bilan emas, balki o'zgalar sarmoyalari bilan operatsiyalar o'tkazadi va faqat trust shartnomasi doirasidagina javobgar bo'ladi, asosiy tavakkalchilik esa qimmatli qog'ozlar egasining zimmasida bo'ladi. Tijorat banklari xilma-xil trust operatsiyalarini bajarishi mumkin: mijozlarning pul mablag'larini boshqarish, mijozlarning fond portfellarini shakllantirish va qimmatli qog'ozlar paketlarini boshqarish; meroslar va xususiy trustlarni tasarruf etish, agentlik vazifalarini bajarish; obligatsiyalar chiqarish va to'lov muddati kelganda obligatsiyalarni to'lash fondlarini boshqarish; dividendlarni to'lashga qimmatli qog'ozlarni saqlashga, ularning xarakterini hisobga olishga, ularni boshqa qimmatli qog'ozlarga almashtirib olishga oid, agentlik vazifalarini amalga oshirish; qimmatli qog'ozlarga va qimmatli qog'ozlar operatsiyalariga oid tavakkalchilikni sug'urtalashda vositachilik qilish, qimmatli qog'ozlar operatsiyasi yuzasidan buxgalterlik hisobi yuritish va hisobotlar to'zish, qimmatli qog'ozlar emitenti uchun transfert bo'yicha agent (qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga oluvchi) vazifasini bajarish va boshqalardir.

Qimmatli qog'ozlar bilan balans va nobalans operatsiyalari.

Tijorat banklari asosan qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni Respublika Fond bozorida yuqorida aytib o'tilgan qonunlardan tashqari «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi hamda o'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari asosida olib boradilar.

Qimmatli qog'ozlar bilan tijorat banklarining **aktiv** operatsiyalari deganda bank o'z yoki jalb qilingan boshqa mablag'larini har xil qimmatli qog'ozlarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan quyilmalarni, mablag'larni bankdan chiqib ketishi va uning evaziga bankka bu mablag'lar qimmatli qog'ozlar sifatida qaytib kelishiga tushuniladi.

Banklarni aktiv operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

9. Aksiyalarga va korporativ qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish.
10. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMolar) bilan operatsiyalarni bajarish.
11. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun kredit berish va hokazolar.

Aksiyalarga va qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish ya'ni, har xil aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish operatsiyalari hisoblanadi.

Ushbu operatsiyadan maqsad:

- birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini sotib olib, ulardan keladigan dividend orqali bankka daromad keltirish;
- ikkinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini arzonroq narx bo'yicha sotib olib, qimmatroq narxda sotish (spekulyativ operatsiyalar);
- uchinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari nazorat paketini sotib olib, ushbu aksiyadorlik jamiyati faoliyatini boshqarishda qatnashib, uni moliyaviy ahvolini yanada tiklab maksimal jihatda foyda olish.

Tijorat banklarni qimmatli qog'ozlar bilan **passiv** operatsiyalari deganda, shunday operatsiyalar tushuniladiki, unda bank qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va ularni sotish bilan bog'liq operatsiyalar, buning evaziga bankga pul mablag'lari jalb qilish tushuniladi.

Banklarning passiv operatsiyalariga quyidagilar kiradi;

- **Aksiyalarni emissiya qilish.**
- **Depozit va jamg'arma sertifikatlarini chiqarish.**
- **Veksellarni joylashtirish.**
- **Obligatsiyalarni chiqarish.**
- **«Trast» operatsiyalarini bajarish va hokazolar.**

Depozit va jamg'arma sertifikatlarini sotishdan tushgan arzon pul mablag'ini bankdagi boshqa har xil yo'nalishlarga joylashtiriladi va naqd pul tushumi ko'payadi, buning hisobiga emissiya miqdori kamayadi. Bank o'z operatsiyalarini aylangan muddatga o'rnatilgan qo'shimcha foiz to'lash yo'li bilan va obligatsiyalarini diskont yo'li bilan, ya'ni nominal miqdoridan past miqdorda sotishi mumkin.

Fond birjasi va depozitariylar faoliyati bilan bank tizimining o‘zaro hamkorlik darajasi.

Dunyo mamlakatlarining fond bozorlariga moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta’siri va unda yuzaga kelgan tanqlik sabablari

Depozitar faoliyati – bu qimmatli qog‘ozlar sertifikatlarini saqlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatish yoki qimmatli qog‘oz huquqini o‘tkazish va hisobini yuritish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish. Depozitariya xizmatidan foydalanuvchi tomon deponent deyiladi. Deponent nomiga qimmatli qog‘ozlar xarakatining hisobini yurituvchi depo schyoti ochiladi. Qimmatli qog‘ozlar bilan banklararo operatsiyalarni amalga oshirish uchun banklar bir-birlarida depo («loro» va «nostro») schyotlari ochiladi. Depozitar va mijoz o‘rtasida ochiq yoki yopiq saqlash yo‘llari aks ettirilgan shartnoma to‘zilgan bo‘lishi mumkin. Qimmatli qog‘ozlarni ochiq saqlash usuli – bu qimmatli qog‘ozlarga egalik qilish huquqini shunday registratsiya qilish yo‘liki, qaysiki, deponent depozitariyga alohida nishonalarsiz (nomer, razryad, seriya) faqatgina ma’lum miqdordagi qimmatli qog‘ozga topshiriq berishi mumkin. Saqlashning yopiq usulida depozitariy depo schyotidagi mavjud aniq qimmatli qog‘oz bo‘yicha deponentning barcha topshiriqlarini qabul qilish va bajarishga majbur.

Xar xil turdagi investitsiya institutlari tomonidan kimmatli kogozlar bozoridagi faoliyatlarni birga olib borishning mumkin bulgan variantlari.

	Investitsiya vositachilari	Investitsiya maslaxatchilari	Investitsiya kompaniyalari	Investitsiya fondlari	Reestr saklovchilar	Depozitariylar	Xisob-kitob-kliring tashkilotlari	Boshkaruvchi kompaniyalar	Kimmatli kigozlarning nominal egalari
Investitsiya vositachilari		-	+	-	-	-	-	-	+
Investitsiya maslaxatchilari	-		-	-	-	-	-	-	-
Investitsiya kompaniyalari	+		-	-	-	-	-	-	-
Investitsiya fondlari	-	-	-		-	-	-	-	-
Reestr saklovchilar	-	-	-	-		+	-	-	-
Depozitariylar	-	-		-	+		-	-	+
Xisob-kitob-kliring tashkilotlari	-	-	-	-	-	-		-	+
Boshkaruvchi kompaniyalar	-	-	-	-	-	-	-		+
Kimmatli kigozlarning nominal egalari	+	-	+	-	-	+	+	+	

Izox:

" +" — kimmatli kigozlar bozoridagi professional faoliyatni birga olib borish mumkinligi " —" — kimmatli kigozlar bozoridagi professional faoliyatni birga olib borish mumkin emasligi.

Investitsiya institutlari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar katnashshshi mumkin. YUridik shaxs xisoblangan investitsiya muassasalarining faoliyati litsenziyalanishi lozim. Litsenziyalar 5 yil muddatga beriladi. Investitsiya institutlarining litsenziyalanishi ular faoliyatining davlat tomonidan nazorat kilinishini anglatadi. Jismoniy shaxslar kimmatli kigozlar bozorida investitsiya maslaxatchisi va investitsiya vositachisi sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin. Ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun jismoniy shaxslar maxalliy xokimiyat idoralarida tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olinishi xamda fond bozorini tartibga

soluvchi organ tomonidan beriladigan malaka shaxodatnomasiga va litsenziyaga ega bo'lishi lozim. Malaka shaxodatnomasi 3yil muddatga beriladi.

Iktisodiy munosabatlarning murakkab soxasi xisoblanadigan kimmatli kogozlar bozorini nafakat institutsional va funksional tomonlarini rivojlantirish, balki undagi ishtirokchilar faoliyatini tartiblash, muvofiklashtirish va nazorat kilishning samarali mexanizmini shakllantirish lozim.

1. Bugungi kunda kimmatli kogozlar bozorini samarali muvofiklashtirish jarayonlari kechayotgan Uzbekistondek mamlakat uchun jaxonda umumiy tarzda kabul kilingan andozalarga mos keladigan, jaxon tajribasi bilan chukur ishlab chikilgan, barcha afzalliklarni uziga singdirgan va shu bilan bir vaktida milliy mentalitetni, milliy rivojlanishning uziga xos xususiyatlarini inobatga olgan xolda uz-uzini muvofiklashtirish mexanizmini ishlab chikish zaruratdir. Bu mexanizmda, jaxon tajribasiga kura, asosiy rolni uz –uzini muvofiklashtiruvchi nodavlat-tijorat tashkilotlar uynaydi. Bu tashkilotlar oldida bir kator echimini kutayotgan muammolar mavjud.

Xozir vujudga kelgan sharoitda Kimmatli kogozlar bozori xamda moliya bozorining boshka vositalari muammolariga yuzaki yondashish xavfi mavjud. Vaxolanki, Garbda mazkur soxa buyicha tuplangan boy amaliy va tarixiy materialni umumlashtiruvchi taxlillovchi bir kator rakobatbardosh nuktai-nazarlar va nazariyalar yaratilgan. Uzbekiston uchun uziga xos yulni tugri tanlash shuning uchun xam dolzarbki, bu erda me'yoriy xukukiy ba'zi vositalar yordamida birlamchi kimmatli kogozlar bozori yaratildi xamda aksiyadorlik jamiyatlarining tuzilishi xususiylashtirishning amalga oshirilishi tufayli bu bozorda xaddan tashkari kup massa jamlandi. Investitsion vositachilar instituti shakllanmokda; unda xususiylashtirish investitsiya fondlari faol ishtirok etmokda. SHunday kilib, shart-sharoit yaratildi, endi gap kimmatli kogozlar bozorining ishlashida koldi, kimmatli kogozlar muomalasi rivojlanishi uchun ikkilamchi kimmatli kogozlar bozorini shakllantirish zarur. Amalda esa vazirliklar, idoralar va aksiyadorlik jamiyatlari kupchilik raxbarlarining korxonalarini uz nazoratlari ostidan chikargilari yukligidan bu jarayon bir oz oksamokda.

8-MAVZU: KREDITLASHNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

1. Tijorat banklarida kreditlashni tashkil etish asoslari.
2. Kredit mexanizmi va uning elementlari.
3. Kreditlash tamoyillari va usullari.
4. Kreditlash ob'ekti, sub'ekti va ssuda schyotlarining turlari.
5. Xo'jalik sub'ektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish yo'llari.

Tijorat banklarida kreditlashni tashkil etish asoslari.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga va aholiga kreditlar berish tarixan tijorat banklari faoliyatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Tijorat banklarining paydo bo'lish tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarga nazar tashlasak, banklar avvalo birinchi novbatda kredit operatsiyalarini bajarish zaruriyati tufayli yuzaga kelganligini guvohi bo'lamiz. Aksariyat mualliflarning qarashlariga ko'ra, banklar tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan bog'liq ravishda emas, balki keng ko'lamdagi kredit operatsiyalarini amalga oshirish zaruriyati tufayli paydo bo'lgan.

“Kredit” tushunchasi to'g'risida yana to'xtaladigan bo'lsak, kreditning ssuda kapitali harakatining shakli ekanligini ko'rish mumkin. Ayrim hollarda kredit tushunchasiga “qarzga berilayotgan ssuda (tovar, pul ko'rinishida) tijorat ishonchi” deya ta'rif berilishini guvohi bo'lamiz.

Kreditga eng maqbul ta'rif bu – vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlar majmuasidir.

Iqtisodiy adabiyotlarda kredit faoliyatining ob'ekti va sub'ektiga ta'rif berish orqali iqtisodiy faoliyat turiga kiruvchi va asosiy maqsadi daromad olishga hamda o'z manfaatlariga erishishga yo'naltirilgan faoliyatga kredit faoliyati sifatida ta'rif berilgan. Kredit faoliyati deganda kredit munosabatlari qatnashchilarining manfaatlarini ko'zlab, ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan hamda bank

xizmatlari va operatsiyalari orqali amalga oshiriladigan faoliyatning yig'indisini tushunishimiz mumkin.

Kredit faoliyati kredit resurslariga ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan qayta taqsimlashni amalga oshirish hamda kredit faoliyatining sub'ektlari uchun daromad olish imkonini beradi. Kredit faoliyati yaratuvchilik tabiatining mohiyati olinayotgan yoki berilayotgan resurslar orqali o'z manfaatlariga erishishdan iborat. U iqtisodiy munosabatlarning ana shu jihatini etakchi o'rinlardan biriga chiqaradi. Kredit faoliyatining qatnashchilari shu faoliyat natijasida bevosita yoki bilvosita daromad ko'radilar.

Kredit faoliyati barcha manfaatdor taraflarga real foyda keltiradi. Qarz oluvchilar ma'lum bir muddatga o'zlarining tijorat, ishlab chiqarish va boshqa shu kabi manfaatlariga etishish maqsadida yirik pul kapitalidan foydalanish imkoniga ega bo'ladilar. Kreditorlar esa foiz ko'rinishida daromad oladilar. Bundan tashqari, kredit faoliyati ishlab chiqarishga investitsiyaning kirib kelishini rag'batlantiradi, progressiv tarkibiy siljishlarga turtki bo'ladi. Bugungi kunda kredit iqtisodiyotni makrodarajada tartibga solishning muhim vositalaridan biriga aylangan. U milliy valyuta va baholar barqarorligini, iqtisodiy o'sishni ta'minlash kabi birlamchi masalalarni hal etishda yordam beradi. SHunday qilib, kredit faoliyatini ikki sub'ekt - qarz oluvchi va qarz beruvchi (kreditor)larning bo'lishini taqazo etadigan amaliyot deyish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'ektlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun doimo qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj sezadilar. Ana shunday pul mablag'larining manbalari banklarning o'z va jalb qilingan mablag'lari bo'lishi mumkin. Korxonalar mablag' etishmovchiligidan qiynalayotgan hollarda kredit resurslari bozoriga murojaat qilishga majbur bo'ladilar.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kredit vositasida pullarni xo'jalik aylanmasiga kiritish har qanday holatda mumkin. Naqd pulsiz o'tkazmalar sharoitida Markaziy bank ham, tijorat banklari ham texnik jihatdan istalgan miqdordagi pulni muomalaga chiqarishi mumkin. Ammo tijorat banklarining naqd pulni muomalaga

chiqarish imkoniyati cheklangan. Chunki muomaladagi naqd pul miqdori Markaziy bank balansining passividagi majburiyatlar summasidan oshmaydi va naqd pulni emissiya qilish vakolati faqat Markaziy bank zimmasidadir. Markaziy bank muomalaga chiqaradigan to'lov vositalari uning balansini aktiv qismi doirasida amalga oshiriladi, tijorat banklarining imkoniyati esa, ularning likvidligiga nisbatan belgilangan talablar bilan chegaralanadi.

Pul mablag'larini kredit sifatida berishda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, quyidagi shartlarga rioya qilinishi talab etiladi: muddatlilik; to'lovlilik; qaytarishlilik; ta'minlanganlik va maqsadlilik. Tabiiyki, mazkur shartlarni to'liq bajarilishi berilgan kredit bo'yicha riskning oshishiga yo'l qo'ymaydi. Kreditning maqsadlilik uning mijoz faoliyatining bankka ma'lum bo'lgan va bank tomonidan ma'qullangan yo'nalishga berilishini anglatadi.

Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini tashkil qilish, uning samaradorligini ta'minlash xususidagi masalalar to'g'risida to'xtalib, D.MakNoton rivojlanayotgan mamlakatlarda kreditlash amaliyotini tashkil qilishning zaruriy shartlaridan biri kreditlarni garov ta'minoti asosida berishni odatiy hol sifatida qabul qilishdir, degan xulosaga keldi.⁴ Uning fikriga ko'ra, garov sifatida olinadigan mulkning sotilish bahosi kredit va uning foizini qaytarishga etishi lozim. Bu esa, mulkni doimiy ravishda qayta baholab turishni taqozo qiladi. Chunki mulklarning joriy bahosini tez-tez o'zgarish holati mamlakatimizning xo'jalik amaliyotiga xos bo'lgan holat hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda milliy valyuta kursining chet el valyutalariga nisbatan doimiy ravishda o'sib borish tendensiyasini hamda baholarning muntazam o'sishini inobatga olgan holda kredit uchun garov sifatida qabul qilingan mulk bahosini har oy yoki har chorak yakuniga qayta baholashni yo'lga qo'yish zarurdir.

⁴ Д. МакНотон. Банковские учреждения в развивающихся странах. - ИЭР МБРР. - Вашингтон Д.С., 1993.- С.75

D.Polfreman, F.Fordlar muallifligidagi “Оснoвы банковского дела” kitobida mijozning kredit yig‘ma jildini o‘rganishga e‘tiborni kuchaytirish kreditlash amaliyotini samarali tashkil etishning muhim omili sifatida qaralgan⁵.

Hozirgi zamon jamiyatida banklar ko‘p sonli va xilma - xil moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadigan muassasaga aylandi. Ular orqali iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash, qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish operatsiyalari, korxonalarga tegishli mulklarni boshqarish operatsiyalari va boshqa bir qator moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilmoqda. Biroq shunga qaramasdan kredit operatsiyalari tijorat banklari uchun birlamchi ahamiyatga ega bo‘lgan operatsiya sifatida saqlanib qolmoqda.

Qisqa muddatli kreditlash bu kreditlash ob‘ektlari, kreditlash metodlari, ya’ni kreditlash tamoyillari bo‘yicha kredit berish va qaytarish usullariga asoslangan holda kreditning kapital aylanishida qatnashishi tushuniladi.

Banklarning qisqa muddatli kreditlashini tashkil qilish turli mamlakatlarda davlatning me‘yoriy-xuquqiy hujjatlariga asoslanadi. YA’ni, banklar uchun mijoz va bank talablarini, Markaziy bankning me‘yoriy hujjatlari, shuningdek, milliy tarixiy bank ishlarini hisobga olish zaruriyatini bildiradi.

Xorijiy va milliy iqtisodchilar kreditning mohiyati va roliga nisbatan turli xil nazariy yondashuvlarga ega bo‘lsalar-da, ularning barchasi banklarni qisqa muddatli kreditlashni tashkil qilish asosini korxonaning to‘lov aylanmasi qonuniy ekanligi bilan bog‘lashadi⁶. Kapital aylanishining asosiy qonuniyati sifatida uning uzluksiz ta‘minlanishi tushuniladi.

Jahon amaliyotida tarixan qisqa muddatli kreditlash tizimining evolyusiyasi bir martalik maqsadli kreditlarning umumiy to‘lov aylanmasini kreditlashga o‘tishga asoslangan. Kreditlarni berish va so‘ndirishning aniq usullari banklarning tashkiliy xususiyatlari va ularni korxonalar bilan o‘zaro munosabatlari, qonunchilik me‘yorlari ta’siri ostida shakllandi. Bu usullar G‘arb mamlakatlarining kreditlash

⁵ Д.Полфреман, Филип Форд. Основы банковского дела. Пер. с англ. - Москва: ИФРА-М, 1996. -с.489-490.

⁶ Левчук К.И. Эффективность краткосрочных кредитных вложений. - Москва: Финансы и статистика, 1988. - 109 с.; Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования. Учеб. пос. / под. ред. О.И. Лаврушина. - Москва: КНОРУС, 2006. -256 с.; Қоралиев Т.М. ва бошқалар. Хўжалик юриштиринг ҳозирги босқичида кредит механизми ва банклар. –Тошкент, 1991. -80 б.; Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. – Тошкент: Молия, 2007. - 348 б.

tizimlarini bir-biridan farq qiluvchi qisqa muddatli kreditlash shakllarida o'z aksini topdi. Masalan, AQSHda kredit liniyalari⁷, Germaniyada kontokorrent kreditlari⁸, Buyuk Britaniyada overdraft kreditlash shakllari keng ko'lamda qo'llaniladi. Amaliyotda mazkur shakllar mijozlar to'lov aylanmasi uzluksizligini ta'minlash va banklar kreditlash hajmini oshirish imkonini beradi.

Mamlakat banklarining kreditlash amaliyotida korxonalarda o'z aylanma mablag'larining keskin etishmovchiligi qisqa muddatli kreditlashni rivojlantirishning dolzarbligini belgilaydi.

Kredit mexanizmi va uning elementlari. Kreditlash tamoyillari va usullari.

Kredit - bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini pul egasi yoki boshqalar tomonidan ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Kredit yordamida tovar-moddiy boyliklari, turli mashina va mexanizmlar sotib olinadi, iste'molchilar mablag'lari etarli bo'lmagan sharoitda to'lovni kechiktirib tovarlar sotib olishlari va boshqa har xil to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kredit iqtisodiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning aniq bir ko'rinishi sifatida yuzaga chiqadi.

Kredit har qanday ijtimoiy munosabat emas, balki ijtimoiy ishlab chiqarish mahsuli, qiymatning harakati, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyadir.

Kreditning mohiyati uning ichki belgilarini ochib berishga qaratilgan. Kreditning mohiyatini ochish - bu uning sifatlarini, kreditning muhim tomonlarini, uni iqtisodiy munosabatlar tizimining bir elementi sifatida ko'rsatuvchi asoslarini bilish demakdir.

⁷ Тимоти У.Кох. Управление банком. Пер. с англ. В 5-ти книгах, 6-ти частях. Уфа: Спектр. Часть 5, 1993. -19 с.

⁸ Лексис В. Кредит и банки. - Москва: Перспектива, 1993. - С. 44-45.

Iqtisodiy kategoriya sifatida kreditning mohiyati ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilib chiqilgan va ular tomonidan kreditning mohiyati bo'yicha turlicha fikr bildirilgan.

Masalan, E. Voznesenskiy, A. Zverev, D. Allaxverdyan kabi olimlarning fikricha, kredit maxsus kategoriya hisoblansada u moliya tarkibiga kiradi, deb hisoblashadi.

V. Zaxarov, O. Lavrushin, M. Pessel, I. Levchuk, V. Rybin, A. Qodirov, T. Qoraliev kabi olimlar esa kreditni moliya bilan parallel ravishda faoliyat ko'rsatuvchi alohida mustaqil iqtisodiy kategoriya deb hisoblaydilar.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda kreditning ba'zi muhim tomonlari aniqlanadi:

birinchidan, uning ijtimoiy mahsulot yaratish, milliy daromad va pul resurslarini qayta taqsimlashga bog'liqligi;

ikkinchidan, kreditning harakat shakliga (tovar yoki pul tarzida) ega ekanligi;

uchinchidan, takror ishlab chiqarishdagi harakatning asosiy hal etuvchi belgisi (qarz) ekanligi va h. k.

Berilgan kredit qaytarib berishlilik xarakteriga ega. U xuddi shu sifati bilan moliyadan farq qiladi.

Ssuda kapitali manbalarining tahlili kreditning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatini aniqlashga asos bo'lib xizmat qildi.

Bir qator iqtisodchilarning fikricha, kredit jamiyatdagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni taqsimlash shaklidir.

Bu nuqtai nazardan, kredit vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qarzga berish bo'lib, muayyan belgilangan muddatdan so'ng bu mablag'lar o'z manbasiga qaytib kelishi kerak.

Kredit mexanizmi deganda kreditlash jarayonini amalga oshirishning shakllari kreditlash usullari shakllari va elementlarini tushunish kerak.

Kredit mexanizmining elementlariga kreditning obekti va subekti, kreditlash tamoyillari, kreditlash usullari va shakllari kabilar kiradi.

Kredit va kreditlashning o'ziga xos qoidalari borki, ular maxsus tamoyillarda ifoda etiladi. Bular:

- kreditning qaytarishliligi;
- kreditning muddatliligi;
- kreditning ta'minlanganligi;
- kreditning maqsadliligi;
- kreditning to'lovliligi;
- kreditning samaradorligi.

Kreditning qaytarib berish tamoyili. YA'ni kreditni qaytarib berish shart. Qaytarib berishlik ikki yoqlama jarayonni ifoda etadi, u kreditor uchun ham, qarz oluvchi uchun ham bir xil darajada muhimdir. Kreditning bu tamoyili amaliyotda kredit va undan foydalanganlik uchun foiz summasini kredit bergan muassasa hisobiga ko'chirish yo'li bilan to'lanadi. Aynan shu yo'l bilan banklar kredit resurslarining qayta tiklanishini ta'minlaydilar.

Kreditning muddatliligi. Kredit ma'lum muddat uchun beriladi. Bankdan qarz olinganda albatta uning qanday muddatda berilishi kredit bitimida kelishib olinadi.

Kredit bitimi bank bilan qarz oluvchi o'rtasidagi bitim bo'lib, unda kreditning qanday muddatga berilganligi, kredit uchun qanday haq to'lanishi va kreditni qaytarishlik kafolatlari qayd etiladi.

Kreditning muddatliligi har ikkala tomon, kreditor uchun ham, qarz oluvchi uchun ham muhimdir. Agar kreditor qarzni foizi bilan o'z vaqtida qaytib olsa, bunda qarz oluvchining kreditor oldidagi ishonchliligi tasdiqlanadi va yana takror qarz olish imkoniyati ta'minlanadi.

Kreditning muddatliligi bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan shartlarning buzilishi qarz beruvchining qarz oluvchiga nisbatan iqtisodiy jazo choralari (jarima shaklida, kredit bo'yicha foiz darajasini oshirish, kreditning muddatini qisqartirish va boshqalar)ni qo'llashi mumkin. Kreditning muddatliligi:

- kelib tushuvchi mablag'larning tejamli va qayta ishlatish muddatiga;
- ishlab chiqarilgan mahsulotni jo'natish muddatiga;

- tovarlarni sotish muddatiga;
- aylanma fondlarining doiraviy aylanishining tezligiga bog'liqdir.

Kreditning ta'minlanganligi. Bu tamoyil vositasida pul massasi (qiymat) va ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) o'rtasida bo'lishi zarur bo'lgan mutanosiblik (proporsiyalar) ning bir me'yorda bo'lishi ta'minlanadi. YA'ni bunda xo'jalik aylanma mablag'larida ishtirok etuvchi bank mablag'larining har bir so'miga tovar-moddiy boyliklarning bir so'mi qarama-qarshi turishi talab etiladi.

Boshqacha qilib aytganda, banklar tomonidan beriladigan kreditlar tovar-moddiy boyliklar va ma'lum xarajatlar bilan to'liq ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmasligiga asos hisoblanadi. Bu o'z navbatida bankning likvidliligiga va pul muomalasiga katta ta'sir ko'rsatadi. SHu sababli banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar-moddiy boyliklar va xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishiga alohida e'tibor beriladi.

Kreditning maqsadliligi. YA'ni, olingan kreditlar aniq bir maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunda kredit muayyan aniq ob'ektga:

- ishlab chiqarish xarajatlariga;
- ishlab chiqarish zaxiralariga;
- tayyor mahsulotga;
- jo'natilgan tovarlar va hokazolarga beriladi.

Kreditning to'lovliligi. YA'ni, kredit uchun haq to'lash zarurligi, bank qarzni tekinga bermaydi, buning uchun qarz oluvchidan foiz undiradi. Foiz - bu qarz haqidir. Uning miqdori berilgan qarzga nisbatan foiz hisobida belgilanadi.

Demak, kreditning to'lovliligi uning to'liq summada o'z egasiga qaytarilishigina emas, shu bilan bir qatorda kredit uchun foiz shaklidagi to'lov bilan qaytarilishini ifodalaydi (foizsiz imtiyozli kreditlar bundan istisno).

Kreditning samaradorligi. Bu tamoyil nafaqat kredit summasi va foizni bankka qaytarib to'lashini, shuningdek undan kreditlangan yoki moliyalashtirilgan soha, tarmoq, korxona qancha samaradorlikka erishganini ifodalaydi. SHu sababli kredit ajratishdan yoki berishdan oldin shu kreditning samara berish ehtimolini

hisob-kitob qilish zarur. Agar masalan, loyihaga qo'yiladigan mablag' samara bersagina, shundagina bu loyihaga mablag' ajratish kerak.

Kreditning samaradorligi (K_s) ishlab chiqarish va uning realizatsiya hajmiga (R_h) bevosita bog'liq bo'lib quyidagicha aniqlanishi mumkin:

$$K_c = \frac{P_i}{K_i}$$

Bu erda,

K_h - berilgan kreditning o'rtacha hajmi.

Agar korxona kreditlar resursini kam jalb qilib uning bir so'miga ko'p mahsulot realizatsiya qilgan bo'lsa, demak kreditning samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Kreditning samaradorligini ta'minlash maqsadida g'arb mamlakatlari amaliyotida kreditlashning biz uchun yangi qoidasi, ya'ni «5-S» qoidasi qo'llaniladi. Bunga asosan har bir «S» bo'yicha korxonaning faoliyati tahlil qilib chiqiladi va korxona faoliyati talabga javob bersagina korxonaga kredit beriladi. Qoidaga binoan «S» harflari quyidagi jihatlarni ifodalaydi:

- S1(sharacter) - qarz oluvchining bozordagi obro'si, uning holatini aniqlash.
- C2 (capacity) - qarz oluvchining boshlagan ishini oxirigacha etkaza olish, tegishli daromad olish hamda bank kreditlarini qaytarib berish qobiliyati.
- C3 (capital) - qarz oluvchi sarmoyasining etarliligi.
- C4 (conditions) - mazkur biznesning rivojlanishi yuzasidan shartlar.
- C5 (collateral) - garov (kafolat, kafillik, sug'urta polisi, tovar-moddiy boyliklar va boshqalar).

Har qanday bankning ko'rsatadigan xizmatlari nuqtai nazaridan uning kredit portfelini tartibga solib turish o'ta muhimdir. Zero, kreditning ba'zi bir turlarini berish qonun bilan chegaralangan, ba'zi bir kredit turlari esa umuman taqiqlangan. Masalan:

- bankning o'z aksiyasi bilan ta'minlangan kreditlarni berishi umuman taqiqlangan, shuningdek, bankning o'z xodimlariga iste'mol kreditini berishi ham chegaralangan;
- ipoteka kreditining hajmi bank kapitali va daromadi qiymati yoki muddatli va jamg'arma depozitlaridagi mablag'lar hajmining 70 foizidan oshmasligi lozim;
- bir qarz oluvchiga berilayotgan kredit miqdori bank kapitali va daromadining 15 foizidan oshmasligi lozim. g'ki qarzdor kredit uchun tezda pulga aylantirish imkoniyatiga ega garov berganda, berilayotgan kreditning hajmi bank kapitali va foydaning 25 foizini tashkil qilishi mumkin;
- bank kredit berish jarayonida mijoz bilan kredit shartnomasi tuzgunga qadar unga kreditning yillik foiz stavkasi, ya'ni kreditning narxi, kredit uchun to'lanadigan to'lovlar va soliqlar haqida axborot berishi lozim.

Kreditning mohiyatini uning asosi malum vaqtdan keyin qaytarib beruvchanlik sharti va foiz bilan qaytarishi sharti yanada kengroq ochib beradi. Bu har ikkala shartdan tashqari kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida harakat qilishini asoslash uchun iqtisodiy munosabatlarning chuqur ijtimoiy - iqtisodiy belgilarini hisobga olish zarur.

Kredit mohiyatining tahlili uzluksiz jarayon. Bunda tahlil jarayonida yangidan yangi belgilar, xususiyatlar yuzaga chiqishi mumkin.

Har qanday iqtisodiy kategoriya o'zining funksiyalariga ega bo'lgani kabi kredit ham o'zining bir qator funksiyalariga ega. Ijtimoiy iqtisodiy tizimda kreditning o'rni va roli u bajarayotgan funksiyalari bilan aniqlanadi. Kreditning funksiyasi - bu kreditning iqtisodiyotda faoliyatining konkret ravishda namoyon bo'lishidir.

Kreditni tahlil qilishda, funksiya, uning mohiyati va roli o'rtasidagi oraliq zveno sifatida ko'rib chiqiladi.

Kreditning funksiyalari haqida olimlar o'rtasida yagona izchillik yo'q.

I. Lavrushinning fikricha, kreditning funksiyalarini tahlil qilishda ikkita echilmagan muammo mavjud:

- 1) funksiyani tushunishning uslubiy asoslari;
- 2) funksiyalarning tarkibi va strukturasi.

Kreditning tarkibiy qismidan kelib chiqqan holda unga quyidagi munosabatlarga xos funksiyalar taaluqli:

- a) kreditorning qarz oluvchi va qarzga beriluvchi qiymat bilan munosabati orqali;
- b) qarz oluvchining kreditor va qarzga beriluvchi qiymat bilan munosabati orqali;
- v) qarzga beriluvchi qiymat bilan kreditor va qarz oluvchining munosabati orqali.

Kreditor va qarz oluvchi o'rtasidagi munosabat shunday aniqlanadiki, bunda kreditor qarz oluvchiga resurlarni taklif qiladi, qarz oluvchi bu resurslarni ishlatadi va bunda qarzga beriluvchi qiymat kreditor va qarz oluvchi o'rtasida aylanadi. Bu erdan kreditning birinchi funksiyasi kelib chiqadi:

1. Qarzga beriluvchi qiymatni vaqtincha foydalanishga berish funksiyasi

Kredit va pul mablag'lari o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqqan holda, kreditning haqiqiy pullarni kredit pullari bilan almashtirish funksiya oldinga surilgan. Lekin bu funksiya hozirgi kunda iqtisodiy munosabatlar «sahnasidan» chiqib ketgan.

Kreditning tashqi muhit bilan aloqasi uning ikkinchi funksiyasini keltirib chiqaradi.

2. Qayta taqsimlash funksiyasi

Kredit takror ishlab chiqarish jarayonining barcha fazalariga - ishlab chiqarish, taqsimlash, muomala va iste'molga xizmat ko'rsatadi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq holda kredit, ishlab chiqarish, taqsimlash yoki iste'mol jarayonida kechadigan funksiyalardan farqli o'laroq qayta taqsimlash funksiyasini bajaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ssuda kapitali bozori vaqtincha bo'sh moliyaviy resurslarni bir faoliyat jabxasidan boshqasiga yo'naltiruvchi va natijada yuqori foydani ta'minlovchi o'ziga xos dastag sifatida namoyon bo'ladi.

Qayta taqsimlash funksiyasi yordamida korxonalar, tashkilotlar, davlat va shaxsiy sektorning bo'sh pul mablag'lari va daromadlari ssuda kapitaliga aylantiriladi va vaqtincha foydalanishga, muayyon to'lov asosida beriladi. Bu funktsiya yordamida ishlab chiqarishdagi proporsiyalar va pul kapitali harakati boshqarilib turiladi.

3. Muomala xarajatlarini tejash funksiyasi

Kredit vujudga kelish davridan boshlab haqiqiy pullarni (oltin, kumush) kredit pullari - veksellar, banknotalar, cheklar bilan almashinishini ta'minlab kelgan. Lekin, oltinning monetar roli yo'qolishi tufayli kredit bu funktsiyasi yordamida naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirib, hisob-kitoblarni tezligini va kam xarajatliligini ta'minlamoqda. Kapitalning muomalada bo'lish vaqtining iqtisod qilinishi uning ishlab chiqarishda bo'lish vaqtini oshiradi va bu ishlab chiqarishni kengaytirishga, foydaning ortishiga olib keladi.

Bu funktsiyaning amalga oshishi kreditning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadi. Uning manbai sanoat va savdo kapitalining doiraviy aylanishi jarayonida vaqtincha bo'shagan moliyaviy mablag'lar hisoblanadi. Xo'jalik sub'ektlari pul mablag'larining kelib tushishi va ishlatilishi o'rtasidagi vaqt bo'yicha farq faqatgina ortiqcha mablag'lar hajmini emas, balki moliyaviy mablag'larning etishmovchiligini ham aniqlab beradi. SHuning uchun korxona va tashkilotlarning o'z aylanma mablag'larining vaqtinchalik etishmovchiligini to'ldirish uchun ssudalar berish keng tarqalib borgan.

4. Kapital to'planishining jadallashuvi va konsentratsiyalashuvi funksiyasi.

Kapital to'planishi jarayoni iqtisodiy rivojlanishning barqarorlashuvi va xo'jalik yurituvchi xar bir sub'ektning maqsadga erishishining muhim sharti hisoblanadi. Bu masalani xal qilishga va ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuning bilan birga qo'shimcha foyda olishga qarz mablag'laridan foydalanish

yordam beradi. SHuni ta'kidlab o'tish zarurki, iqtisodiy inqiroz davrida bu resurslarning qimmatliligi ko'pchilik xo'jalik faoliyati jabxalarida kapital to'planishini jadallashtirish masalasini xal qilishda to'sqinlik qiladi.

5. Muomalaga to'lov vositalarini chiqarish funksiyasi.

Bu funksiya amalga oshirish jarayonida kredit faqatgina tovar emas, balki pul muomalasining jadallashuviga, undan naqd pullarni siqib chiqarib, to'lovlar aylanishining tezlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kredit tufayli pul muomalasi doirasiga veksel, chek, kredit kartochkalari kabi vositalarni kiritilib, naqd pulli hisob-kitoblarni naqdsiz operatsiyalar bilan almashtiradi. Bu esa ichki va xalqaro bozordagi iqtisodiy munosabatlar mexanizmini osonlashtiradi va tezlashtiradi. Bu masalani xal etishda tijorat krediti zamonaviy tovar almashinishining kerakli elementi sifatida muhim o'rin tutadi.


Kreditlash ob'ekti, sub'ekti va ssuda schyotlarining turlari.

Kreditning mohiyatini yanada aniqlashtirish uchun uning tarkibini, harakat bosqichlarini, iqtisodiy kategoriya sifatidagi muhim belgilarini va ijtimoiy - iqtisodiy xarakteristikasini ko'rib chiqamiz. Kreditning mohiyatini tushunish uchun avvalom bor, uning tarkibi nimadan iborat ekanligini tushunib olish zarur. Kredit munosabat bo'lishi uchun uning zarur elementlari - kreditning ob'ekti va sub'ekti bo'lishi zarur.

Kredit munosabatlarida sub'ektlar ikki xil bo'ladi:

1. Kreditor (qarz beruvchi)
2. Qarz oluvchi

Bundan tashqari kredit munosabatlari tarkibining elementi sifatida kreditning ob'ekti yuzaga keladi.



4-chizma. Kredit munosabatlarining ob'ektlari va sub'ektlari.

Kredit ob'ekti - bu (kreditor) qarz beruvchidan qarz oluvchiga beriladigan va qarz oluvchidan kreditor (qarz beruvchi)ga qaytib beriladigan qiymatdir.

Bunda qarzga berilgan mablag' o'z qiymatini saqlab qolishiligi kreditning asosiy sifati hisoblanadi.

Kredit sub'ektlari har xil, bularga korxona, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

Kreditning ob'ekti har qanday pul emas, balki faqat vaqtincha bo'sh turgan, egasi tomonidan ishlatilmay va qarzga berilishi mumkin bo'lgan puldir.

Bo'sh pul uch xil bo'ladi:

- tadbirkorlar yoki katta puldorlar qo'lidagi pul, ya'ni pul kapitali;
- aholi qo'lidagi pul - ertami-kech ehtiyojni qondirish uchun to'plangan pul, egasi qo'lida kapital emas, balki iste'molini qondirish vositasi;
- davlat ixtiyoridagi pul. Bu ham pul kapitali (davlat korxonasi uchun), ham umumiy iste'mol pulidir.

Aytilgan turdagi bo'sh pullar ssuda (qarz) fondini tashkil etadi va uning yuzaga kelishi ob'ektiv tarzda muqarrardir. Qarzga berilgan pul, ya'ni kredit harakatini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$K_b \longrightarrow K_o \longrightarrow K_i \longrightarrow K_{fq}$$

Bu erda,

K_b - kredit berildi;

K_o - kredit olindi;

K_i - kredit ishlatildi;

K_{fq} - kredit foiz (%) bilan qaytarildi.

SHu tarzda bo'sh pullar kreditning asosiy sharti-qarz uchun haq to'lashni ta'minlaydi. Bu haq qarz qilingan summaga nisbatan foiz hisobida olinganidan u qarz protsenti deb yuritiladi. Qarz protsenti pul bozorida amal qiladi.

Kredit tarkibi uning elementlari birligini ifodalaydi.

Kreditning harakat boskichlari ham uni muhim belgisi hisoblanadi. Qarzga beriluvchi qiymat harakatini quyidagi sxemada ifodalash mumkin:

$$B_k - O_{kz} - I_k \dots V_r \dots Q_k - F_{ks}$$

B_k - kreditning berilishi

O_{kz} - kreditni qarz oluvchi tomonidan uning vaqtinchalik ehtiyojlarini qondirish uchun olinishi

I_k - kreditni ishlatilishi qarz oluvchining kreditni nima maqsadda olganligi bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

V_r - qarz oluvchining xo'jaligida qarzga olingan qiymatni aylanma oboroti tugallanishini resurslarning oborotdan chiqarilishi ifodalaydi.

Q_k - kreditni qaytarish

F_{ks} - vaqtinchalik berilgan qiymatni kreditor qo'liga qaytib kelishi (%) bilan

Kreditning mohiyatini uning asosi malum vaqtdan keyin qaytarib beruvchanlik sharti va foiz bilan qaytarishi sharti yanada kengroq ochib beradi. Bu har ikkala shartdan tashqari kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida harakat

qilishini asoslash uchun iqtisodiy munosabatlarning chuqur ijtimoiy - iqtisodiy belgilarini hisobga olish zarur.

Kredit mohiyatining tahlili uzluksiz jarayon. Bunda tahlil jarayonida yangidan yangi belgilar, xususiyatlar yuzaga chiqishi mumkin.

Har qanday iqtisodiy kategoriya o'zining funksiyalariga ega bo'lgani kabi kredit ham o'zining bir qator funksiyalariga ega. Ijtimoiy iqtisodiy tizimda kreditning o'rni va roli u bajarayotgan funksiyalari bilan aniqlanadi. Kreditning funksiyasi - bu kreditning iqtisodiyotda faoliyatining konkret ravishda namoyon bo'lishidir.

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunning 28 va 34 - moddalariga muvofiq korxonalarni, tashkilotlarni, muassasalarni, xususan kichik, o'rta biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni kreditlash tijorat banklarining asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kredit berish (olish) «O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibidagi nizom»ga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu nizom banklar tomonidan beriladigan barcha kreditlarga, shuningdek, unga ochilayotgan kredit liniyalariga nisbatan qo'llaniladi. Bank kreditlarni o'zining ichki kredit siyosatiga va kredit operatsiyalarini yuritishning umumiy shartlariga muvofiq ravishda beradi.

Kreditlar yuridik shaxs huquqlariga, o'z sarmoyasi va mustaqil balansiga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi qonuni tatbiq etiladigan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadigan korxonalarga taqdim etiladi. Zarar ko'rib ishlaydigan, nolikvid balansga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga kredit berilmaydi, ilgari berilgan ssudalar esa belgilangan tartibda muddatidan oldin undirish uchun da'voga beriladi.

Kredit olish uchun korxona yoki tashkilot o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- kredit olish uchun ariza;
- korxonaning moliyaviy ahvolini aniqlash uchun oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi;
- biznes-reja;

- foyda va zararlar to'g'risida hisobot;
- oborot mablag'larining aylanuvchanligi hisob-kitobi;
- boshqa kreditorlardan qarzga mablag'lar olingani va boshqa banklarda erkin mablag'lari borligi to'g'risida ma'lumotnoma.

Bu hujjatlar sinchiklab o'rganilgach, bank xodimi xulosani rasmiylashtiradi, so'ngra u ilova qilingan hujjatlar bilan birga ko'rib chiqish uchun kredit qo'mitasiga yuboriladi. Kredit qo'mitasi o'z vakolatlaridan kelib chiqib, uch kun mobaynida tegishli qaror qabul qiladi.

Kredit qo'mitasining ijobiy qaroridan keyin kredit shartnomasi tuziladi. Unda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- kredit maqsadi va summasi;
- kreditni berish tartibi va shakli, kredit liniyasi miqdori va haqiqatdagi qarzidan kelib chiqib belgilangan uzish muddatlari;
- foiz stavkalari miqdori, ularni hisoblab yozish va to'lash tartibi;
- kreditni berish uchun zarur ma'lumotlar, hisob-kitoblar va boshqa hujjatlarning ro'yxati va ularning davriyligi;
- buxgalteriya va ombor hisobi, kreditdan maqsadli foydalanish, qaytarishni ta'minlash holatini joyning o'zida har chorakda tekshirish va boshqa masalalar.

Tashkilotga kredit berish alohida hisob varag'idan «kredit liniyasini ochib» yoki «kredit liniyasini ochmasdan» amalga oshirilishi mumkin.

«Ochiq kredit liniyasi» bilan ssuda berish bankning kafolat majburiyati bilan rasmiylashtiriladi. Bu bilan bank o'z zimmasiga, o'zining bog'lanish hisob varag'i holatidan qat'i nazar, kredit shartnomasi bilan belgilangan kredit miqdori, kredit berish muddati va limiti doirasida korxona yoki tashkilotga kreditni to'siqsiz berish kafolatlangan majburiyat oladi.

Bankning kafolat majburiyati ikki nusxada tuziladi, ularning bittasi kredit xodimi farmoyishiga binoan balansdan tashqari 9925 - hisob varaqda hisobga olish uchun buxgalteriyaga beriladi, ikkinchisi mijozning yig'majildida saqlanadi.

«Ochiq kredit liniyasi» bilan kreditga ega bo'lgan ehtiyoj:

- kreditdan foydalanish va uni uzish davriyligi;
- moddiy boyliklarni etkazib berish to'g'risida mol etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar tahlili asosida belgilanadi.

«Ochiq kredit liniyasi» bilan kreditlash limiti har chorakda, tovar zaxiralarining haqiqatdagi o'rtacha qoldiqlari, yuklab jo'natilgan tovarlar (amalga oshirishning bir oylik muddati doirasida) avvalgi chorak uchun tovar operatsiyalari bo'yicha kreditorlik qarzidan kelib chiqib belgilanadi. Berilgan kreditlar muddati majburiyatlar bilan rasmiylashtiriladi. Ular balansdan tashqari 9921 - hisob varaq bo'yicha kirim qilinadi.

Kreditning shakllari va turlari, ularning tavsifi

Kreditga bo'lgan talab qaysi usulda va muddatda, kim tomondan qondirilishiga va qarz oluvchilarga taklif qilinishiga qarab, kredit bir necha tur va shakllarga bo'linadi.

Uzoq davrlardan buyon kreditning quyidagi turlari qo'llanilib kelinmoqda.

1. Qisqa muddatli kreditlash;
2. Uzoq muddatli kreditlash.

Qisqa muddatli kreditlashda kreditlar bir necha oylardan bir yilgacha bo'lgan muddatga beriladi. Bu turdagi kreditlar ishlab chiqarish aylanma fondlari va muomala fondlarining doiraviy aylanishining uzluksizligini ta'minlaydi. Bizga malumki, aylanma fondlarning doiraviy aylanishi deyarli barcha ijtimoiy ishlab chiqarish sohalarida bir yil va undan kamroq vaqt davom qiladi. Bir yil fondlar aylanishining tabiiy o'lchovi sifatida xizmat tiladi. SHuning uchun ham bir yil qisqa va uzoq muddatli kreditlashning chegarasi bo'lib xizmat qiladi. Qisqa muddatli kreditlar o'z tabiatiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. *kreditlash ob'ektlarining iqtisodiy mohiyatiga qarab:*

*tovar moddiy boyliklari uchun beriladigan kreditlar;

*ishlab chiqarish xarajatlari (mahsulotning yangi turini o'zlashtirish).

Kreditga bo'lgan talab qaysi usulda va muddatda, kim tomondan qondirilishiga va qarz oluvchilarga taklif qilinishiga qarab, kredit bir necha tur va shakllarga bo'linadi.

Uzoq davrlardan buyon kreditning quyidagi turlari qo'llanilib kelinmoqda.

3. Qisqa muddatli kreditlash;
4. Uzoq muddatli kreditlash.

Qisqa muddatli kreditlashda kreditlar bir necha oylardan bir yilgacha bo'lgan muddatga beriladi. Bu turdagi kreditlar ishlab chiqarish aylanma fondlari va muomala fondlarining doiraviy aylanishining uzluksizligini ta'minlaydi. Bizga malumki, aylanma fondlarning doiraviy aylanishi deyarli barcha ishlab chiqarish sohalarida bir yil va undan kamroq vaqt davom qiladi. Bir yil fondlar aylanishining tabiiy o'lchovi sifatida xizmat tiladi. SHuning uchun ham bir yil qisqa va uzoq muddatli kreditlashning chegarasi bo'lib xizmat qiladi. Qisqa muddatli kreditlar o'z tabiatiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

2. *kreditlash ob'ektlarining iqtisodiy mohiyatiga qarab:*

- *tovar moddiy boyliklari uchun beriladigan kreditlar;
- *ishlab chiqarish xarajatlari (mahsulotning yangi turini o'zlashtirish, mavsumiy xarajatlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni) uchun beriladigan kreditlar;
- *hisob kitoblarni amalga oshirish uchun beriladigan kreditlar (akkreditiv ochilganda, tayyor mahsulotni jo'natganda va boshqa hollarda).

2. *To'lash muddatiga qarab:*

- *muddatli, muddati kechiktirilgan va muddati o'tib ketgan kreditlar.

3. *Kreditni to'lash manbalariga qarab:*

- *qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobidan;
- *garant mablag'lar hisobidan;
- *yangi kreditlar jalb qilish hisobidan.

4. *Ta'minlanganlik tamoyilining amal qilishiga qarab:*

- *to'g'ridan-to'g'ri ta'minlanganlikka ega bo'lgan kreditlar;

*egri (biror korxona va tashkilot vositasida) ta'minlanganlikka ega bo'lgan kreditlar;

*ta'minlanmagan kreditlar.

5. *To'lanadigan foiz darajasiga qarab:*

*o'rtacha (normal) foiz stavkali;

*yuqori foizli;

*past foiz stavkali;

*foizsiz kreditlarga bo'linadi.

Uzoq muddatli kreditlashda, kreditlar bir yildan ortiq muddatga beriladi. Uzoq muddatli kreditlar asosan asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish va ular bilan bog'liq sohalarni ta'minlashga ishlatiladi. Hozirgi davrda uzoq muddatli kreditlar banklar tomonidan juda kam miqdorda berilsada, ular kapital qo'yilmalarini, loyihalarni moliyalashtirishning asosiy manbai sifatida davlatimiz iqtisodini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Uzoq muddatli kreditlar xo'jalik tashkilotlari tomonidan quyidagi ob'ektlar uchun jalb qilinishi mumkin:

- qayta tiklashga kapital xarajatlarni amalga oshirish uchun;
- harakatdagi asosiy fondlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar uchun;
- yangi qurilish va qo'shimcha yuqori samarali tadbirlar bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish uchun;
- yangi fan, ilmiy texnika sohasida tadqiqodlar olib borish va yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish uchun va boshqalar.

Kredit munosabatlarining sub'ektlari va ob'ektiga, foiz stavkasiga va kreditning harakat doirasiga qarab, kreditning quyidagi mustaqil shakllari amaliyotda qo'llanilishi mumkin. Bular bank krediti, tijorat krediti, ist'emol krediti, davlat krediti, xalqaro kredit. Amaliyotda kreditning har bir shakli ham bir necha bo'laklarga bo'linishi mumkin.

Bank krediti. Iqtisodiyotda keng tarqalgan kredit munosabatlarining shakllaridan biridir. Uning ob'ekti pul mablag'larini bevosita ssudaga berish jarayoni hisoblanadi. Bank kreditini beruvchi kredit muassasalari kreditlash

jarayonini amalga oshirish uchun Markaziy bankdan maxsus litsenziya (ruxsatnoma) olgan bo'lishlari zarur. Qarz oluvchi sifatida yuridik shaxslar, aholi, davlat, xorijiy davlat mijozlari ishtirok qilishlari mumkin. Kredit munosabatlarining vositasi bo'lib, kredit shartnoma yoki kredit kelishuvi hisoblanadi. Bu kredit turi bo'yicha olinadigan daromad yoki stavka tomonlar bilan kelishiladi va bank foizi yoki ssuda foizi ko'rishida bo'ladi.

Jahon amaliyotida bank kreditidan foydalanishda uning turli xil xususiyatlari hisobga olinadi.

Qisqa muddatli bank kreditlari qarz oluvchi korxonaning xo'jalik faoliyatida aylanma mablag'lar etishmovchiligini to'ldirish uchun qo'llaniladi. Bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos keluvchi bunday jarayonning bo'lishi ssuda kapitali bozorida mustaqil segment pul bozorining yuzaga kelishiga olib keladi. Qisqa muddatli kreditlar fond bozorida, savdo va xizmatlar ko'rsatishda, banklararo kreditlash rejimida ko'proq qo'llaniladi.

Hozirgi sharoitda qisqa muddatli kreditlar quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

- kreditlarning juda qisqa muddatlarga (ba'zida bir oygacha muddatga) berilishi;
- kreditning muddati va foiz stavkasining bir-biriga teskari proporsional (kreditning muddati juda qisqa bo'lsada, foiz stavkasi juda yuqori) bo'lishi;
- ishlab chiqarish sohasidan ko'proq muomala sohasiga xizmat ko'rsatish;

Hozirgi vaqtda bir yil muddatga beriladigan kreditlardan tijorat xarakteridagi faoliyatini amalga oshirish, agrar sektorda va investitsiyalarni talab qiluvchi innovatsion jarayonlarni kreditlashda keng foydalanilmoqda.

Uzoq muddatli kreditlar asosiy fondlar xarakatini ta'minlaydi va ular kredit resurslarning katta hajmi bilan ajralib turadi. Uzoq muddatli kreditlar 1 yildan ortiq muddatga, davlat tomonidan tegishli moliyaviy kafolatlarni olgan holda, kreditning muddati 10 yil va undan ortiq muddatga uzaytirilishi mumkin.

Qarzni to'lash usuli.

Qarzdor tomonidan bir martada to'liq summada to'lanadigan kreditlar. Bu usul qisqa muddatli kreditlarni qaytarishning an'anaviy usuli hisoblanib, huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishi juda sodda mexanizmga ega bo'ladi, chunki bu usulda tabaqalashtirilgan foiz stavkasini hisoblash mexanizmini qo'llash talab qilinmaydi.

Kreditni to'lashda kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddat davomida bo'lib bo'lib to'lanadigan kreditlar bo'lishi mumkin. Qarzni to'lashning bu usulida kreditni qaytarishning aniq shartlari kredit shartnomada keltirilgan bo'ladi. Kreditni bo'lib bo'lib to'lash usuli ko'pincha uzoq muddatli kreditlarni to'lashda ishlatiladi.

Kredit bo'yicha foizni undirib olish usuli

Amaliyotda olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini to'lashning bir necha xil usullari mavjud:

*Kreditni to'lash muddati kelganda foiz stavkasini ham qo'shib to'lash usuli. Bu usul bozor iqtisodi yaxshi taraqqiy qilgan mamlakatlarning xo'jalik tashkilotlari faoliyatida keng qo'llaniladigan ananaviy usul bo'lib, u hisob-kitob xarakteri jihatidan oddiy bo'ladi. Bu usul ko'proq qisqa muddatli ssudalarni to'lashda qo'llaniladi.

*Kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddat davomida bir tekisda qarz oluvchi tomonidan to'lanadigan kredit bo'yicha foizni undirib olish usuli. Amaliyotda bu usul uzoq muddatli kreditlarni to'lashda qo'llaniladigan ananaviy usuldir va tomonlar kelishgan holda kredit bo'yicha foizlarni to'lashga har xil yondashishlari mumkin. Masalan, kredit uzoq muddatga berilgan bo'lsa, kredit bo'yicha foiz stavkasini to'lashni kreditdan foydalanib boshlaganidan bir yoki ikki yil o'tgandan keyin belgilab berish mumkin.

*Qarz oluvchiga kredit berilayotgan vaqtda kredit uchun to'lanadigan foiz bevosita bank tomonidan ushlab qolinadigan kreditlar. Kredit uchun foiz stavkasini bu usulda to'lash rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos kelmaydi va u uchun xarakterli emas. Bu usul faqat sudxo'rlik kapitalida ishlatiladi. Mamlakatda iqtisodiy holat nobarqaror bo'lganida banklar qisqa

muddatli kreditlashni va kreditlar bo'yicha foizlar to'lashni shu usulda olib borganlari ular uchun qulay hisoblanadi va amaliyotda shu usuldan keng foydalanadilar.

Ta'minlanganlikning mavjudligi.

Ishonchli kreditlar va ularning qaytarilishini ta'minlovchi birdan-bir garov shakli bevosita kredit shartnomasi hisoblanadi. Kredit shartnomasi shartlarining bajarilishini kredit ta'minlanganligining sharti sifatida qabul qilish, xorijiy banklar tomonidan cheklangan xajmda, ishonchga sazovor bo'lgan doimiy mijozlarni qisqa muddatli kreditlash jarayonida qo'llaniladi. Uzoq muddatli kreditlashda ham berilgan kreditlarni sug'urta qilish sharti bilan istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin. Odatda sug'urta qilish, qarz oluvchi hisobidan amalga oshiriladi. Bizning amaliyotimizda bu bazi hollarda tijorat banklari tomonidan o'z sho'abalarini va muassasalarini kreditlashda qo'llanilishi mumkin.

Yaxshi ta'minlangan kreditlar. Bunday kreditlar zamonaviy bank kreditining asosiy turi sifatida ta'minlangan ssudalar hisoblanadi. Ta'minlanganlik sifatida qarz oluvchining har xil shakldagi mulki, ko'proq - ko'chmas mulki va uning ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlar, boshqa mulk shakllari bo'lishi mumkin. Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajara olmagan hollarda ta'minlanganlik asosi bo'lgan mulk bank ixtiyoriga o'tadi va bank uni sotib etkazilgan zararlarni qoplash huquqiga ega bo'ladi. Bank tomonidan berilayotgan kredit miqdori taklif etilayotgan ta'minlanganlikning o'rtacha bozor narxidan past bo'ladi va mulk bahosi tomonlarning kelishuvi natijasida aniqlanadi.

Kreditning ta'minlanganligi uchun qabul qilinadigan mulk tez sotiladigan, oldin biror majburiyat bo'yicha garovga qo'yilmagan, korxonaga tegishli bo'lgan mulk bo'lishi kerak.

Uchinchi shaxsning moliyaviy kafolati yoki kafilligi bilan beriladigan ssudalar. Kredit boshqa bir tashkilotning kafolati asosida beriladi. Kafolat beruvchi korxona yoki muassasa, agar qarz oluvchi kredit shartnomasida ko'rsatilgan shartlarni vaqtida bajarmasa, shu tufayli bank ko'rgan zararlarni qoplashga kafillik beradi va faoliyat davomida haqitatda shunday ahvol ro'y

bersa o'z mablag'lari hisobidan zararni qoplab beradi. Moliyaviy kafillik beruvchi tomon sifatida yuridik shaxslar, shuningdek turli darajadagi davlat hokimiyati organlari ishtirok qilishlari mumkin.

Bank kreditining maqsadliligi

Jahon amaliyotida umumiy biror ehtiyojni qoplash uchun ishlatiladigan kreditlar mavjud. Bunda bank tomonidan beriladigan kreditlar qarz oluvchining moliyaviy resurslarga bo'lgan turli ehtiyojlarini qondirish uchun o'z ixtiyori bo'yicha ishlatiladi. Hozirgi sharoitda ular qisqa muddatli kreditlash sohasida cheklangan tarzda qo'llaniladi, o'rta va uzoq muddatli kreditlashda umuman qo'llanilmaydi. Bizning amaliyotimizda banklar tomonidan biror maqsadni amalga oshirish uchungina kreditlar beriladi.

Kreditning qaysi maqsad uchun berilayotganligi kredit shartnomasida ko'rsatiladi va bank tomonidan berilgan resurslar qarz oluvchi tomonidan faqatgina shartnomada ko'rsatilgan masalani hal etish uchun ishlatiladi. (masalan, olinayotgan tovarlar bo'yicha hisoblashish, ish xaqi to'lash va x.k. uchun) Qarz oluvchi tomonidan ko'rsatilgan majburiyatlarning buzilishida bitimda ko'rsatilgan jarimalar qo'llaniladi.

Qarz oluvchilarning kategoriyalari.

O'zining faoliyat doirasiga qarab qarz oluvchi korxona va tashkilotlar bir necha guruhlariga bo'linishi mumkin. Masalan agrar sohada kreditlar oluvchilar. Bu sohaning bo'lishi - maxsus kredit muasasalari - agrobanklarning, keyinchalik qishloq xo'jaligi sohalariga xizmat ko'rsatuvchi boshqa banklar Paxtabank, G'allabank va boshqa shu turdagi banklarning tashkil topishini belgilab beruvchi asos hisoblanadi. Bu banklar faoliyatining o'ziga xos xususiyati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan mavsumiylikni e'tiborga olgan holda kreditlash hisoblanadi.

Tijorat sohasi uchun kreditlar berish. Bu soha bo'yicha kreditlar savdo va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik sub'ektlariga beriladi. Bu kreditlar tez aylanib kelish xususiyatiga ega bo'lib, tijoratchilar ehtiyojini qondirishda katta ahamiyatga egadir.

Bank tomonidan kreditlar qimmatli qog'ozlar bo'yicha oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshiruvchi, fond birjasi vositachilari: broker, makler, diler firmalariga beriladi.

Ko'chmas mulk uchun ipoteka kreditlari berilishi mumkin. Ular ham oddiy, ham ixtisoslashgan ipoteka banklari tomonidan beriladi. Bu hozirda xorij amaliyotida keng tarqalgan bo'lib, hatto ba'zi manbalarda kreditning alohida shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bizning amliyotimizda esa bu faqatgina 1996 yildan boshlab keng tarqala boshladi. Xususiylashtirish jarayonining rivojlanishi, mulkka egalik asoslarining qonunlashtirilishi ipoteka kreditini yanada ravnaq topishiga olib keldi.

Banklararo kreditlar - bank kreditining keng tarqalgan shakllardan biri. Banklararo kreditning joriy stavkasi ma'lum bir tijorat bankning boshqa turlardagi ssudalar berish siyosatini aniqlab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu normaning aniq miqdori (hisob stavkasi) Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Tijorat krediti. Iqtisodiyotda kredit munosabatlarining vujudga kelishining birinchi shakllaridan bo'lib, veksel muomalasini vujudga keltirgan va naqd pulsiz hisob kitoblarning rivojlanishiga yordam bergan. Tijorat kreditining sub'ektlari sifatida yuridik shaxslar: mol etkazib beruvchi va mol sotib oluvchi korxonalar, kreditning ob'ekti sifatida sotilayotgan tovar ishtirok qiladi. Tijorat krediti o'zining amaliy ko'rinishini huquqiy shaxslar o'rtasida tovar va xizmatlarning to'lov muddatini cho'zish orqali sotish shaklidagi moliya xo'jalik munosabatlarida topadi. Bu kredit shaklining asosiy maqsadi tovarlarni sotishni tezlashtirish va shu orqali foyda olishdan iborat.

Tijorat kreditning an'anaviy vositasi bo'lib, qarz oluvchining qarz beruvchiga nisbatan moliyaviy majburiyatlarini aks ettiruvchi veksel hisoblanadi. Veksel bu qarz majburiyati bo'lib, qarz oluvchi o'z zimmasiga qarzni ko'rsatilgan summada, ko'rsatilgan joyda, belgilangan muddatda to'lash majburiyatini oladi.

Amaliyotda vekselning ikki turi qo'llaniladi. Oddiy va o'tkazma veksel. Oddiy vekselni qarz oluvchi korxona qarz beruvchi korxonaga beradi va tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun unga to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

O'tkazma vekselda kreditor tomonidan belgilangan tovar va xizmatlar summasi uning topshirig'iga asosan uchinchi shaxsga yoki vekselni ko'rsatuvchiga o'tkazilishi zarur. Kreditorning vekselda ko'rsatilgan summani uchinchi shaxsga to'lash to'g'risidagi buyrug'ini ifodalovchi hujjat amaliyotda tratta deb ham yuritiladi.

Tijorat krediti bank kreditidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Kreditor (qarz beruvchi) rolida maxsus kredit-moliya tashkilotlari emas, balki tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda sotish bilan shug'ullanuvchi turli yuridik shaxslar ishtirok qiladi;

2. Tijorat krediti faqatgina tovar shaklida beriladi;

3. Tijorat kreditida ssuda kapitali, sanoat va savdo kapitali bilan integratsiyalashgan holda harakat qiladi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida turli ixtisosdagi va faoliyat yo'nalishdagi korxonalarni o'z ichiga oluvchi xolding, moliyaviy kompaniyalarning vujudga kelishida o'z amaliy aksini topadi;

4. Berilgan vaqt oralig'ida tijorat kreditining o'rtacha qiymati bank foizining o'rtacha stavkasidan doimo kichik bo'ladi;

5. Qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi shartnoma huquqiy rasmiylashtirilganda tijorat krediti bo'yicha to'lov (foiz stavkasi) alohida aniqlanmaydi. Foiz to'lovi tovar bahosiga qo'shilgan holda rasmiylashtiriladi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida tijorat krediti keng tarqalgan. MDH davlatlari bank amaliyotida tijorat krediti qo'llanilmaydi. Sobiq ittifoq davrida kredit munosabatlarining rivojlanishiga nazar soladigan bo'lsak, 1930-32 yillardagi kredit islohatigacha amaliyotda tijorat kreditidan foydalanilgan. Bu kredit tovarlar ishlab chiqarishning mo'l-ko'pchiligi sharoitida tovarlarni sotish jarayonini tezlashtirishda qulay hisoblanadi. 30- yillarda kreditning bu shaklidan foydalanishda malum kamchiliklarga yo'l qo'yilgani uchun kredit islohati o'tkazish davomida bu kreditdan foydalanish bekor qilindi va xo'jaliklar to'g'ridan-to'g'ri bank tomonidan kreditlashga o'tkazilgan.

Hozirgi sharoitda jahon amaliyotida tijorat kreditning asosan 3 turi qo'llaniladi:

- *qayd qilingan to'lov muddati bo'yicha kredit;
- *tovarlarni sotgandan keyingina qarzni to'lash bo'yicha kredit;
- *ochiq hisobvaraqlar bo'yicha kreditlash.

Bunda tijorat krediti shartlari bo'yicha, keyingi tovar partiyasini jo'natish, oldingi jo'natilgan tovarlar bo'yicha qarzlarni to'lash muddatigacha amalga oshirilishi zarur.

Korxonalar tomonidan tijorat kreditidan foydalanish ular tomonidan bank kreditidan foydalanishni inkor qilmaydi. Tijorat krediti bank kreditidan farq qilsada, ularning harakati bir biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin. Korxonalar tijorat kreditidan foydalanganda, bank krediti korxona faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri tasir qiladigan kredit sifatida namoyon bo'la olmaydi. Tijorat kreditida korxonalarning hisob kitob shetida mablag'lari bo'lmagan sharoitda korxonalar tovarlarni kreditga sotib oladilar. SHuning uchun iste'molchi korxonalar bank kreditiga ehtiyoj sezmasligi mumkin. Ayni vaqtda mol sotuvchi korxona faoliyatida u tovarlarini kreditga sotganligi uchun mablag'ga muhtojlik sezilishi mumkin. Mana shu sharoitda mol etkazib beruvchi korxona pul mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qoplash maqsadida kredit olish uchun bankga murojaat qilishi mumkin. Bu hol 30-yillar amaliyotida bank tomonidan egri kreditlash deb yuritilgan. Egri kreditlash deb yuritilishining sababi shundaki, kreditni haqiqatda mablag'i etarli bo'lmagan korxona, mol sotib oluvchi korxona olishi zarur edi. Mol sotib oluvchining xo'jalik faoliyatidagi mablag'lar etishmovchiligi mol etkazib beruvchiga bank tomonidan kredit berish yo'li bilan qoplangan.

YUqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni hisobga olmagan holda tijorat krediti tovarlar sotish jarayonini tezlashtirishda va korxonalarning aylanma mablag'larini xo'jalik faoliyatidan tezroq bo'shashini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Iste'mol krediti. Iste'mol krediti o'zining maqsadi bilan kreditning boshqa shakllaridan farq qiladi. Uning farqli belgisi - jismoniy shaxslarni kreditlash hisoblanadi. Kreditning bu shaklida kredit beruvchi sifatida maxsus kredit

muassasalari bilan birga tovar va xizmatlarni sotishni amalga oshiradigan jismoniy shaxslar ham bo'lishi mumkin.

Iste'mol krediti ikki shaklda: pul shaklida yoki tovar shaklida berilishi mumkin. Jismoniy shaxslarga ko'chmas mulkka egalik qilish uchun, qimmat bo'lgan davolanishni to'lash, har xil tovarlar va uy jihozlari sotib olish va boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun iste'mol kreditlari berilishi mumkin. Pul shaklida iste'mol krediti banklar tomonidan, tovar shaklida esa tovarlar chakana savdosi jarayonida to'lov muddatini cho'zish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda hozirgi kunlarda uy-joy sotib olish, uy joy qurish uchun pul shaklidagi, uzoq muddatli iste'mol krediti va tovar shaklida avtomobil kreditga berilmoqda.

Davlat krediti. Kreditning bu shaklining asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlat bir tomondan qarz beruvchi va ikkinchi tomondan qarz oluvchi sifatida ishtirok qilishi mumkin. Qarz beruvchi vazifasini bajara turib, davlat, davlat kredit institutlari, jumladan Markaziy bank orqali iqtisodiyotning har xil sohalarini kreditlashni o'z zimmasiga oladi. Davlat tomonidan:

- * iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarini kreditlash;
- * moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezayotgan davlat ahamiyatiga ega bo'lgan aniq tarmoq yoki mintaqalarga, agar byudjetdan moliyalashtirish imkoniyati tugagan bo'lsa, vaqtincha foydalanishga mablag' ajratilishi mumkin.

Undan tashqari, tijorat banklariga banklararo kreditlar bozorida kredit resurslarni kim oshdi savdo yo'li bilan yoki to'g'ridan-to'g'ri sotish jarayonida davlat tomonidan mablag'lar vaqtincha foydalanishga berilishi mumkin.

Davlatning qarzlari ko'paygan hollarda davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish maqsadida, davlat qarz oluvchi sifatida, davlat qarzlari joylashtirish jarayonini amalga oshiradi.

Davlat kreditining xarakterli xususiyati shundaki, davlat tomonidan olingan qarz mablag'lar ishlab chiqarish fondlari aylanishida yoki moddiy boyliklar

yaratishda ishtirok qilmaydi. Bu mablag'lar davlat qarzlarini qoplash uchun ishlatiladi.

Davlat xazina majburiyatlarini chiqarish, moliya bozorlarida davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish, davlat zaemlarini chiqarish va sotish yo'li bilan banklarning aholining va boshqa moliya - kredit institutlarining pul mablag'larini yig'adi va ularni davlat qarzi va byudjet kamomadini qoplashga (moliyalashtirishga) sarflaydi.

SHuni ta'kidlash zarurki, o'tish davrida davlat krediti faqatgina moliyaviy resurslarni jalb qilish manbai sifatida emas, balki iqtisodni markazlashgan kredit tizimi orqali tartibga solishning samarali vositasi sifatida ishlatilishi kerak.

Xalqaro kredit. Kredit munosabatlarining xalqaro miqyosda (davlatlar o'rtasida) amalga oshirilishi xalqaro kreditning yuzaga kelishiga olib keladi. Xalqaro kreditga xalqaro miqyosda xarakat qiluvchi kredit munosabatlari to'plashi sifatida qarash zarur. Kreditning bu shaklining bevosita ishtirokchilari millatlararo moliya-kredit institutlari, tegishli davlat xokimiyati, kredit tashkilotlari va alohida yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit bir davlat, shu davlat banki, yuridik shaxsi tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa yuridik shaxslariga muddatlilik va to'lovlilik asosida beriladigan kredit hisoblanadi.

Xalqaro kredit davlat va xalqaro institutlar ishtirok etgan munosabatlarda pul (valyuta) shaklida, tashqi savdo faoliyatida esa tovar shaklida bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

qarz oluvchi va qarz beruvchi sifatida davlat tashkilot va muassasalari, banklar, kompaniyalar, xalqaro valyuta kredit tashkilotlari qatnashadilar;

qarzga olingan mablag'lar qarz oluvchi mamlakat tomonidan daromad keltiruvchi kapital sifatida ishlatiladi;

qarz beruvchi mamlakatga to'lanadigan ssuda foizining manbasi qarz oluvchi mamlakat aholisi tomonidan yaratilgan milliy daromad hisoblanadi.

Xalqaro kredit mahalliy kredit bilan bir qatorda fondlar aylanishining barcha bosqichlarida qatnashadi.

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- *mamlakatlar o'rtasida kapitalning qayta taqsimlanishini ta'minlaydi;
- *kapitalning konsentratsiyalashuviga va markazlashuviga sharoit yaratadi va bu jarayonni tezlashtiradi;
- *har xil valyutalarda xalqaro hisob-kitoblarni olib borishda muomala xarajatlarini qisqartiradi.

Xalqaro kreditlar xarakteri bo'yicha - davlatlararo, xususiy, firma kreditlariga;

shakli bo'yicha - davlat, bank, tijorat;

tashqi savdo tizimida tutgan o'rni bo'yicha - eksportni kreditlash, importni kreditlashga;

muddati bo'yicha-qisqa muddatli-1 yilgacha, o'rta muddatli -1 yildan 5 yilgacha, uzoq muddatli -5 yildan ortiq muddatga;

ob'ekti bo'yicha - tovar va valyuta;

ta'minlanganligi bo'yicha - tovar-moddiy boyliklar bilan yoki hujjatlar bilan ta'minlangan kreditlarga bo'linadi.

Tovar shaklida beriladigan xalqaro kredit yoki firma kreditlari tijorat kreditining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida qo'llanilishi hisoblanadi va bir mamlakat firmasining tovari ikkinchi mamlakat firmasiga kreditga - to'lov muddati kechiktirilib sotiladi. Bu jarayon odatda tratta (o'tkazma veksel) bilan rasmiylashtiriladi. Eksportni kreditlashda davlat tomonidan subsidiya ajratilganligi uchun firma kreditlari bo'yicha foiz stavkalari odatda foiz stavkalarining bozor bahosidan past bo'ladi.

Xalqaro bank kreditlarining bank eksport kreditlari (xorijiy importyorlarga xususiy tijorat banklari, maxsus tashqi savdo banklari tomonidan beriladigan kredit), evrokredit (yirik tijorat banklari tomonidan evrovalyuta bozori resurslari

hisobidan evrovalyutada, 2 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatga, o'zgaruvchan foiz stavkada kreditlar berish) kabi turlari mavjud.

Xalqaro davlat krediti ikki tomonlama kelishuv asosida rivojlangan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga tovar yoki valyuta shaklida, foiz to'lash yoki foiz to'lamaslik sharti bilan, uzoq yoki qisqa muddatga beriladi.

Xalqaro valyuta - kredit tashkilotlarining kreditlari qisqa muddatli - 1 yilgacha (xalqaro valyuta fondining kreditlari), o'rta muddatli - 5 yilgacha (Jahon tiklanish va taraqqiyot banki) va uzoq muddatli - 20 yilgacha (Evropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqalar) kreditlar berishi mumkin Xalqaro valyuta-kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar xususiy tijorat banklaridan olingan kreditlardan (bu kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi yiliga 7-9% ni tashkil qiladi.) arzonga tushadi.

Sudxo'rlik krediti. Kreditning o'ziga xos shakli. Xorijda bu tarixan keng tarqalgan kredit bo'lib hisoblanadi. Amalda sudxo'rlik krediti Markaziy bank tomonidan tegishli litsenziyaga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan mablag'larni vaqtincha foydalanishga berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Sudxo'rlik krediti ssuda foizining yuqori stavkasi bilan xarakterlanadi (120-180%). Milliy kredit tizimi infrastrukturasi rivojlanishi va hamma turdagi potensial qarz oluvchilarga kredit resurslardan foydalanish huquqini ta'minlash natijasida sudxo'rlik krediti ssuda kapitali bozoridan yo'qoladi.

Xo'jalik sub'ektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish yo'llari.

Bilamizki, tijorat banklarida kreditlash jarayonini tashkil etishning asosiy mezonlaridan biri uning me'yoriy-huquqiy asosining qay darajada yaratilganidir. Respublikamiz tijorat banklari kredit faoliyatining huququy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan bank faoliyatiga tegishli qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar

Maxkamasining qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan me‘yoriy hujjatlar to‘plami hisoblanadi.

Kreditlash jarayoni O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining 4-moddasiga asosan quyidagi tamoyillar orqali amalga oshiriladi:

- ◆ qaytarilishi;
- ◆ foizligi;
- ◆ muddatliligi⁹.

Bundan tashqari kreditning ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilishi va ta‘minlanganligi ham tamoyil darajasida ahamiyatlidir.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va isloh qilish siyosati iqtisodiyotning barcha tarmoqlari qatori bank tizimida ham keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda.

Kreditlash jarayonini tashkil etish, korxona va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini tahlil qilish kabi masalalarni to‘g‘ri amalga oshirish kredit riski darajasini pasaytirishga, hamda bank kredit portfelini sifatini yaxshilanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Mustaqillik yillarining boshlarida tashkil qilingan bank tizimi bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos keluvchi bank tizimining boshlang‘ich pillapoyasi sifatida faoliyat boshlagan.

Banklar tomonidan ajratilgan kredit qo‘yilmalari qoldig‘i esa 30,5 foizga o‘shirib, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra 20,4 trln. so‘mni tashkil etdi (1.4.2-chizma).

Ajratilgan kreditlarning 85,8 foizi ichki manbalar hisobiga berilgan bo‘lib, tashqi qarzlarni asosan uzoq muddatga, asosan iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-

⁹ Ўзбекистон Республикасининг “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. Тошкент: Ўзбекистон, 1996 йил 25 апрел. Ўзбекистон банк тизимини ислоҳ қилиш ва эркинлаштириш бўйича қонунчилик ҳужжатлари тўплами. - Тошкент: Ўзбекистон, 2003. -Б. 30-46.

quvvatlash bo'yicha investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb qilinmoqda.

Banklarning umumiy kredit portfelida uzoq muddatli kreditlarning ulushi esa, 76,8 foizni tashkil qilib, ularning hajmi 2011 yildagiga nisbatan 30,7 foizga oshdi.

Yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit, jumladan, banklarning kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan foyda solig'i stavkalarining joriy etilganligi tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Banklarning investitsiya kreditlari ustuvor ravishda «2011-2015 yillarda sanoatni rivojlantirish», «2012 yilgi Investitsiya dasturi» hamda tarmoqlarni modernizatsiya qilish, mahalliyashtirish va hududlarni rivojlantirish davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlashga, kichik biznes va xususiy tadbikorlik sub'ektlari tomonidan minitexnologiyalarni sotib olishga yo'naltirilmoqda.

2012 yilda korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik va texnik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 5 760 mlrd. so'm yoki 2011 yildagiga nisbatan 1,3 barobarga ko'p investitsiya kreditlari ajratildi.

-chizma



Inqirozga qarshi choralar dasturi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi PF-4053-sonli "Iqtisodiyot real sektori

korxonalarini moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2008 yil 28 noyabrda

PF-4058-sonli "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarining qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi Farmonlarida belgilangan vazifalarning ijrosi izchil amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan jami 168 ta iqtisodiy nochor korxona bank balansiga qabul qilingan bo'lib, ushbu korxonalarda ishlab chiqarishni tiklash va modernizatsiya qilish maqsadida banklar tomonidan 388 mlrd. so'mlik investitsiyalar kiritildi hamda faoliyati tiklangan korxonalarning 120 tasi yangi mulkdorlarga 919,3 mlrd. so'mga sotildi. Bugungi kunda tijorat banklari balansidagi faoliyati tiklangan korxonalarni yangi mulkdorlarga sotish ishlari olib borilmoqda hamda 11 ta korxonada ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha texnologik liniyalarni tiklash, qurilish-ta'mirlash, yangi uskunalar o'rnatish va modernizatsiyalash bilan bog'liq ishlar amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda, banklar balansiga olingan holda faoliyati tiklangan korxonalarda jami 1,7 trln. so'mlik mahsulot (xizmat) ishlab chiqarildi va shundan, 480,0 mln. AQSH dollari miqdorida mahsulot eksport qilindi.

Respublika iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi me'yoriy hujjatlar mazmunini tubdan o'zgartirish, kreditlash ob'ektlariga, qarz hisob raqamlari va garov ta'minoti hamda boshqa moliya vositalariga yangicha yondoshuvlar ishlab chiqish ehtiyojini vujudga keltirdi.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tilishi va uning rivojlanishi respublika tijorat banklarida kredit berishning me'yoriy bazasini tubdan o'zgartirishni talab etdi.

Respublikada mulkchilikning turli shakllarini vujudga kelishi, kredit ta'minoti va kreditlash tartibidagi o'zgarishlar hisobga olinib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1996 yil 20 aprelda "Xo'jalik sub'ektlariga qisqa

muddatli kreditlar berish qoidalari” ishlab chiqildi. SHunga asosan barcha banklar qisqa muddatli kreditlar berish tartibini amalga oshira boshladi.

Qisqa muddatli kreditlash amaliyotida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998 yil 26 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi hududida xo‘jalik sub’ektlariga qisqa muddatli kreditlar berilishini tashkil etish qoidalari” yangi tahrirda ishlab chiqildi va shunga asosan tijorat banklari kreditlash jarayonini amalga oshirdi.

Tijorat banklarini kreditlash jarayonini tashkil etishdagi keyingi o‘zgarishlarga “Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni asos bo‘ldi¹⁰. Bu Farmonga asosan kreditlash borasida tijorat banklarining mustaqilligini oshirish, kreditlash jarayonini kengaytirish va takomillatirish masalalarini amalga oshirish ko‘zda tutildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir bankni siyosiy, iqtisodiy va ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyat yuritishi amalda mustaqil bo‘lishini talab etadi. Tijorat banklari shunga muvofiq o‘zining mustaqil kredit siyosatini va kreditlash nizomini ishlab chiqishdi. SHundan kelib chiqqan holda, hozirgi kunda tijorat banklari kreditlash jarayonini tashkil etib, uni yildan-yilga takomillashtirib bormoqdalar.

Tijorat banklarini kreditlash jarayonini samarali tashkil etish uchun, birinchi navbatda, ularning kredit siyosatini ishlab chiqish lozim. SHu maqsadda biz banklarning kredit siyosatiga qo‘yilgan talablar va tijorat banklari kredit siyosatining asosiy jihatlari amalda qanchalik to‘g‘ri ishlab chiqilganligini tahlil qilamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarining kredit siyosatiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi nizomida kredit siyosatini ishlab chiqishga nisbatan aniq talablar qo‘yilgan. Unda “Bankning kredit siyosati –

¹⁰ “Банк тизимини янада эркинлаштириш ва ислоҳ қилиш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Президент Фармони Тошкент, 2000. Ўзбекистон банк тизимини ислоҳ қилиш ва эркинлаштириш бўйича қонунчилик ҳужжатлари тўплами. - Тошкент: Ўзбекистон, 2003.

kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kredit portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir»¹¹ – deb aniq belgilab qo'yilgan. Buning ijobiy tomoni shundaki, kreditlash jarayonida risklar bo'lishining va kredit portfelini samarali boshqarish uchun kredit siyosati zarurligi alohida ta'kidlangan. Uning yana bir muhim tomoni shundaki, kredit siyosati kreditlash jarayoni va u bilan bog'liq risklar paydo bo'lishidan oldin ishlab chiqilishi va risklarni yuzaga kelishiga yo'l qo'ymasligi hamda kreditlash bo'yicha oldindan belgilab olingan qoida va echimlarni to'g'ri hal qilinishiga erishish lozimligini ko'zda tutadi.

Shuningdek, tijorat banklari balansiga olingan iqtisodiy nochor korxonalarni tiklash, ular bazasida yangi tashkil etilgan korxonalarni salohiyatli investorlarga sotish ishlari samarali amalga oshirilib kelinmoqda.

Ushbu maqsadda barcha etakchi tijorat banklar qoshida qator investitsion va injiniring kompaniyalari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qaroriga asosan, moliya-bank faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, zamon talablari va xalqaro normalar hamda standartlarga muvofiq holda amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda yangi qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlar qabul qilish, shuningdek kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik borasida oldini olish choralari ko'rish yo'li bilan tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o'sishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlash respublikaning moliya-bank tizimini isloh qilish va barqarorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarorining 1-

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг “Тижорат банкларининг кредит сиёсатига қўйиладиган талаблар тўғрисида”ги 905-сонл низоми, 2000 йил 21 март.

ilovasi 32-bandida, bank tavakkalchiliklarini boshqarishda chuqur omilli tahlilni amalga oshirishning aniq mexanizmini joriy qilish, zaxiralarni shakllantirish, kredit portfelini diversifikatsiyalashni ko'zda tutgan holda banklar aktivlari sifati monitoringini takomillashtirish, shuningdek muammoli qarzdorlik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ogohlantiruvchi choralar qabul qilish belgilangan. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida 2011 yil 10 sentyabrda Markaziy bank Boshqaruvining «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish Tartibiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 26/1-sonli qarori qabul qilindi. Markaziy bank Boshqaruvining ushbu qarori 2011 yil 22 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 632-2-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilib 2011 yilning 2 oktyabrida kuchga kiradi. Markaziy bankning «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish Tartibi»ga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarda, jumladan quyidagilar ifodalangan.

Markaziy bankda tijorat banki aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralanadigan majburiy zaxira depoziti tashkil qilindi hamda ushbu majburiy zaxira depozitiga tijorat banklari o'z aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi shakllantirilgan maxsus zaxiralar summasiga teng miqdordagi mablag'larni vakillik hisobvaraqlaridan o'tkazib borish talabi qo'yildi. Majburiy zaxira depozitiga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar miqdori har oyning 10, 20-sanalari va oy yakuni bo'yicha shakllantirilgan aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira summasidan kelib chiqib qayta hisob-kitob qilinadi.

Hisob-kitob natijalariga ko'ra, uch ish kuni mobaynida tijorat banklari maxsus zaxiralar summasiga etmayotgan miqdordagi mablag'larni majburiy zaxira depozitiga o'tkazishi yoki tijorat banklarining asoslantirilgan murojaatiga ko'ra Markaziy bank tomonidan ortiqcha mablag'lar banklarga qaytariladi.

SHuningdek, yangi kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, Markaziy bank tijorat banklari kredit portfelini tahlil qilgan holda, tijorat banklariga qo'shimcha ravishda aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar shakllantirish yuzasidan ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar yuborishi mumkin. O'z navbatida, agar tijorat banklari yuqorida keltirilgan talablariga amal qilmagan taqdirda, Markaziy bank majburiy zaxira depozitiga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'larni bankning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'idan undirib oladi va bankka nisbatan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunining 53-moddasiga muvofiq tegishli chora va sanksiyalarni qo'llaydi. Bundan tashqari, yangi kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarga ko'ra, bank tomonidan ajratilayotgan barcha kreditlar bo'yicha to'lovlar kredit shartnomasining butun amal qilish muddatiga taqsimlangan holda bo'lib-bo'lib to'lanishi belgilab qo'yildi. Ushbu qoida banklarda muammoli kreditlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ogohlantiruvchi belgi sifatida xizmat qiladi. SHu bilan birgalikda, kiritilgan o'zgartirishlar ko'ra, tijorat banklari o'z aktivlari sifatini tasniflash bo'yicha bir qator yangiliklar kiritildi. Jumladan, eski qoidalarga ko'ra, 30 kungacha to'lov muddati o'tgan kreditlar «standart», 90 kungacha to'lov muddati o'tgan kreditlar «substandart» va 180 kundan ortiq kunga to'lovi kechiktirilgan kreditlar «umidsiz» sifatida tasniflangan bo'lsa, yangi tartibga ko'ra shartnoma muddatida to'lanmagan va grafik bo'yicha asosiy qarz va foizlar bo'yicha oraliq to'lovlar 180 kundan kechiktirilgan barcha kreditlar «umidsiz» sifatida tasniflanadi. Bundan tashqari, sud jarayonidagi aktivlar, qarzdorning moliyaviy holati yomonligi va to'lovga qobiliyatsizligi sababli to'lov muddati uzaytirilgan aktivlar hamda bank faoliyatida foydalanilmaydigan, muammoli kreditlarni qoplash uchun olingan mulklar, ular bank balansiga olingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan aktivlar ham «umidsiz» sifatida tasniflanadi. Mazkur qoidalarining joriy qilinishi tijorat banklari aktivlar sifatining yanada oshishiga, muammoli kreditlarni paydo bo'lishini dastlabki vaqtlarda aniqlashtirishga imkoniyatlarni yaratadi, pirovardida tijorat banklarining

omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini yanada himoya qilinishini ta'minlaydi.

9-MAVZU: AYLANMA MABLAG‘LAR VA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASH USULLARI

1. Aylanma mablag‘lar tushunchasi va uning tarkibi. Aylanma mablag‘larni tashkil etish manbalari va kreditning roli.
2. Kreditga layoqatlilik tushunchasi.
3. Mijozning kreditga layoqatliligining asosiy va qo‘shimcha ko‘rsatkichlari.
4. Biznes reja va uni kreditlash jarayonidagi o‘rni.
5. Tijorat banklari tomonidan aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun beriladigan kreditlarni rasmiylashtirish tartibi.
6. O‘zbekistonda korxonalarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda tijorat banklarining roli.

1.Aylanma mablag‘lar tushunchasi va uning tarkibi. Aylanma mablag‘larni tashkil etish manbalari va kreditning roli.

Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va shu asosda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tib borishda aylanma mablag‘lar muhim o‘rin tutadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, pul muomalasini barqarorlashtirish asosida milliy pul birligini mustahkamlashning asosiy yo‘llaridan biri - ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni takomillashtirishdan iborat. Ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va uning samaradorligini oshirish, xom ashyo, materiallar, yoqilg‘i, energiya va boshqa resurslardan to‘g‘ri foydalanish, ularni ishlab chiqarishda qo‘llash, iqtisodlilik tamoyiliga rioya qilish, material xarajatlarini kamaytirish, arzon, lekin sifatli materiallarni ishlab chiqarishda qo‘llash yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. SHuni ta’kidlashimiz lozimki, ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning samaradorligini oshirish avvalom bor aylanma mablag‘lardan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq.

Har bir xo'jalik o'z ishlab chiqarishini tashkil qilish, ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun ma'lum qiymatni avanslashtirishi kerak. Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun esa avanslashtirilgan qiymat ishlab chiqarish va muomala sferalarida doimiy ravishda aylanib turishi zarur. Avanslashtirilgan qiymat mehnat vositalari va predmetlarini sotib olishga sarflanishi mumkin. SHu jihatdan ishlab chiqarish vositalarini ikki shakldagi aktivlarga, ya'ni uzoq muddatli va aylanma aktivlarga bo'lish mumkin. Uzoq muddatli aktivlar ishlab chiqarishda uzoq yillar davomida qatnashadi. Eskirib borishi bilan uzoq muddatli aktivlar o'z qiymatini qisman yangi yaratilayotgan mahsulotga o'tkazib boradi.

Aylanma aktivlar uzoq muddatli aktivlardan farq qilib, ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashadi va yaratilgan mahsulotga o'z qiymatini to'la o'tkazadi, shakli o'zgaradi.

Aylanma aktivlar aylanish jarayonida uch bosqichni bosib o'tadi: pul, ishlab chiqarish va tovarlarni sotish bilan bog'liq bosqichlar.

Aylanishning birinchi bosqichida ishlab chiqarish vositalari sotib olinadi (P-T(i/v)). Korxonalarning ajratilgan pul fondlari ishlab chiqarishning ashyoviy omiliga aylanadi. Birinchi bosqichning xususiyati shundaki, bu bosqichda ba'zi korxonalar o'z mablag'lari etarli bo'lmagan hollarda qarzga bank kreditini oborotga jalb qilishlari mumkin.

Aylanma aktivlar aylanishning ikkinchi bosqichi - ishlab chiqarish bosqichi (T-i/ch-T') bo'lib, bunda ishlab chiqarish omillari (ish kuchi va ishlab chiqarish vositalari) qo'shilishi yuzaga keladi va bu jarayon aylanma aktivlarilari aylanishi iqtisodiy mohiyatini yanada chuqurroq ifodalashga yordam beradi. CHunki, ikkinchi bosqich asosiy va hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda yangi qiymatga ega bo'lgan yangi mahsulot yaratiladi. Ikkinchi bosqich, ishlab chiqarishda samaradorlikka erishish omillariga boy bo'lgan bosqich bo'lib, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun: ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan to'liq va o'z vaqtida ta'minlash; material resurslarini iqtisod qilgan holda

ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini arzonlashtirish; mehnat resurslaridan to'g'ri foydalanish zarur.

Aylanma aktivlar aylanishining uchinchi bosqichi, (T'-P')da yangidan yaratilgan mahsulot realizatsiya qilinadi. Oxirgi bosqichda aylanma mablag'lar yana boshlang'ich shakl - pul shakliga o'tadi va bu esa aylanish jarayonini boshidan boshlash imkonini beradi.

Aylanma aktivlar aylanishining uchala bosqichi bir-biri bilan chambarchas bog'liq va ularni o'rganish katta ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tashkil qilish, uning uzluksizligini ta'minlash, aylanish bosqichlari bo'yicha aktivlarni to'g'ri taqsimlash ishlab chiqarishda samaradorlikka, korxonalar moliyaviy faoliyatining yaxshi natijalarga erishishiga olib kelishi mumkin.

Fondlar aylanishining asosiy shakli - pul shakli ishlab chiqarishni tashkil qilishda asosiy rol o'ynaydi. SHuning uchun ular aylanishining asosiy shakli, jarayon boshlanishida pul mablag'larini avanslashtirish va jarayon tugashida aktivlarning pul shakliga o'tishidir. Haqiqatda pul mablag'larini avanslashtirmasdan turib fondlar aylanishini boshlash mumkin emas va shundan kelib chiqqan holda boshqa bosqichlar o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi.

Korxonalarning avanslashtirilgan mablag'lari natural-ashyoviy shaklda va boshqa shaklda, ya'ni qiymat shaklida bo'lishi mumkin. Aktivlarning qaysi bir turini moslashtirishga qarab, ular asosiy va aylanma mablag'larga bo'linadi.

Avanslashtirishning xususiyati shuki, mablag'lar korxona oborotida doimiy ravishda bo'lib turadi va aktivlarning aylanishiga qarab o'z shaklini o'zgartirib turadi. Aktivlarning aylanishi davomida aylanma mablag'lar pul shaklidan ishlab chiqarish zahiralar shakliga, ishlab chiqarish zahiralar shaklidan tugallanmagan ishlab chiqarish (tayyor bo'lmagan mahsulot)ga, tugallanmagan ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot shakliga o'tadi. Oxirgi bosqichda mahsulot sotiladi, ya'ni tovar shaklidan pul shakliga o'tadi va jarayon boshida avanslashtirilgan mablag'lar kelib tushgan tushum hisobidan tiklanadi. Aylanma aktivlari va ularning iqtisodiy mohiyati to'g'risida oxirgi yillar ichida birorta ham yirik iqtisodiy adabiyot yozib, chop qilingan emas. SHuning uchun aylanma aktivlar

to'g'risidagi ba'zi bir munozara bo'yicha 80-90 yillar adabiyotlarigagina murojaat qilishimiz mumkin.

Aylanma aktivlar iqtisodiy kategoriya sifatida bir necha xususiyatlarga ega. SHulardan biri - aylanma ishlab chiqarish va muomala aktivlari uchun avanslashtirilgan qiymatlarni bir iqtisodiy kategoriya - aylanma aktivlar kategoriyasiga birlashishidadir. Ba'zi iqtisodchilar aylanma aktivlarni iqtisodiy kategoriya sifatida qaramaydilar. Ularning fikricha, aylanma fondlarga iqtisodiy kategoriya sifatida tovar ishlab chiqarish jarayonining asosini tashkil qiladi. Aylanma aktivlarning yana bir xususiyati - ularning tashkil qilinishi va ulardan foydalanishdir.

Aylanma aktivlarning aylanishini boshlash uchun avvalom bor avanslashtirilgan qiymatga ega bo'lish lozim.

Aylanma aktivlar korxona balansining aktiv qismida ko'rsatilib quyidagi tarkibiy guruhlariga bo'linadi.

I guruh. Tovar-moddiy boyliklar, bularga:

1. ishlab chiqarish zahiralar;
2. tayyor mahsulot;
3. tovarlar kiradi.

II guruh. Ishlab chiqarish xarajatlari, bularga:

1. tugallanmagan ishlab chiqarish;
2. kelgusi davr xarajatlari va boshqalar kiradi.

III guruh. Pul mablag'lari, bularga:

1. g'aznadagi pul mablag'lari;
2. valyuta mablag'lari;
3. hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari;
4. boshqa schyotlardagi pul mablag'lari kiradi.

IV guruh. Debitorlar, bularga:

1. xaridor va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar;
2. bo'nak to'lovlari;
3. byudjet bilan hisob-kitoblar;

4. xodimlar bilan hisob-kitoblar;
5. shu'ba korxonalar bilan hisob-kitoblar;
6. uyushma korxonalar bilan hisob-kitoblar;
7. ta'sischi bilan hisob-kitoblar;
8. boshqa debitorlar kiradi.

Aylanma aktivlar o'zining qaysi tarmoqqa qarashli ekanligiga qarab aylanishi davrida ma'lum xususiyatlarga ega bo'ladi.

Aylanma aktivlarning aylanish davridagi xususiyati xo'jalik sub'ektining qaysi tarmoqqa taalluqli ekanligiga bog'liq. Mavsumiy tarmoqlar (qishloq xo'jaligi, tayyorlov, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlar)da aylanma aktivlarning aylanishi bir tekisda kechmaydi.

Chunki bu tarmoqlarga aylanma aktivlarga bo'lgan ehtiyoj yilning fasliga, mavsumga qarab turlicha bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligida qish, bahor oylarida aylanma aktivlarga bo'lgan talab oshishi, kuzga kelib aylanma aktivlarga bo'lgan talab kamayishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi va shunga o'xshagan boshqa tarmoqlarda aylanma aktivlarga bo'lgan talab bank kreditini jalb qilish yo'li bilan qoplanishi mumkin.

Mavsum bilan bog'liq bo'lmagan tarmoqlar (sanoat, savdo, ta'minot va boshqalar)da aylanma aktivlarning aylanishi (mahsulot sotib olish, ishlab chiqarish va sotish jarayonini amalga oshirish) bir maromda kechishi mumkin. Shunga qaramasdan nomavsumiy tarmoqlarda ham materiallarning mol etkazib beruvchidan kelib tushishda, tovar ortiqcha yoki kam kelib tushganda, transport bo'yicha qiyinchiliklar bo'lganda, import mollar ko'p miqdorda kelib tushganda, tayyor mahsulotni sotish jarayoni va boshqalarda aylanma mablag'larga bo'lgan talab bank krediti hisobidan qoplanishi mumkin.

Korxona va tashkilotlar o'zida mavjud zahira va harajatlar summasini xom cho't qilish asosida o'tgan davrda mavjud mablag'lar va kutilayotgan o'zgarishlarni hisob-kitob qilish yo'li bilan kreditga bo'lgan talabni aniqlaydilar.

Xo'jalik sub'ektlarining aylanma aktivlari quyidagi manbalar hisobidan tashkil qilinadi:

1. Korxonaning o'z aylanma mablag'lari.
2. Bank kreditlari.
3. Kreditor qarzlari
4. Boshqa manbalar

Xo'jalik sub'ektlari ishlab chiqarish va tovarlarni sotish jarayonini normal olib borish uchun tovar-moddiy boyliklar va ishlab chiqarish xarajatlarining minimal miqdorida o'z aylanma mablag'lariga ega bo'lishi kerak.

Korxonalarning o'z aylanma mablag'lari quyidagi manbalardan tashkil topadi:

- a) davlat korxonalarida byudjetdan ajratmalar hisobidan;
- b) yuqori tashkilotlarning ajratmalari;
- v) ta'sischi larning pay badallari;
- g) aksiyador korxonalarda aksiyalar chiqarish va sotish yo'li bilan vujudga keladigan manbalar hisobidan.

Korxonaning o'z aylanma mablag'lari uning kapitalida o'z ifodasini topadi. Ustav kapitali asosan foyda hisobidan yoki qo'shimcha aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan ko'paytirib boriladi. Korxonaning o'z kapitalining miqdori qancha yuqori bo'lsa, uning faoliyati shunchalik boshqa kreditorlarga bog'liq bo'lmaydi, ya'ni o'z aylanma mablag'larining yuqori salmog'i korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqilligidan dalolat beradi.

Aylanma aktivlarning ikkinchi manbasi - bank krediti va boshqa qarz mablag'lari hisoblanadi. Korxonaning normal faoliyatini olib borish uchun o'z aylanma mablag'lari etarli bo'lmasa, oborotga qisqa muddatli bank kreditlari jalb qilinishi mumkin. Xo'jaliklar faoliyatida bunday ahvol mavsumiy va vaqtinchalik zahiralar va xarajatlarni qoplash, akkreditiv ochish va boshqa hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida va boshqa shunga o'xshash holatlarda yuzaga keladi.

Xo'jalik sub'ektlarining aylanma aktivlarini tashkil qilishda kreditning rolini quyidagilar bilan ifodalash mumkin:

1. Kreditning xo'jalik oborotida ishtirok etishi aylanma mablag'larni iqtisod qilishga olib keladi.

2. Kredit xo‘jaliklar faoliyatida uchrab turuvchi mavsumiy ehtiyoj, boshqa holatlar bilan bog‘liq bo‘linishlarning oldini olishga yordam beradi.

3. Kredit ishlab chiqarish, tayyorlov va sotish jarayonini tezlashtiradi va hajmini oshiradi.

4. Kredit o‘z vaqtida hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

5. Bank korxonalarga kredit berish yo‘li bilan ularning faoliyatini yaxshilanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Aylanma aktivlarning uchinchi manbasi - kreditor qarzlaridir.

Kreditor qarz shaklidagi mablag‘lar korxonaga tegishli bo‘lmagan mablag‘lar bo‘lsa-da, ular korxona oborotida doimo ishtirok etadi. SHu tufayli ular aylanma aktivlarning manbai hisoblanadi. Kreditor qarzlariga quyidagilar kiradi:

1. Mol etkazib beruvchilar bilan hisoblar.
2. Byudjet bo‘yicha qarzlar.
3. Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzlar.
4. Ijtimoiy sug‘urta va ta’minot bo‘yicha qarzlar.
5. Mulkiy va shaxsiy sug‘urta bo‘yicha qarzlar.
6. Byudjetdan tashqari to‘lovlar bo‘yicha qarzlar.
7. SHu‘ba korxonalariga qarzlar.
8. Uyushma korxonalariga qarzlar
9. Boshqa kreditorlar.

Aylanma aktivlarning boshqa manbalariga moddiy rag‘batlantirish fondi va boshqa fondlar qoldiqlari kirishi mumkin. Korxonalarning moliyaviy ahvoli ijobiy bo‘lsa, u o‘z vaqtida bank kreditini to‘lashi, mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitob qilishi, ish haqini to‘lashi, byudjetga to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishi mumkin.

Korxonaning moliyaviy ahvoli yomonlashganda to‘lanmagan qarzlar hosil bo‘ladi. To‘lanmagan qarzlar:

- a) bank kreditlari bo‘yicha;
- b) mol etkazib beruvchilarga o‘z vaqtida to‘lanmagan qarzlar;

v) ish haqi bo'yicha to'lanmagan qarzarlar va boshqalar bo'yicha yuzaga keladi.

To'lanmagan qarzlarning yuzaga kelish sabablari korxona ko'zlagan rejalarining amalga oshirilmaganligi, aylanma aktivlardan foydalanishida samaraga erisha olmaslik va boshqalar bo'lishi mumkin.

Aylanma aktivlardan foydalanishda bo'ladigan kamchiliklar:

1. Korxonalar o'z aylanma mablag'lari bilan etarli ta'minlanmagan sharoitida;
2. Aylanma aktivlar aylanishi sekinlashganda;
3. Korxonada talabdan ortiqcha tovar moddiy boyliklar zahiralari yig'ilib qolganda;
4. Aylanma aktivlar ko'zda tutilganidan boshqa maqsadlarga ishlatilganda yuzaga keladi

Korxona o'z aylanma aktivlarining holatini, ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilib borish lozim.

Aylanma aktivlardan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari bo'lib:

- a) aylanma aktivlarning kunlarda aylanishi;
- b) aylanma aktivlarning aylanish koeffitsienti;
- v) Korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- g) Korxona oborotida mavjud bo'lgan o'z aylanma mablag'lari kabi asosiy ko'rsatkichlar va bir necha qo'shimcha ko'rsatkichlar mavjud.

1. Aylanma mablag'(aktiv)larning kunlarda aylanishi (Ak.a.) aylanma mablag'lar bir marta aylanishi (ya'ni P-T...i/ch...T'-P'gacha) uchun necha kun ketganligini tavsiflaydi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$Ak.a. = \frac{Ao'.q. \times K}{S};$$

Bu erda: Ao'.q. - Aylanma mablag'(aktiv)larning o'rtacha qoldig'i

K - hisoblanayotgan davrning kunlar soni (90 kun, 180 kun, 360 kun)

S - sotuv hajmi.

Aylanma aktivlarning kunlarda aylanish sonining qisqarishi ular aylanishining tezlashuvidan, bu o'z navbatida sotuv hajmi va foydaning ko'payishidan, aksincha holat esa korxonaning moliyaviy ahvolidan tangligidan dalolat beradi.

2. Aylanma aktivlarning aylanish koeffitsienti (K_a) ma'lum bir davr (1 yil, 6 oy, 1 oy) ichida aylanma aktivlari necha marta aylanganidan dalolat beradi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_a = \frac{S}{A_{o'.q.}};$$

Aylanma aktivlar ma'lum bir davr oralig'ida qancha ko'p aylansa, uning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi, ya'ni shuncha marta daromad olishga erishish mumkin. Har bir xo'jalik sub'ekti o'zida mavjud bo'lgan aylanma mablag'larning tezroq aylanishini ta'minlashi lozim. Bu esa korxona tushumining ko'payishiga, uning mol etkazib beruvchilar, byudjet, bank va boshqa sub'ektlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga imkon yaratadi.

3. Aylanma aktivlarning samaradorligini ifodalovchi keyingi ko'rsatkich - korxonaning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi yoki muxtoriylik koeffitsienti (K_m)dir. Bu ko'rsatkich korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqillik darajasini ko'rsatib, o'z mablag'lari manbalarini korxona balansining jami passiviga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

$$K_m = \frac{O'zMM}{B_p};$$

O'zMM - o'z mablag'lari manbasi (balans 390 qator)

Bp - balans passivi (550- qator)

Korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi 30 foiz dan kam bo'lmashligi lozim. Agar bu ko'rsatkich 60 foizdan yuqori bo'lsa, kreditlash bo'yicha risk minimal bo'lishi mumkin.

4. Korxona oborotida mavjud bo'lgan o'z aylanma mablag'lari miqdori korxonaning likvidligini ifodalashi mumkin.

Bu ko'rsatkich (HMA) quyidagicha aniqlanadi:

$HMA_{QO'zMM} = Ua$

Bu erda

Ua - uzoq muddatli aktivlar (110 balans qatori - 350 b.q.) (qoplanmagan zararlar).

Agar korxonaning uzoq muddatli aktivlari uning o'z mablag'lari manbasidan yuqori bo'lsa, bunday korxonalar «nolikvid korxonalar» deyiladi va ularga kreditlar berilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, aylanma mablag'aktivlari xo'jalik sub'ektlari faoliyatining asosi bo'lib, bank tomonidan beriladigan kreditlarning aksariyat qismi aylanma aktivlarga yo'naltiriladi. SHu tufayli har bir xo'jalik sub'ekti aylanma aktivlarini to'g'ri tashkil qilmog'i, ulardan foydalanishda samaradorlikka erishmog'i lozim.

2.Kreditga layoqatlilik tushunchasi.

Mijozning **kreditga layoqatliligi** deganda qarz oluvchining olgan qarzini (asosiy qarzi va uning foizini) to'la va o'z vaqtida qaytaraolish qobiliyatini tushunamiz. Jahon va mamlakatimiz bank amaliyotida mijozning kreditga layoqatliligini belgilovchi quyidagi mezonlar o'rnatilgan:

- mijoz xarakteri (fe'l-atvori);
- mablag'ni qarz olish qobiliyati;
- joriy faoliyat davomida qarzni uzish uchun mablag' ishlab topish qobiliyati;
- mijoz kapitali;

- kreditning ta'minlanganligi;
- kredit operatsiyasini bajarish chog'idagi sharoitlar;
- qarz oluvchi faoliyatining qonuniy jihatlarini nazorat qilish darajasi.

Mijozning fe'l-atvori deganda uning yuridik shaxs, yoxud menejer sifatida o'zini ko'rsata olish, qarzni o'z vaqtida qoplashdagi mas'uliyati, kreditni olishdan maqsad va uning bank kredit siyosatiga mosligini aniq bilishi kabilar tushuniladi. Yuridik shaxs sifatida o'zini ko'rsata olishi esa mijozning yuritayotgan faoliyatini mukammal bilishi, o'z korxonasidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning mazkur tarmoqning o'rtacha ko'rsatkichlariga mos kelishligi, ishbilarmonlar (ishlab chiqaruvchilar va etkazib beruvchilar, kreditorlar) doirasidagi bilimdonligi kabilar bilan belgilanadi.

Menejer sifatida o'zini ko'rsata olishi mijozning quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

- o'z kasbini mukammal bilishi (ma'lumoti, ish tajribasi);
- axloqi;
- shaxsiy va oilaviy moliyaviy holati;
- bank bilan rahbarlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardagi o'rni.

Mijozning qarz olish qobiliyati uning kredit olish bo'yicha buyurtmaga va kredit shartnomasiga imzo chekish huquqiga yoki vakolatiga ega ekanligi, o'zaro kelishuv va bitimlarni tuzish yoshiga etganligida namoyon bo'ladi.

Mijoz kapitalini baholashda quyidagi ikkita mezonga e'tibor beriladi:

- ustav fondining minimal darajasiga (aksioner kapitaliga) nisbatan qo'yiladigan talabga mijoz kapitalining javob bera olishi, uning etarliligi va moliyaviy leveraj koeffitsientlari darajalari;
- kreditlanayotgan operatsiyaga o'z kapitalini qo'yish darajasi. Bu ko'rsatkich bank bilan qarz oluvchi o'rtasida riskning taqsimoti to'g'risida dalolat beradi.

O'z kapital qanchalik ko'p qo'yilsa, shunchalik qarz oluvchini kredit riski omillarini sinchkovlik bilan kuzatishga majbur etadi.

Kreditning ta'minlanganligi deganda qarz oluvchi aktivining qiymati va qarzni uzish bo'yicha aniq ikkilamchi manbalar (garov, kafolat, sug'urta kabilar)ning kredit shartnomasida o'z aksini topganini tushunamiz. Agar aktiv qiymati va qarz majburiyatlarining nisbati qarz oluvchi bankrot bo'lganligi to'g'risida xabar qilgan holda bank ssudasini uzish uchun ahamiyatli bo'lsa, aniq ikkilamchi manbalarning sifati esa moliyaviy tanglik holatida mijozning o'z majburiyatlarini bajarish kafolatini ta'minlaydi. Garov sifati, kafolatning puxtaligi, sug'urta ham bank mijozlari va pul oqimi kamayib ketganda, bank balansida likvidlik muammosi tug'ilganda yoki kapitalning taqchilligi sezilgan hollarda o'ta muhimdir.

Kredit operatsiyasini bajarish chog'idagi sharoitlarga mamlakatdagi va uning mintaqalaridagi, shuningdek, tarmoqdagi iqtisodiy holat va siyosiy omillar kiradi. Bu sharoitlar bankning tashqi riski darajasini belgilaydi. Aynan shularga asoslanib pul oqimi, balansning likvidligi, kapitalning etarlilik darajasi, qarz oluvchining menejerlik mahorati kabilarga baho beriladi.

Nihoyat, mijozning kreditga layoqatliligini belgilovchi so'nggi mezon, ya'ni **qarz oluvchi faoliyatining qonuniy jihatlarini nazorat qilish darajasi** bankirni quyidagi savollarga javob olishga undaydi:

- qarz oluvchining kredit olishi va kredit tadbirlarini amalga oshirishi uchun huquqiy va me'yoriy asoslari mavjudmi?
- qonunchilikda kutiladigan ehtimoliy o'zgarishlar (masalan, soliqda) qarz oluvchining faoliyati natijalariga qanchalik ta'sir o'tkazadi?
- qarz oluvchining ssuda, kredit olishi bo'yicha tuzgan biznes-rejasida, shartnomada ko'rsatgan talabnomasi qanchalik darajada kredit siyosatiga mos keladi?

Qayd etilgan mezonlar mijozning kreditga layoqatliligi va uning mohiyatini baholash usullarini aniqlashga yordam beradi. Bunday usullar qatoriga quyidagilar kiradi:

- riskni baholash;
- menejmentni baholash;

- moliyaviy koeffitsientlar asosida mijozning moliyaviy barqarorlik darajasini baholash;
- pul oqimini tahlil qilish;
- mijoz to'g'risida ma'lumotlar yig'ish;
- mijozning ish faoliyatini kuzatish va h.k.

Garchi baholash usullari va mezonlar yagona tarzda qo'llanilsada, yuridik va jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligini tahlil qilishda ularning kichik, o'rta va yirik ekanliklariga alohida e'tibor beriladi. SHunga binoan u yoki bu usullarni kompleks holda qo'llash zaruriyati tug'iladi.

3.Mijozning kreditga layoqatliligining asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlari.

Korxonalarning kreditga layoqatliligini aniqlashda turli xil ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ko'rsatkichlar soni chegaralanmagan, ya'ni qarz oluvchining faoliyatidan kelib chiqqan holda, xar bir tijorat banki uni o'zi mustaqil aniqlaydi. Banklar orqali qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholash turlicha bo'lishi mumkin, lekin ularning hammasi ma'lum bir andozaga tushirilgan moliyaviy koeffitsientlardan foydalanadilar. Ularga:

- qoplash koeffitsienti;
- likvidlilik koeffitsienti;
- mustaqillik(muxtoriylik) koeffitsienti, ya'ni o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti kiradi.

Likvidlilik mijozning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishini (qoplanishini) bildiradi. Likvidlilik va qoplash koeffitsientlari qarz oluvchining balans likvidliligini, ya'ni passivdagi majburiyatlarni qoplash uchun aktivdagi pul mablag'larining etarlilik imkoniyatlarini tasvirlaydi.

O'qoplash va likvidlilik koeffitsientlari balansning aktiv va passivlarini solishtirish yuli bilan hisoblanadi. Likvid mablag'lar o'zining tez pulga aylanishi darajasiga qarab 3 guruxga bo'linadi.

Birinchi guruh likvid mablag'larga:

1. pul mablag'lari (balansning 170-qatori), jumladan hisob-kitob varag'i;

2. valyuta hisob varag'idagi (180 - q),

3. boshqa hisob varaqlardagi va kassadagi pul mablag'lari (190 - q) kiradi;

Ikkinchi guruh likvid mablag'lariga tez pulga aylanadigan talablar(bu talablarning muddati odatda 3 oydan oshmasligi lozim):

- ishonchli debitorlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblar (200-220 - q);

- muddati 3 oygacha bo'lgan avans to'lovlar (230 - q);

- byudjet bilan hisob-kitoblar (240 - q);

- korxonalar bilan qisqa muddatli xarakterga ega bo'lgan boshqa operatsiyalar (260-270 - q) ;

- ishchi- xizmatchilar bilan hisoblashishlar (250- q);

4. ta'sischi hamda boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar (280-290 - q);

Ikkinchi guruh likvid mablag'larning aksariyat qismini yaqin 3 oy ichida to'lanish lozim bo'lgan debitorlar tashkil qiladi. SHuning uchun kredit berishda bu likvid aktivlarning haqiqatda 3 oy ichida pulga aylanish ehtimolini chuqur tahlil qilish lozim.

1. 3 oy da to'lanishi lozim bo'lgan veksellar;

2. xorijiy korxonalar bilan hisob-kitoblar;

Uchinchi guruh likvid mablag'lariga tez sotiladigan tovar moddiy qimmatliklarining zahiralar bo'yicha talablari kiradi:

- ishlab - chiqarish zahiralar va kelgusi davr harajatlari (120 - q);

- tugallanmagan ishlab-chiqarish (130 - q);

- tayyor maxsulot (140 - q);

- tovarlar (150 - q);

- boshqa zahiralar va harajatlar kiradi.

Qisqa muddatli majburiyatlarni aniqlashda:

a) o'zgartirishlar kiritmasdan quyidagi ko'rsatkichlar olinadi:

- qisqa muddatli qarzlar (420 - q);

- qisqa muddatli kreditlar (430- q);

- buyurtmachilardan tushgan avanslar (440 - q);

Kreditorlar:

- mol etkazib beruvchilar oldidagi qarzlari (450 - q);
- byudjetga qarzlari (460 - q);
- ish haqi bo'yicha qarzlari (470 - q);
- ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzi (480 - q);
- mulk va shaxsiy sug'urtalash bo'yicha qarzi (490 - q);
- byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzi (500 - q);
- sho'ba korxonalar bo'yicha qarzlari (510 - q);
- uyushma korxonalar bo'yicha qarzlari (520 - q);
- boshqa kreditorlar (530 - q);

b) o'zgartirishlar kiritilib quyidagi ko'rsatkichlar olinadi (yaqin uch oy muddatga):

- uzoq muddatli qarzlari (400 - q);
- uzoq muddatli kreditlar (410 - q);

YUqoridagilardan kelib chiqqan holda pul mablag'lari $=170+180+190$ balans qatorlari.

Tez sotiladigan talablar $=200+220+230+240+250+260+270+280+290$ balans qatorlari.

Tez sotiladigan zaxiralar $=120+140+150$ balans qatorlari.

Qisqa muddatli majburiyatlar $=420+430+440+450+460+470+480+490+500+510+530+(400+410$ o'zgartirishlar bilan) balans qatorlari.

Uchinchi guruh likvid mablaglarini tahlil qilganda, tovar – moddiy boyliklarning haqiqatda ishlab chiqarish uchun zarurligiga e'tibor berish lozim. Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini hisobga olganda aylanma aktivlar tarkibiga :

5. Korxona omborida turib qolgan, ishlab chiqarish uchun zrrur bo'lmagan tovar moddiy boyliklar ;

6. Ishlab chiqarishdan olib tashlangan tovarlar;

7. Talab bo'lmagan ,sifatsiz tovar-boyliklar,

8. O'iyin sotiladigan tovarlar va boshqalar qo'shilmasligi kerak.

Agar mijozning likvid aktivlari uning qisqa muddatli majburiyatlaridan ikki barobar va undan ortiq, bo'lsa, mijoz moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi.

Mijoz balansi va boshqa moliyaviy hujjatlarga asosan kreditga loyqatlilik ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Likvidlilik koeffitsienti (Kl) quyidagicha hisoblanadi:

$$Kl = \frac{\text{1,2 va 3 guruh likvid mablag'lar}}{\text{qisqa muddatli qarz majburiyatlari}}$$

Qoplash koeffitsienti (Qp)ni hisoblashda barcha likvid mablag'larning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati olinadi. O'plash koeffitsienti likvidli aktivlar qanchalik darajada qisqa muddatli majburiyatlarni qoplay olishi mumkinligini ifodalaydi. Agar korxonaning likvid aktivlari uning qisqa muddatli majburiyatlarini 2 va undan ortiq barobar qoplasa, sub'ektning moliyaviy ahvoli shunchalik barqaror hisoblanadi. Ba'zi hollarda ho'jalik sub'ektlari faoliyatida ehtiyojdan yoki normativdan ortiqcha tovar moddiy boyliklar (ayniqsa mavsumiy korxonanalarda) zahiralarining yuzaga kelishi yaxshi ishlaydigan korxonalarda ham qoplash koeffitsientining past bo'lishiga olib kelishi mumkin. Lekin qoplash koeffitsienti 1dan kam bo'lmasligi lozim. O'plash koeffitsientining 1 ga tengligi likvid aktivlar kreditlar va zayomlar hisobidan tashkil qilinganligi va likvid aktivlarni tashkil qilishda korxonaning o'z mablag'lari ishtirok qilmaganligini ko'rsatadi. O'achonki qoplash koeffitsienti 1dan kichik bo'lsa, xo'jalik sub'ektining moliyaviy ahvolda muammolar borligi, uning barqaror emasligi to'g'risida xulosa qilish mumkin, chunki korxona o'z majburiyatlarini qoplay ololmaydi.

$$Kl = \frac{\text{1 va 2-guruh likvid mablag'lari}}{\text{qisqa muddatli qarz majburiyatlari}}$$

Qoplash koeffitsienti mijozning qisqa muddatli majburiyatlarini to'lash uchun barcha turdagi aylanma mablag'larning etarli darajasini aniqlashga imkon beradi.

Likvidlilik koeffitsienti qarz oluvchi o'z mablag'lari hisobidan qarzning qancha qismini to'lay olish qobiliyatini ko'rsatadi, ya'ni bu koeffitsientdan mijozning yaqin kelajakda operativ ravishda bankga qarz to'lab berish qobiliyatini prognozlash uchun foydalaniladi. Likvidlilik koeffitsienti qancha yuqori bo'lsa, kreditga layoqatlilik shuncha yuqori bo'ladi.

Korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligi muxtoriylik koeffitsienti umumiy korxona balansi passivining qancha kismi korxonaning o'z manbalaridan tashkil topganligini baholaydi va qarz mablag'lari ichidagi korxona mustaqilligini aks ettiradi.

Moliyaviy mustaqillik yoki muxtorlik koeffitsienti (K_m) mijozning o'z mablag'larining barcha mablag'lar manbalari ichida tutgan salmog'ini, ya'ni korxona faoliyatining qancha qismi o'z kapitali hisobidan moliyalashtirilishini ko'rsatadi va quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$K_m = \frac{\text{O'z mablag'lari manbalari}}{\text{balans summasi}} * 100\%$$

Bank uchun kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari kredit shartnomasi tuzilayotganda risk darajasini aniqlash nuqtai nazaridan muhimdir. O'z mablag'lari manbalari va uning hajmi qanchalik katta bo'lsa, mijozning o'z vaqtida qarz majburiyatlarini to'lash qobiliyati shuncha yuqori bo'ladi. Korxonani kreditlash uchun uning o'z mablag'lari manbalari bilan ta'minlanganligi 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

Xo'jalik ob'ektlarinig o'z mablag'lari manbalari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ustav fondi;
- rezerv fondi;

- boshqa tashkil qilingan fondlar;
- o'tgan va hisobot yillaridagi taqsimlanmagan foyda.

Korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligi 30% dan kam bo'lmasligi kerak. Aylanma aktivlarining aylanish tezligi va korxona faoliyatidan kelib chiqqan holda bu ko'rsatkich ozgina past bo'lishi ham mumkin. Agar bu ko'rsatkich 60% dan yuqori bo'lsa, kredit bo'yicha riskni minimal deb qarash mumkin.

YUqoridagi ko'rsatkichlarning natijasi me'yoriy talablar bilan taqqoslanadi va korxonaning moliyaviy ahvoli aniqlanib, kredit berish mezonlari belgilanadi. Kredit berish bo'yicha sinflarga ajratishda quyidagi talablar hisobga olinadi.

-jadval

Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga

qarab mijozlarni sinflarga ajratish bo'yicha talablar

№	Ko'rsatkichlar	I sinf	II sinf	III sinf
1.	Qoplash koeffitsienti (K_q)	$K_q \geq 2,0$	$2,0 > K_q \geq 1,0$	$1,0 > K_q$
2.	Likvidlilik koeffitsienti (K_l)	$K_l \geq 1,5$	$1,5 > K_l \geq 1,0$	$1,0 > K_l$
3.	Muxtorlik koeffitsienti (K_m)	$K_m \geq 60\%$	$60\% > K_m \geq 30\%$	$30\% > K_m$

Kreditga layoqatlilikning har bir sinfdagi korxonalarga banklar xar xil kredit munosabatlari to'za oladilar. 1-sinfga mansub qarz oluvchilarga bank kredit liniyasi ochishi, kontokorrent hisob rakami bo'yicha kredit berishi, boshqa qarz oluvchilarga nisbatan past foizlarda ishonchli kreditlar berishi, kreditlar bo'yicha ta'minganlik talab qilinmasligi mumkin.

2-sinfga mansub qarz oluvchiga esa umumiy asoslarda va odatdagi tartibda, ya'ni majburiyatni muvofik shaklda ta'minlanishi (kafolat, garov, kafillik) sharoitida kredit beriladi., agar uning qo'shimcha ko'rsatkichlari ijobiy holda bo'lsa, unda unga imtiyozlar berilishi mumkin, ammo ishonchli kreditlar berilmaydi. Agar qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'yicha kamchiliklar bo'lsa, uning

moliyaviy ahvoli nobarqaror deb topilishi va uni yaxshilash uchun choralar ko'rishni talab qilish, kredit bo'yicha garovni mustahkamlash, foiz stavkalarini oshirishi, ssudaning summasini va muddatini cheklash choralari ko'rish mumkin.

Bank uchun 3-sinfga mansub korxonalarni kreditlash jiddiy risklar bilan bog'liqdir. SHuning uchun ular kamdan kam holatlarda va yuqori turadigan korxonalar kafolati hamda mulkni garovga qo'ygan holatda eng yuqori foizlarda kreditlanadilar.

Agarda tahlil bo'yicha mijozning moliyaviy holatida qoplash koeffitsienti 0,5dan ($k_k < 0,5$) kichik bo'lsa, likvid mablag'lari juda kam bo'lsa yoki umuman mavjud bo'lmasa va uning o'z mablag'lari miqdori ham kam bo'lsa, u nolikvid balansga ega bo'lgan, moliyaviy holati nochor korxona deb qaraladi va uni 4-sinfga kiritish mumkin va bunday korxonlarga odatda umuman kredit ajratilmaydi.

Mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashning muhim bir xususiyati shundaki, yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar korxonaning kreditga layoqatliligini baholashning yakuniy ko'rsatkichlari hisoblanmaydi. Mijozlar faoliyati va ularning moliyaviy ahvolini yanada chuqurroq ko'rib chiqishda, hamda kreditga layoqatliligining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha mijoz turli xil sinflarga taalluqli bo'lib chiqsa, u holda moliyaviy ahvoli haqida tug'ri xulosaga kelish uchun kreditga layoqatlilik darajasini baholashning qo'shimcha ko'rsatkichlarini tahlil qilish lozim bo'ladi.

Kreditga layoqatlilikni baholashning qo'shimcha ko'rsatkichlari

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mijozning moliyaviy holatini baholashda aniq bir xulosaga kelish uchun kreditga layoqatlilikning asosiy ko'rsatkichlariga qo'shimcha sifatida kreditga layoqatlilikning qo'shimcha ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Korxonaning kreditga layoqatlilikning qo'shimcha ko'rsatkichlari asosan mijozning aylanma aktivlari holatini yanada chuqurroq tahlil qilishni ko'zda tutadi. Ma'lumki, qisqa muddatli kreditlar xo'jalik sub'ektlarining aylanma aktivlariga beriladi. SHuning uchun mijozning kreditni o'z vaqtida bankka qaytara olish qobiliyati ham uning aylanma aktivlaridan foydalanishidagi samaradorlik

darajasiga qarab belgilanadi. Xo‘jalik sub’ektlari aylanma aktivlardan qanchalik samarali foydalanayotgan bo‘lsa va aylanma aktivlarning aylanish tezligi qanchalik yuqori bo‘lsa, kreditdan foydalanish samarasi va uni o‘z vaqtida bankka to‘lash imkoniyati ham shunchalik yuqori bo‘lishi mumkin. Biz aylanma mablag‘larning samaradorlik ko‘rsatkichlari to‘g‘risida oldingi paragraflarimizda kengroq to‘xtalgan edik. SHu bois biz qisqacha bo‘lsada kreditga layoqatlilikning qo‘shimcha ko‘rsatkichlarni keltirib o‘tmoqchimiz. Bu ko‘rsatkichlardan biri bu aylanma aktivlarning aylanish koeffitsienti hisoblanadi.

Aylanma mablag‘larning aylanishi koeffitsienti (Kl) joriy aktivlarning aylanish tezligi va aktivlarga qo‘yilgan mablag‘larning pul mablag‘lariga aylanish tezligini harakterlab, u ma’lum davr(oy, kvartal, yil) ichida aylanma mablag‘lari necha marta aylanganligini ifodalaydi :

$$Kob = \frac{\text{Realizatsiya qilingan mahsulot xajmi}}{\text{aylanma mablag‘larning o‘rtacha xronologik qoldig‘i}}$$

Kob. ni hisoblash aylanishni prognozlash va kreditlash muddatini aniqlashga imkon yaratadi. Aylanma aktivlarning aylanishi koeffitsienti aylanma aktivlarning harakati tezligini ifodalaydi va tahlil qilinayotgan davrda mahsulotni sotishdan tushumlarning cheklanishi hamda aylanma aktivlarning o‘rtacha qiymatini hisoblab borishga imkon yaratadi.

SHuningdek, aylanma aktivlarning kunlarda aylanishini ham hisoblash mumkin. Bu ko‘rsatkich korxona aylanma mablag‘larining bir marta aylanishi (P-T-I/CH-T-P) uchun necha kun ketishini ko‘rsatadi.

(O kunlarda Aylanma mablag‘larining o‘rtacha qoldig‘i x 360 kun aylanishi)

$$A_k = \frac{\text{realizatsiya hajmi}}{\text{aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldig‘i}};$$

Aylanma aktivlar aylanishiga qancha kam kun ketsa, korxonaning foyda olishi, binobarin kreditni bankka to‘lashi shuncha tez amalga oshiriladi.

Bu erda aylanma aktivlarning o‘rtacha qoldig‘i, o‘rtacha xronologik usulda aniqlanadi.

Mijozning moliyaiviy ahvolini xarakterlovchi yana bir muhim ko‘rsatkich – bu ularning o‘z aylanma mablag‘larining haqiqiy mavjudligini tasdiqlovchi ko‘rsatkich hisoblanadi.

O‘z aylanma mablag‘larining mavjudligi ko‘rsatkichi (O‘AyMM) Quyidagicha aniqlanadi:

$$O' AyMM = O'z \text{ mablag'larini manbalari} - \text{Uzoq muddatli aktivlar}$$

(110-330 balans qatorlari)

qoplanmagan zararlar

Agar korxonaning asosiy aktivlari o‘z mablag‘lari manbalaridan yuqori bo‘lsa, u holda korxona balansi noliqvid ekanligini ko‘rsatadi. Noliqvid balansga ega bo‘lgan korxonalar bank kreditlaridan foydalanish huquqidan mahrumdirlar.

Korxonalarga kredit berishda uning kreditga layoqatliligini baholashda quyidagi jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar hisob-kitob qilinishi lozim.

-jadval

№	Ko‘rsatkichlar	Davrlar			
		1 kv	1/2 yil	9 oy	yil
1.	Qoplash koeffitsienti				
2.	Likvidlilik koeffitsienti				
3.	Muxtorlik koeffitsienti				
4.	O‘z aylanma mablag‘lari mavjudligi dinamikasi				
5.	Foydalilik				
6.	To‘lanmagan qarzlar A) bank ssudalari bo‘yicha B) hisob kitoblar bo‘yicha				
7.	Aylana mablag‘lar aylanishi A)aylanish koeffitsienti B)kunlarda aylanishi				

Mijozning moliyaviy holatini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan ham foydalanish mumkin .

Mijozning qarz mablag‘lari salmog‘i.

$$\text{Qarz mablag‘lari koeffitsienti} = \frac{\text{Qarz mablag‘lar}}{\text{Barcha mablag‘lar}}$$

$$\text{Mijozning o‘z mablag‘lari salmogi} = \frac{\text{O‘z mablag‘lari}}{\text{Barcha mablag‘lar}}$$

O‘z mablag‘larining aylanuvchanligi koeffitsienti.

$$\frac{\text{O‘zlik mablag‘lar}}{\text{aylanuvchanlik koeffitsienti}} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{O‘z mablag‘lar}}$$

Qarz mablag‘lar aylanuvchanligi ko‘rsatkichi.

$$\frac{\text{Qarz mablag‘lar}}{\text{aylanuvchanlik koeffitsienti}} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{Qarz mablag‘lar}}$$

Firmaning o‘z qarzdorlari (debitor) hisob raqamlari hisobidan qanchalik tez to‘lovlarini amalga oshirishini ko‘rsatuvchi koeffitsent.

$$\frac{\text{Debitorlik qarzlari}}{\text{aylanuvchanlik koeffitsienti}} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{Debitorlik qarzlari}}$$

Firmaning qanchalik kreditorlar oldida o‘z majburiyatlarini qoplay olishini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkich :

$$\frac{\text{Kreditorlik qarzlari}}{\text{aylanuvchanlik koeffitsienti}} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{Kreditorlik qarzlari}}$$

Asosiy vositalar aylanishini ifodalovchi ko‘rsatkich:

$$\frac{\text{Asosiy aktivlar}}{\text{aylanuvchanlik koeffitsienti}} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{Asosiy aktivlar}}$$

Har bir so'm o'zlik mablag'lariga to'g'ri keluvchi foyda miqdorini ko'rsatuvchi ko'rsatkich:

$$\text{O'zlik mablag'lar rentabelligining koeffitsienti} = \frac{\text{Foyda}}{\text{o'zlik mablag'lar}}$$

4.Biznes reja va uni kreditlash jarayonidagi o'rni.

Biznes-reja korxonaning rivojlanish strategiyasini belgilab beradigan asosiy hujjatlardan biri bo'lib, u:

- rahbarlarga strategiya holatini aniqlab bilishga yordam berib uni samarali boshqarishga olib keladi;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida biznesni qanday rejalashtirish va amalga oshirishni o'rgatadi;
- haqiqiy faoliyatni rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bilan taqqoslashga hamda o'z vaqtida ularga o'zgartirishlar kiritishga yordam beradi;
- korxona bo'yicha kerakli axborotlarni tadbirkorlarga, investorlarga, banklarga va kreditorlarga taklif etadi.

YAXshi ishlab chiqilgan biznes reja korxona faoliyatining o'sib borishini ta'minlash, uning istiqbollari belgilab olish, yangi xizmat turlarini yaratish, moliya bozorida o'z mavqeini egallab olish va mo'ljallangan boshqa maqsadlarga erishishga yordam beradi.

Biznes reja doimiy hujjat bo'lib, muntazam ravishda yangilab boriladi, unga ham bankni ichida, ham iqtisodiyotdagi sharoitlarga qarab o'zgartirishlar kiritib turiladi. Odatda har bir korxona biznes reja tuzadi, lekin uni tayyorlash imkoniyatlari barchda ham mavjud bo'lmasligi mumkin. SHuning uchun biznes rejani ishlab chiqish uchun konsalting tashkilotlari mutaxassislarini jalb etishlari mumkin.

Biznes-reja korxonaning muayyan moliya bozordagi faoliyatining aniq

yoʻnalishini oʻrganish maqsadida oʻtkaziladigan tadqiqotlar va tashkiliy ishning natijasi boʻlganligi uchun u quyidagilarga asoslanadi:

- moliya bozorini yangi turdagi xizmatlarni taklif etish;
- korxonaningning zaif va kuchli tomonlarini aniqlab, oʻziga xos xususiyatlarni va oʻziga oʻxshash boshqa banklardan farqlarini bilib olish maqsadida har tomonlama oʻtkaziladigan ishlab chiqarish-xoʻjalik va tijorat tahlili;
- aniq vazifalarni amalga oshirish uchun qoʻllaniladigan moliyaviy, texnik-iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlar.

Biznes-reja tashkilotning rivojlanish strategiyasi va istiqbolini belgilab beradigan asosiy hujjatdir. SHu bilan birga u strategiyaning iqtisodiy va moliyaviy jihatlarini bir muncha batafsil bayon etadi. Aniq, tayin chora-tadbirlarni texnik-iqtisodiy jihatdan asoslab beradi. Strategiyaning amalga oshirish texnik-tashkiliy va iqtisodiy oʻzgarishlarni maʼlum vaqtgacha oʻzaro bogʻlangan butun bir tizimi sifatida tuzilgan keng investitsiya dasturlariga asoslanadi. Biznes reja investitsion dasturning odatda bir necha yil ichida amalga oshirilishi kerak boʻlgan qismini oʻz ichiga oladi.

Biznes-reja bir qancha vazifalarni hal qilishga imkon beradi. Bularning asosiylari quyidagilardir:

- korxona taraqqiyoti (strategiyasi, konsepsiyalari, loyihalari) yoʻnalishlarining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlash;
- faoliyatdan kutilayotgan moliyaviy natijalar, birinchi navbatda xizmat hajmlari, olinadigan daromad va foydaning miqdorini aniqlash;
- tanlab olingan strategiyaning amalga oshirish uchun kerakli mablagʻlar manbaini belgilash;
- mazkur rejani amalga oshiradigan xodimlar malakasi, soni va ularga toʻlanadigan asosiy va qoʻshimcha toʻlovlarni aniqlash.

Biznes-reja boʻlgʻusi sheriklar bilan muzokaralar olib borilayotganda biznes taklifi uchun asos boʻlib xizmat qiladi. SHu bilan birgalikda u xodimlarni faoliyatiga jalb qilish uchun ham asosdir.

Biznes-rejadan bankdan kredit olish jarayonida juda muxim vositasi sifatida

foydalaniladi. Bunda banklar kredit berishdan avval uni har tomonlama o'rganib, puxta ishlab chiqilganligiga ishonch hosil qilishlari kerak. Biznes-rejada asosiy muhim masalalar yoritilgan, uning hujjatlari ravon va tushunarli qilib bayon etilgan bo'lishi kerak. U har xil toifadagi odamlarga, hatto bank xizmatlari va bozor to'g'risidagi bilimlari cheklangan kishilarga ham tushunarli bo'lmog'i lozim.

Korxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun biznes rejaning muhimligi, yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, yana quyidagi ikkita vaziyat bilan belgilanadi:

- birinchidan, iqtisodiyotimizga yangi tadbirkorlar avlodi kirib kelmoqda. Ularning ko'pchiligi hech qachon mustaqil ish yuritmaganlar, korxona boshqarmaganlar. SHu sababli ular bozor iqtisodiyotida vujudga keladigan muammolarni tasavvur ham qila olmaydilar. Banklar bunga tayyor bo'lib ularga yordam berishlari va o'zlari ham bu masalani to'liq bilishlari kerak.

- ikkinchidan, butunlay o'zgarib borayotgan xo'jalik faoliyati sohasi katta tajribaga ega bo'lgan bank rahbarlarini ham ishdagi har bir qadamni boshqacha bosishni, hozirgacha bizga yot bo'lgan raqobatga tayyor turishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, yaxshi tuzilgan biznes reja korxonaning holatini chuqur tahlil qiladi hamda uning kelajakdagi rivojlanishiga xolisona va ob'ektiv baho beradi.

Har qanday biznes reja doimiy ravishda qayta ko'rib borilishi shart. Aniq va samarali reja ham tashqi muhit sharoitlarini o'zgarishi hisobiga maqsadini yo'qotishi mumkin.

Biznes rejaning maqsadi va vazifasi tashqi va ichki omillar hisobiga o'zgarishi mumkin, ya'ni umumiqtisodiy ahvol, mijozning holati, raqobat, ichki omillar, yuqori malakali kadrlar yo'qotish va hokazo.

Bundan tashqari bozordagi, tarmoqdagi va mijozdagi barcha o'zgarishlarni hisobga olmoq kerak. CHunki bu o'zgarishlar biznes rejani bajarilishiga ta'sir etishi e'tibordan holi emas. SHuning uchun rahbarlar tomonidan tegishli o'zgarishlar kiritilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Rahbar bozor sharoitidan kelib chiqib rejaga nisbatan farqlanishni tushinishi va to'g'ri baholashi lozim.

Rahbarning bunday yondashuvi reja topshiriqlarini bajarish va maqsadga erishishda to'g'ri yo'lni tanlaganligini bildiradi va o'z navbatida muvaffaqiyatgarovi ham bo'lib qoladi. YUqoridagi maqsadga erishishning birdan bir to'g'ri yo'li, uning etarli axborot manbasiga bo'lishidir

Kredit mexanizmi xo'jalik mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, o'z ichiga kreditlash shartlarini, usullarini va kreditni boshqarish tamoyillarini oladi. Kredit mexanizmi yordamida bank tizimining kredit siyosati amalga oshiriladi.

Kreditlash jarayonini tashkil qilish kredit zayavkasini ko'rib chiqishdan boshlanadi. Biz amaliyotda kredit zayavkalarini ko'rishda nimalarga e'tibor berish zarurligini ta'kidlamoqchimiz.

Har bir mijozga chuqur diqqatlilik bilan munosabatda bo'lish, har bir bank xodimining faoliyat ko'rsatish qoidalarining ajralmas qismi bo'lishi kerak. Odatda o'z mijozlariga diqqat bilan muomala qilmaydigan xodimlari bo'lgan bankning, bizning fikrimizcha, kelajagi bo'lmaydi. Bizning banklarimiz bilan mijozlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning aksariyat jihatlari bizga ma'lum bo'lganligi bois biz amaliyotimizda bank bilan mijoz o'rtasida mavjud kredit munosabatlarga to'xtalmasdan, jahon amaliyotida kredit jarayonining tashkil qilinish asoslariga qisqacha to'xtalamiz. Jahon amaliyotida kreditlash jarayonini tashkil qilishda bank xodimi mijozlarga kreditlash shartlari haqida ma'lumot beradi va bankning anketa savollariga javob berishni taklif qiladi. CHet el banklarida mijozlar bilan bo'lgan birinchi va undan keyingi uchrashuvlar natijasi hisobotlarda umumlashtiriladi. Bu hisobotlar ma'lum miqdorda savollarning standart yig'imini o'z ichiga oladi. Bunday hisobotga mijozning bankga har tashrifidan so'ng o'zgartirish kiritiladi va yangi ma'lumot bilan to'ldiriladi. Bu hisobotlar kredit inspektoriga kelgusi mijoz to'g'risida uchrashuvlari oldidan kerakli ma'lumotlarni beradi. Kelgusi mijoz kredit inspektori bilan bo'ladigan uchrashuvga olinadigan ssuda, uning ishlatilish maqsadi, summasi, qaytarilish muddati va taqdim qilingan ta'minotini o'z ichiga olgan kredit zayavkasi bilan keladi.

Ko'pgina davlatlarda nufuzli banklar kredit arizasi bilan birga bir necha hujjatlarni ko'rib chiqadi, bularga:

1) qarz oluvchi kompaniya (korxona) ta'sis hujjatlarining notarial tasdiqlangan nusxasi;

2) moliyaviy hisobot, korxona balansi va oxirgi uch yil uchun foyda va zarar hisobotini o'z ichiga oladi. Balans yil oxirigacha tuzilib, unda aktivlar, majburiyatlar va kapital tuzilmasi ko'rsatiladi. Foyda va zarar schyoti bir yillik vaqtni o'z ichiga oladi va kompaniya daromadi va harajatlari, sof daromadi, uning rezervga taqsimlanishi va chegirmalar, dividend to'lovlari va h.k.lar to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi.

3) Kassa tushumlari va harakati to'g'risida hisobot. U ikki hisobot muddatida tuzilgan balanslarning solishtirilishiga asoslan-gandir va u har xil bo'limlar va fondlar harakatida bo'ladigan o'zgarishlarni ko'rishga yordam beradi. Hisobot resurslari defitsitini, ishlatilishini, foizlar uchun mablag'lar bo'shash vaqti va kassa tushumlarining defitsitini yuzaga kelishi va h.k.ning umumiy holatini ko'rishga yordam beradi.

4) Ichki moliya hisoboti. Bu hisobot kompaniya moliyaviy holati, 1 yil, kvartal yoki oy davomida resurslarga bo'lgan ehtiyojining o'zgarishlarini aks ettiradi.

5) Ichki operativ hisob bo'yicha ma'lumotlar. Balans tuzish uchun ko'p vaqtni talab qiladi. Lekin kreditor bankga qarz oluvchi kompaniya to'g'risida ba'zi bir operativ hisobot ma'lumotlari kerak bo'lib qolishi mumkin.

6) Moliyalashtirishning prognozi. Bu hisobot kelgusi sotuvni baholash, xarajat, tovarni ishlab chikarish bilan bog'liq harajatlar, debitor qarzдорlik, zaxiralar qaytarilishi, naqd pulga ehtiyoj, kapital qo'yilma va h.k.larni o'z ichiga oladi.

7) Soliq deklaratsiyasi eng kerakli qo'shimcha axborot sifatida. Unda qarz oluvchi soliq to'lovchi sifatida boshqa hujjatlarga kirgizilmagan axborotlar bo'lishi mumkin.

8) **Biznes-reja.** Ko'pgina kredit zayavkalari hali moliya hisoboti va boshqa hujjatlarga ega bo'lmagan ishni endi boshlayotgan korxonalarni moliyalashtirish bilan bog'liq. Bunday paytda qarz oluvchi kompaniya bankka kreditlanadigan loyiha maqsadi va uni amalga oshirish usullari xaqida ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi batafsil biznes-planni taqdim etishi kerak.

Kredit inspektori kredit zayavkasi va unga kiritilgan hujjatlarni yaxshilab o'rganib chiqadi. Bundan so'ng u kelgusi qarz oluvchi bilan yana bir bor suhbatlashadi. Suhbat davomida kredit inspektori qarz oluvchi kompaniya (bank) ishlarini har tomonlama o'rganishi shart emas, u kreditor-bankni qiziqtiradigan savollarga kerakli darajada ahamiyat berishi kerak.

Ko'zga ko'ringan chet el banklarining amaliyoti shuni ko'rsatadiki, kelgusi mijoz bilan suhbat aniq bir tartibda berilgan quyidagi savollarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Bank kreditlashning birinchi bosqichida quyidagilarni aniqlashi kerak:

A. Qarz oluvchining ishonchliligi va kreditga layoqatliligi, uning partnyor sifatidagi faoliyati doimiyliigi va samarasi.

B. Kredit zayavkasining asoslanganligi va kredit qaytarilishining ta'minlanganlik darajasi. Bank kerak bo'lsa kredit taklifi bo'yicha o'z talablarini ishlab chiqishi va mijozni u bilan tanishtirishi mumkin.

V. Kredit taklifining bank kredit siyosati va ssuda portfeli tuzilmasiga to'g'ri kelishi. Yangi kredit berish va kredit portfeli diversifikatsiyasi kredit riskining pasayishiga olib keladimi yoki yo'qmi degan savolga javob topishi lozim.

Bankning kredit berish bilan shug'ullanuvchi xodimlari yaxshi bilmaydigan iqtisod tarmoqlaridagi korxonalariga ssuda bermasligi kerak. Lekin bunday hollarda kredit taklifini baholash uchun nufuzli ekspertlarni jalb qilishlari mumkin. Ammo bu bankning qo'shimcha harajatiga olib kelsa-da, kreditlash bilan bog'lik risklarning oldini olishi mumkin.

Har qanday ariza va qo'shimcha hujjatlar hamda suhbat natijalarini aniqlashning hal qiluvchi omili bo'lib qarz xarakteri va kreditga layoqatliligini aniqlash hisoblanadi. Kredit inspektori qarz oluvchiga arizani tayyorlash davomida mijozning kreditni qoplashga loyiq qimmatli aktivlarini va daromad miqdorini biladi. Mijozning og'zaki javoblari yozma bergan ma'lumotlariga qaraganda ko'prok ma'lumot beradi. SHu bilan bir vaqtda inspektor mijoz hamkorlik qilgan banklarga murojaat qiladi.

Kredit inspektori qarz oluvchi daromadining faqatgina miqdoriga emas, balki barqarorligiga ham e'tibor berish kerak. Ular mijozdan sof daromad haqida ma'lumot olishni istaydilar.

Daromadning miqdori va doimiyligi turg'unligining bilvosita ko'rsatgichi bo'lib, mijozlarning depozit hisoblaridagi o'rtacha bir kunlik qoldiq to'g'risidagi ma'lumotlar hisoblanadi. Qarz oluvchi tomonidan berilgan bu ma'lumotlar kredit inspektor tomonidan tegishli bank tomonidan berilgan ma'lumotlar bilan taqqoslanadi.

Bank depozit hisoblaridagi salmoqli qoldiqlarni bo'lishi mijoz moliyaviy ahvolidan, ishonchliligidan, uning moliyaviy intizomlilikidan va olingan kreditlarni qaytarish borasidagi intilishlari jiddiyligidan dalolat beradi.

Tajribali kredit inspektori ahamiyat beradigan omillardan yana biri mijozning bir joyda uzoq va doimiy faoliyat ko'rsatishi, yashashi hamda mashg'ul bo'lishidir. Ko'pgina banklar odatda ko'rsatilgan joyda bir necha oygina ishlayotgan shaxslar va yaqinda ro'yxatdan o'tgan firmalarga rad javobini beradilar.

Kredit inspektorlari "qarzlar piramidasi" deb ataluvchi holatning paydo bo'lishini qo'llab-quvvatlamaydilar. "Piramida" holati bu qarzdor 1 ta bank yoki firmadan olgan qarzini to'lash uchun boshqa kreditordan qarz olishi tushuniladi. Mijozning kredit kartochkalari bo'yicha qarzining kattaligi, ko'pligi o'zining hisobidan yozib berilgan cheklarning tez tez qaytib kelishiga inspektorlar katta e'tibor beradi. Bunday dalillar asosida mijozning haqiqiy moliyaviy ahvoli va uning pul mablag'larini boshqarish qobiliyati haqida xulosa qilinadi.

Agar mijoz bilan ishlarni davom ettirish hal qilinsa, unda inspektor kredit dosesini yig'adi va uni kredit bo'limiga yuboradi. Bu bo'limda mijozning kreditga layoqatliligi chuqur o'rganiladi va kredit riskiga baho beriladi.

10-MAVZU:KREDITNING TA'MINOTI VA UNING SHAKLLARI

1.1. Kreditning ta'minoti tushunchasi va uning ahamiyati.

2.Kreditning qaytarilishida garov va boshqa ta'minot shakllarining tutgan o'rni. Birlamchi va ikkilamchi ta'minot turlari

-garov

-kafolat

-kafillik

-sug'urta

-depozitlar

-boshqa turlari

3. Garov reestri va uning kredit ta'minotidagi ahamiyati.

4.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kredit ta'minoti bilan bog'liq muammolar.

Kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud aniq uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo'lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma'lum tamoyillar asosida olib boriladi. Bu tamoyillar kredit munosabatlari rivojlanishining birinchi bosqichida ko'zga tashlangan edi, keyinchalik esa ular umumdavlat va xalqaro kredit qonunchiligida yaqqol o'z aksini topdi. Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega. Bular kreditning qaytib berishliligi, kreditning muddatliligi, kreditning ta'minlanganligi, maqsadliligi va to'lovlilik tamoyillaridir. Biz ko'rib o'tmoqchi bo'lgan tamoyili kreditning ta'minlanganligidir. Bu tamoyil yordamida kreditning iqtisodiyotni rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlik ta'minlanadi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo'jalik aylanishida ishtirok etuvchi bank mablag'larining har bir so'miga muayyan miqdorda moddiy boyliklar qarama-qarshi turishi kerak. Banklar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga berilgan har qanday kreditlar to'liq tovar-

moddiy boyliklari bilan yoki ma'lum xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmasligiga asos bo'ladi. Bu o'z navbatida bankning likvidligiga va pul muomalasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. SHuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy-boyliklari va xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishiga alohida e'tibor berilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, banklar faoliyatidagi eng asosiy muammolardan biri, berilgan ssudalarning qaytarilmasligidir. Ushbu muammoni qisman hal etish, ya'ni mijoz tomonidan kreditni qaytara olmaslik riskini kamaytirish yo'llaridan biri mijoz mulkining ma'lum qismini berilgan kredit uchun garov sifatida talab qilishdir.

O'zbekiston Respublikasining bank qonunchiligi tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar turli shakldagi ta'minlanganlikka ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

Banklar amaliyotida kreditning qaytarilish manbalari:

1. Birlamchi manbalar:


Birlamchi manbalarga mahsulot realizatsiyasidan (xizmat ko'rsatishdan) tushgan tushum(daromad)lar kiradi. CHet ellik ko'pgina bankirlar kredit qaytarilishining "OLTIN QOIDASI" sifatida birlamchi manbalarga ko'proq e'tibor qaratadilar.

SHu sababli mijozlarning kredit olish uchun buyurtmalarini ko'rib chiqish jarayonida pul oqimlari harakatiga qaratilib, mazkur mijoz faoliyat yurituvchi tarmoq yoki biznes sohasi rivojiga, uning mahsulot etkazib beruvchi va sotib oluvchilar bilan munosabatlariga asosiy e'tibor qaratadilar.

Agarda bankda mazkur mijozning pul oqimlari to'g'risida salbiy xulosa qilinsa kredit bitmlari tuzilmaydi.

Kredit qaytarilishining real garovi sifatida tushum(daromad)ning e'tiborga olinishi faqatgina moliyaviy barqaror korxonalargagina taalluqlidir. Bunday kreditlar o'ta ishonchli, moliyaviy barqaror va bank bilan doimiy munosabatda bo'lgan mijozlargagina berilishi mumkin.

Иккиламчи манбалар:



McGraw-Hill/Irwin

Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies.

Кредит қайтарилишининг таъминоти ликвидлилиги жиҳатда иккига бўлинади:



О‘zbekiston Respublikasining Fuqarolar kodeksining 259- moddasiga asosan qarzdorning majburiyatlarini garov, qarzdorning mulkini ushlab qolish, kafolat, va qonun bo‘yicha yoki shartnomada ko‘rsatilgan boshqa usul bilan ta‘minlangan bo‘lishi mumkin. Bu ta‘minotning qaysi birini tanlash majburiyat turiga bog‘liq. Aksariyat hollarda kredit va qarz shartnomasini bajarish bo‘yicha garov, kafolat qulay hisoblanadi. Qarz oluvchi kreditning ta‘minlanganligi sifatida bir yoki bir necha turdagi ta‘minlanganlikni qo‘yishi va uni kredit shartnomasida ko‘rsatishi mumkin. Kreditning ta‘minlanganligi bo‘yicha garov kredit shartnoma bilan bargalikda rasmiylashtiriladi va unga albatta ilova qilinishi lozim. Jahon amaliyotida bank ssudalarini ta‘minlashning o‘ta keng tarqalgan turlari quyidagilar hisoblanadi:

- er, uy-joy;
- qimmatli qog‘ozlar;
- debitorlik qarzlari yig‘indilari;
- tegishli hujjatlar bilan birga taqdim etilgan tovarlar;
- sug‘urta polislar va boshqalar.

- Er, uy-joy va boshqa ko'chmas mulk muhim ta'minlash ob'ekti bo'lib hisoblanadi. U hech qachon o'z qiymatini to'la yo'qotmaydi. SHu sababli, er, uy-joy ishonchli garov hisoblanadi.

- Qimmatli qog'ozlar bank uchun ma'qulroq ta'minlash turi hisoblanadi. CHunki qimmatli qog'ozlarni fond bozorida osongina sotish mumkin, bankda saqlash uchun xarajatlar talab qilinmaydi. SHular bilan bir qatorda, ularni sotish va sotib olishda ortiqcha rasmiyatchilikning yo'qligi qimmatli qog'ozlarning ta'minlanganlik ob'ekti sifatida ahamiyatini oshiradi. Ayni vaqtda shuni esda tutish lozimki, agar ta'minlanganlik sifatida aksiya olinayotgan bo'lsa, uning kursi keskin tebranishi mumkinligini, kurs pasayganda zarar ko'rishligini, albatta inobatga olish lozim.

- Debitor qarzdorlik yig'indisi deganda, bu erda ochiq schyotlar bo'yicha hisob-kitoblardagi qarzdorlik yig'indisi tushuniladi. Bu pul bankning mijozi jo'natgan tovarlari uchun haridorlardan olishi lozim bo'lgan puldir. Bu turdagi ta'minlash ob'ekti jahon amaliyotida keng qo'llaniladi.

- Xom-ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlar ko'pchilik davlatlarda, xususan, respublikamizdagi kreditning keng qo'llaniladigan ta'minlanish ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta qilinuvchi sug'urta kompaniyasiga badal to'lab boradi. Sug'urta muddati tugashi bilan mablag' to'lagan shaxsga qaytarilishi mumkin. Bank sug'urta polisini yig'ilgan badallar yig'indisi mikdorida ta'minlanganlik uchun qabul qiladi.

Ishonchli kreditlar va ularning qaytarilishini ta'minlovchi birdan-bir garov shakli kredit shartnomasi bo'lib hisoblanadi. Kredit shartnomasi shartlarining bajarilishini kredit ta'minlanganligining sharti sifatida qabul qilish, xorijiy banklar tomonidan cheklangan hajmda, ishonchga sazovor bo'lgan doimiy mijozlarni qisqa muddatda kreditlash jarayonida qo'llaniladi. O'rta va uzoq muddatli kredit berishda ham berilgan kreditlarni sug'urta qilish sharti bilan istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin. Odatda sug'urta qilish, qarz oluvchi hisobidan amalga

oshiriladi. Bizning amaliyotimizda ba'zi hollarda, tijorat banklari tomonidan o'z sho'balalarini va muassasalarini kredit berishda shu usul qo'llanilishi mumkin.

Yaxshi ta'minlangan kreditlar. Bunday kreditlar zamonaviy bank kreditining asosiy turi sifatida ta'minlangan ssudalar hisoblanadi. Ta'minlanganlik sifatida qarz oluvchining har xil shakldagi mulki, ko'proq ko'chmas mulki va uning ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlar, boshqa mulk shakllari bo'lishi mumkin, qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajara olmagan hollarda, ta'minlanganlik asosi bo'lgan mulk bank ixtiyoriga o'tadi va bank uni sotib etkazilgan zararlarni qoplash huquqiga ega bo'ladi. Bank tomonidan berilayotgan kredit miqdori taklif etilayotgan ta'minlanganlikning o'rtacha bozor narxidan past bo'ladi va mulk bahosi tomonlarning kelishuvchi natijasida aniqlanadi.

Kreditlar sifatli aktivlar bilan, aytaylik, er yoki hukumatning qimmatli qog'ozlari, ya'ni davlat zayomlari bilan ta'minlangan bo'lsa, u holda ularning foiz stavkasi ta'minlanmagan kreditlarnikiga nisbatan past bo'lishi mumkin. Chunki, bunda kreditni qaytarmaslik riski minimallashtirilgan bo'ladi. Xalqaro kreditlar oltin, olmos, platina kabi nodir metallar bilan ta'minlangan bo'lsa, ularning foiz stavkasi sezilarli darajada past bo'ladi.

Kreditning ta'minlanganligi uchun qabul qilinadigan mulk tez sotiladigan, oldin biror majburiyat bo'yicha garovga qo'yilmagan, korxonaga tegishli bo'lgan mulkni o'z ichiga olishi kerak.

Bank ssudalarini tovar-moddiy boyliklari bilan to'liq ta'minlanganligi pul muomalasining barqarorligini ta'minlaydi, chunki bank mablag'larining aylanishi, ya'ni pullari naqd pulga va aksincha transformatsiyalanib turadi.

Kreditning ta'minlanganligi sifatida kafillik, kafolat, garov va boshqalar qo'llaniladi. Quyida biz shu ta'minlanganlik shakllarini alohida ko'rib chiqamiz.

Kafillik

Kreditning ta'minlanganligi sifatida qabul qilinib, kredit majburiyatlari bajarilishi ta'minlashning keng tarqalgan usullaridan biri kafillik hisoblanadi.

Fuqorolik kodeksining 292-moddasiga muvofiq kafillik shartnomasi bo'yicha kafil boshqa shaxs o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi. Kafillik yoki kafolat deganda, uchinchi shaxsning moliyaviy kafolati yoki kafilligi bilan beriladigan ssudalarni tushunish mumkin. Bunda kredit boshqa bir tashkilotning kafolati asosida beriladi. Kafolat beruvchi korxona yoki muassasa, agar qarz oluvchi kredit shartnomasida ko'rsatilgan shartlarni vaqtida bajarmasa, shu tufayli bank ko'rgan zararlarni qoplashga kafillik beradi va faoliyat davomida haqiqatda shunday ahvol ro'y bersa, o'z mablag'lari hisobidan zararni qoplab beradi. Moliyaviy kafillik beruvchi tomon sifatida huquqiy shaxslar, shuningdek turli darajadagi davlat hokimiyati organlari, jismoniy shaxslar ishtirok qilishlari mumkin. Kafil bank-kreditor o'rtasida kafillik bo'yicha munosabatlarni rasmiylashtirish uchun kafillik shartnomasi imzolanadi. Amaliyotda kafillik shartnomasini tuzishning uch holatlari uchraydi:

- bank-kreditor va qarz oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi imzolanganidan keyin;
- kredit shartnomasi imzolanishidan oldin.

Bu tez-tez uchrab turadigan holat, bunda bank kreditni berishni rasmiylashtirishni faqatgina qarz oluvchi uchun kafillikni olgandan keyingina amalga oshiradi;

- birgalikda, ya'ni kredit shartnomasi bilan birga uch tomonlama kafillik shartnomasini imzolash. Bu hujjatni bank-kreditor, qarz oluvchi va kafil rasmiylashtiradi.

Kafillik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi kerak. g'zma shakliga rioya qilmaslik shartnomani qonuniy kuchga kirmasligidan dalolat beradi.

Kafillik shartnomasida qaysi majburiyatni bajarish uchun kafillik berilganligini aniqlashga imkon beruvchi shartlar ko'rsatilishi kerak. Kafillik to'liq (kreditning summasi va foizlarini o'z ichiga oluvchi) yoki qisman (masalan, faqat foizlar bo'yicha) bo'lishi mumkin. SHartnomada kafilning o'z majburiyatlarini

bajarish bo'yicha tartib va shart-sharoitlari ko'rsatilishi kerak. Kafilning javobgarligi qonun bilan belgilanadi.

Kafillik bilan ta'minlangan qarzdorning majburiyatlarini bajarish paytida kafil va qarzdor, agar qonun yoki kafillik shartnomasi bo'yicha kafilning subsidiar javobgarligi ko'zda tutilmagan bo'lsa, kreditor oldida birgalikda javobgar hisoblanadilar.

Birgalikdagi javobgarlikda kreditor kreditni to'liq yoki qisman qarz oluvchi va kafildan birgalikda qoplashni talab qilishi yoki ulardan biridan alohida holda talab qilishi mumkin. Kreditor hamkorlikdagi qarzdorlikning (qarz oluvchi yoki kafil) biridan to'liq qoniqmaganda, boshqa hamkor qarzdordan qoplanmagan qismini talab qilish huquqiga ega.

Kafil kreditor oldida qarz oluvchi kabi huddi shunday hajmda javobgar bo'ladi, ya'ni foizlarni to'lash, qarzni undirish bo'yicha sud xarajatlarini qoplash va kreditorning boshqa zararlarini qoplash bo'yicha javobgarlikni oladi. Ammo shartnomada kafilning cheklangan javobgarligi kafillik summasini aniqlash yoki kafil to'lovni kafolatga olgan zararning bir qismini aniqlash orqali o'rnatilishi mumkin.

Bank kafil bilan o'z munosabatlarini o'rnatishda, kafillik shartnomasida qarz oluvchi bilan o'zaro javobgarlik to'g'risida ko'rsatma berilmagan bo'lsa, kafil subsidiar javobgarlikni o'ziga oladi. Bunday holda kreditor birinchi navbatda, qarz oluvchiga qarzni undirish bo'yicha murojaat qiladi, va kafilning javobgarligi faqatgina kredit shartnomasi bo'yicha qarz qoplanmaganda yuz beradi.

Agar asosiy qarzdor kreditorning majburiyatlarini to'liq bajarishni rad etsa yoki kreditor belgilangan muddatda taqdim etilgan talabnoma bo'yicha javob olmasa, bunda talabnoma subsidiar javobgarlikni o'ziga oluvchi shaxsga taqdim etilishi mumkin.

Subsidiar javobgarlikni olgan shaxs (kafil) kreditor tomonidan taqdim etilgan talabnomani bajarishdan oldin asosiy qarz oluvchini bu haqda ogohlantirishi lozim. Agar subsidiar javobgarlikni olgan shaxsga da'vo qo'zg'atilgan bo'lsa, bunday

holda u (kafil) asosiy qarz oluvchini bu ishda qatnashishga jalb etadi. Aks holda asosiy qarz oluvchi subsidiar javob beradigan kafilga qarshiligini ko'rsatish huquqiga ega.

Yana shuni belgilab o'tish kerakki, kafil va qarz oluvchi o'rtasida munosabat kafil va kreditor o'rtasidagi munosabatga ta'sir qilmaydi.

Ba'zi paytlarda, qarz oluvchi va kreditor o'rtasidagi munosabat tugaydi hamda ular o'rtasida tuzilgan shartnoma bekor qilinadi. Ammo shu shartnomaga muvofiq kafil bank-kreditor bilan kafillik shartnomasini tuzgan bo'ladi. Qarz oluvchi qarzini to'lamagan holda kreditor kafilidan solidar majburiyatni bajarishni talab etadi. Amaliyotda ba'zan kafil qarz oluvchi bilan munosabati tugaganligi to'g'risida axborot bergan holda majburiyatni bajarishni rad etadi. Bu dalillar sud tomonidan qabul qilinmaydi, sud faqat kafillik kreditor va kafil o'rtasidagi shartnoma sifatida ko'rib chiqishi va uni bajarilish yuzasidan qaror qabul qilishi mumkin.

Qonun bo'yicha kafil nafaqat javobgarlikni oladi, balki aniq bir huquqlardan foydalanadi. Kafil huquqi kreditor talabiga qarshi e'tirozini bildirishi mumkin, bu e'tiroz qarz oluvchiga bildiriladi. Kafil bu e'tiroz huquqini hattoki, qarz oluvchi rad etgan yoki qarzni tan olgan paytda ham yo'qotmaydi.

Kafil kreditorga to'langan summadagi qarzlarni qarz oluvchidan talab qilishi huquqiga ega.

Majburiyatlarning kafil tomonidan bajarilishi uchun kreditor qarz oluvchiga bo'lgan talabini tasdiqlovchi hujjatlarni unga topshirishi va shu talabni ta'minlovchi huquqlarni o'tkazishi zarur. Bu qoidalar agar qonunchilikda, boshqa huquqiy aktlar yoki qarz oluvchi bilan kafillik shartnomasida ko'zda tutilmagan bo'lsa, ishlatiladi.

Qonunda ko'zda tutilganki, kafil tomonidan ta'minlangan majburiyatni bajargan qarz oluvchi bu haqda kafilga tezda xabar berishi lozim. Agarda bank kafilning mablag'ini asossiz oborotga olgan bo'lsa, kafil kreditoridan asossiz olgan

mablag'ini undirish bo'yicha talab qo'yishi yoki qarz oluvchiga bo'lgan regressiv talabini qo'yish huquqiga ega.

Kafillik to'xtalishining aniq hollari sifatida quyidagilarni belgilab o'tish mumkin:

- Kafil tomonidan ta'minlangan majburiyatni to'xtalishi bilan;
- Kafil uchun javobgarlikni oshiradigan yoki boshqa nomaqbul hollarga olib keladigan majburiyatlarni o'zgarishi bilan;
- Kafillik bu ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarzni boshqa shaxsga o'tkazilishi bilan agar kafil kreditorga yangi qarz oluvchi javob berishga rozilik bermagan bo'lsa;
- Agar kreditor qarz oluvchi yoki kafil tomonidan taklif etilgan tegishli ijroni bajarishdan bosh tortsa;
- kafillik shartnomasida ko'rsatilgan muddat o'tishi bilan. Bunday muddat o'rnatilmagan bo'lsa, kafillik, agar kreditor kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish muddati boshlangandan kundan bir yil mobaynida kafilga nisbatan da'vo qo'zg'atmagan bo'lsa, tugatiladi;
- Agar, kreditor kafillik shartnomasi tuzilgan kundan boshlab ikki yil mobaynida kafilga da'vo bildirmagan bo'lsa, bunda asosiy majburiyatni bajarilish muddati belgilanmagan yoki aniqlanmagan bo'lishi kerak.

SHunday qilib, kreditni to'lashining kafili sifatida turli xildagi yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin.

Bank kafolati

Kafolat — kafolat beruvchi tomonidan qarz oluvchining majburiyatlari muddati kelganda to'lab berishi majburiyati tushuniladi.

Kafolat xati ssuda oluvchi tomonidan bankka kredit berish masalalari xal etilguncha topshirilishi lozim. Kafolat beruvchi, ssuda oluvchiga kafolat xatini berishdan oldin kafolat xati haqida o'z bankiga ariza berishi lozim va ushbu arizada kafolat berish zarurligi va maqsadi haqida yoritish lozim.

Bank kafolati (huddi kafillik kabi) kredit majburiyatlarini qoplash vositasi hisoblanadi va u ancha qulay vosita bo‘lib, moliyaviy yo‘qotishlardan qochish maqsadida kreditorlar tomonidan keng foydalaniladi.

Bank kafolati, kredit muassasalari yoki sug‘urta tashkilotlari (garant) boshqa shaxs (prinsipal) iltimosi bo‘yicha prinsipal kreditor (benefitsiar) ga pul mablag‘lari summasini benefitsiar tomonidan yozma talabnoma taqdim etilgandan so‘ng to‘lash bo‘yicha yozma majburiyatini beradi.

Bank kafolati deganda, uchinchi shaxs o‘z vazifasini bajarmaganda, bank tomonidan ma’lum summani to‘lab berish to‘g‘risidagi chaqirilmaydigan majburiyat tushuniladi. Kafolat asosiy qarz bo‘yicha hisob-kitoblardan yoki kreditor va asosiy qarz oluvchi o‘rtasidagi shartnomadan ajralgan holdagi mustaqil majburiyat hisoblanadi. Kafolat berish orqali bank birinchi talab bo‘yicha, agar kafolat to‘g‘risidagi matnda keltirilgan shartlar bajarilgan bo‘lsa, to‘lash majburiyatini oladi.

Amaliyotda kredit tashkilotlari tomonidan beriladigan bank kafolatlarining turli xildagi ko‘rinishlari mavjud.

Xalqaro talablarga muvofiq bank kafolatida quyidagi ma’lumotlar aks ettirilish kerak:

- prinsipal, garant va benefitslar nomlari;
- shartnoma;
- to‘lanishi kerak bo‘lgan maksimal summa;
- to‘lov valyutasi nomi;
- kafolatning amal qilish muddati;
- to‘lovni talab qilish usuli;
- majburiyat summasini kamaytirish imkoniyatlari.

Kafolat matnida kafolatning chaqirilmaydigan xarakterda ekanligi to‘g‘risida ko‘rsatilishi kerak.

Bank kafolati va kafillik asosiy majburiyat (kreditni qoplash bo‘yicha) ni bajarishni ta’minlash usuli sifatida kup umumiy xarakteristikaga ega. Bank-

kreditor va qarz oluvchidan tashqari ssuda operatsiyalarida bank garanti yoki kafil qatnashadi. Ammo bank kafolati va kafil o'rtasida aniq farqlar mavjud:

1. **Bank kafolati** (kafillikdan farqli ravishda) asosiy majburiyatdan bog'liq emas.

2. **Majburiyat sub'ektlari bo'yicha.** Qonun bo'yicha bank garantlari sifatida faqat kredit muassasalari va sug'urta tashkilotlari qatnashishi, kafil sifatida esa turli yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin.

3. **Munosabatlarni o'rnatish shakli bo'yicha.** Bank-garantlar bank-kreditorlari bilan bank kafolati shartnomasini tuzadilar yoki ularga kafolat xati yuboradilar. Kafillilik munosabatlari esa bank-kreditor va kafil o'rtasida kafillik shartnomasi tuzilishi natijasida o'rnatiladi.

Ko'pchilik (asosan kam tajribali garantlar) nimani boshdan kechirishlarini, qachon qarz oluvchi olgan kreditini qaytarishini yo xohlamasa yoki qaytara olmasa, taxmin qila olmaydilar. Tajribali britan iqtisodchisi Kristofer A. Blumfild kafolat berayotgan paytida ba'zi bir qoidalarga e'tibor berishni maslahat beradi. Buning uchun siz quyidagilarga ishonch hosil qilishingiz kerak:

- 1) Kafolatlanayotgan shartnomaning mustahkamligiga ishonish;
- 2) Berilgan kreditni qoplash bo'yicha masalalarni yaxshilab ko'rib chiqish;
- 3) Bank-kreditor bilan kafolatni taqdim etish to'g'risida kelishish, bunda kafolat summasi sizning aktivlaringiz qiymatidan yuqori bo'lmasligi kerak.

Bank kafolati berilganiga qarz oluvchi garantga mukofot to'laydi.

CHaqirilmaydigan kafolat – bu kafolat chaqirilishi, bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi (agar bank-garant bank-kreditor bilan oldindan kelishib olmagan bo'lsa) mumkin emas. Ammo qonun bo'yicha chaqiriladigan kafolatni qo'llash ham ta'qiqlanmagan. Agar bank kafolati to'g'risidagi shartnomada: “bank kafolati chaqiriladigan xarakterga ega” deb aniq belgilangan bo'lsa, bunda garant xohlagan paytida bergan kafolatini bekor qilishi mumkin. Agar kreditor chaqiriladigan kafolatga rozilik bildirsa, uning ishi bitdi degan gap. CHunki bunday kafolat

bo'yicha mablag'ni kreditor hech qachon olmaydi. SHuning uchun kreditorlar kafolat turiga juda e'tibor bilan qarashlari lozim.

Bank-kreditor, qarz oluvchi va garant o'rtasidagi munosabatlarda eng muhim jihati bu bank kafolatini kuchga kirish vaqtini aniqlash hisoblanadi. Qonunda belgilab o'tilgan bank kafolati u berilgan kundan boshlab kuchga kirishi to'g'risida, agar kafolatda boshqa hol nazarda tutilmagan bo'lsa.

Amaliyotda kafolatni kuchga kirishining boshqa hollari ham mavjud:

- qarz oluvchi garantga kafolat summasidan aniq foiz hisobida komission mukofot o'tkazilgandan keyin;

- qarz oluvchining hisob raqamiga barcha kredit summasi o'tkazilgandan keyin;

- kredit shartnomasida ko'rsatilgan maqsadlar bo'yicha kredit ishlatilganda va boshqa hollarda kafolat kuchga kiradi.

Bank kafolatini ijro etilishi to'g'risidagi kreditor talabi u tomonidan yozma shaklda kafolatda ko'rsatilgan hujjatlar bilan birga garantga taqdim etilishi kerak.

Agar qarz oluvchining majburiyati bo'yicha yo'l qo'yilgan qoidani buzib o'tish hollari bo'lsa u albatta ko'rsatib o'tilishi lozim.

SHundan so'ng garant benefitsiar talabini qabul qilish paytida yuzaga kelgan aniq majburiyatlarni bajarishi, ya'ni:

- kechiktirmasdan bu haqda prinsipal (qarz oluvchi)ga xabar berish va unga talabnomaning nusxasini barcha ilova qilinadigan hujjatlar bilan birga yuborishi;

- berilgan muddatda benefitsiar (kreditor) talabini ilova qilingan hujjatlar bilan birga ko'rib chiqishi va bu talabnoma va hujjatlar kafolat shartlariga to'g'ri kelishini aniqlashi zarur.

Umumiy me'yorlarga muvofiq hujjatlar birinchi navbatda kafolat bilan ta'minlangan prinsipal majburiyatlarini ijro etilmasligini tasdiqlashi kerak. Ammo bunday hujjatlarni yig'ish benefitsiar uchun ancha mushkuldir va bu bank kafolati bo'yicha to'lovni olish imkoniyatini kamaytiradi. Bunday hujjatlarga:

- kafolat bilan ta'minlangan majburiyatni prinsipial tomonidan bajarilmaslik holatini o'rnatuvchi sud, arbitraj sudi qarori;

- qarz oluvchining majburiyatini bajarmasligini rad etish to'g'risida hujjatlar va boshqalar kiradi.

Barcha kreditor va garant o'rtasidagi munosabatlar bank kafolati shartnomasida aniqlanadi. bu qoidaga rioya qilmaslik yoki yozma shaklda shartnoma tuzmaslik shartnoma haqqoniy emasligidan dalolat beradi. Kafolat yoki ikki tomonlama shartnoma garant tomonidan kreditorga yuborilgan kafolat xati orqali rasmiylashtiriladi.

Kafolat xati – bank-kreditor va garant o'rtasida shartnomani tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Bank kafolati shartnomasida qaysi majburiyatni ijro etilishi uchun kafolat berilganligi, kimga (kreditor nomi) berilganligi va kim uchun (qarz oluvchi nomi) berilganligiga ko'rsatilishi kerak. Arbitraj sudlarining amaliyotidan kelib chiqqan holda, bank kafolati shartnomasida qaysi majburiyatni ijro etilishi uchun kafolat shartlari aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, shartnoma tuzilgan deb hisoblanmaydi.

Umumiy qoida sifatida garant kreditor oldida subsidiar (qo'shimcha) javobgarlikni o'ziga oladi. Garantni va qarz oluvchini solidar javobgarligi bank-kreditorga nisbatan faqatgina qonunchilikda va shartnomada ko'rsatib o'tilganda belgilanadi.

Jahon amaliyotida bank-garantning kreditor oldidagi majburiyatlarining bajarilishi quyidagi hollarda:

- 1) kafolat berilgan summa kreditorga to'langanda;
- 2) belgilangan kafolat muddati tugagan paytda;
- 3) kreditor garantiya bo'yicha o'z huquqlarini rad etsa va ularni garantga qaytarsa;
- 4) kreditor garantni majburiyatlaridan holi etish to'g'risida yozma ariza orqali kafolat bo'yicha o'z huquqlarini rad etganda, kafolat beruvchi o'z majburiyatlarini bajarishdan to'xtashi mumkin.

Garant kafolat to'xtatilganligi to'g'risida xabar olgandan keyin qarz oluvchiga bu haqda darhol ma'lum qilishi shart.

Garant qarz oluvchidan bank kafolati bo'yicha kreditorga to'langan summani regress tartibida qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Xorij amaliyotida bank kafolati keng tarqalgan bo'lib, mustahkam raqobatchilik sharoitida bunday xizmat bozorida bank-garantlarning komission stavkasi garantiya (kafolat) summasidan 0,1-0,8% ni tashkil qiladi. Iqtisodiy va huquqiy nobarqarorlik, yuqori bank risklari sharoitlarida bu ko'rsatkich 4-10% ni tashkil qilishi mumkin. CHet el banklari tomonidan taqdim etilgan kreditlarning kafolati sifatida davlat (hukumat), vakolatli banklar, banklar konsorsiumi, alohida banklar va sug'urta kompaniyalari qatnashishi mumkin.

Bizning amaliyotimizda ham hukumatimiz kafolati orqali Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot bankidan, Evropa Tiklanish va Taraqqiyot bankidan, yirik chet el banklaridan tijorat banklarimiz kredit olishmoqda.

Kredit munosabatlarining asosiyhujjati bo'lgan kredit shartnomasi qarz oluvchining kreditni o'z vaqtida qaytarish majburiyatini ko'zda tutadi. Lekin amaliyot shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotdagi inflyasiya jarayonlari ssudaning qadrsizlanishiga, qarzdorning moliyaviy ahvolining yomonlashuvi kreditni to'lash muddatining buzilishiga olib kelishi mumkin. SHuning uchun xalqaro bank amaliyotida kreditning qaytarilishini tashkil etishning mexanizmini ishlab chiqilgan. Bu mexanizm quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi:

- Ssudani tushum (daromad) hisobidan qoplash tartibi;
- O'plash tartibini kredit shartnomasida mustahkamlab qo'yish;
- Ssuda mablag'ini o'z vaqtida va to'laligicha qaytarilishini ta'minlashning turli shakllaridan va manbalaridan foydalanish.

Bank amaliyotida ssudalarni qoplash manbalari birlamchi va ikkilamchi manbalarga bo'linadi. Birlamchi manba sotuvdan kelgan tushum bo'lib, bu kreditni qoplashning asosiy manbai hisoblanadi. Kredit ta'minotining ikkilamchi shakllari kredit qaytarilishining kafolat shakli hisobladi.

Xorijiy bankirlar kredit shartnomasini tuzish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishda avvalo, kreditni qoplashning birlamchi manbalarga tayanishni o‘z faoliyatining “oltin qoidasi” deb hisoblaydilar.

Amaliyotda ko‘p hollarda kreditning qaytarilishida ma’lum risklar mavjud bo‘ladi. Bu risklarga turli omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu hollarda kafolat sifatida ikkilamchi manbalar ham talab qilinadi. Ular quyidagilar bo‘lishi mumkin:

1. mulk va huquq garovi;
2. talablar va huquqlarni o‘tkazish;
3. kafolat va kafillik, sug‘urta.

Kreditlarni qoplashning ikkilamchi shakllaridan foydalanish ko‘p mehnat talab qiladigan, uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. SHunday bo‘lsada, ushbu shakllardan bizning amaliyotimizda keng foydalaniladi. CHunki iqtisodiyotimizdagi ko‘plab korxonalarning moliyaviy ahvoli ko‘ngildagidek emasligi, tadbirkorlarning bu sohadagi bilimlari etarli darajada emasligi shuni taqozo etadi.

Mulk garovi - bu kredit ta’minotining eng ko‘p tarqalgan shakllaridan hisoblanadi. Mulk garovi garov shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. To‘lov majburiyati bajarilmaganda bank ushbu garovni sotish orqali kreditni qoplashi mumkin.

O‘z o‘zidan mulkni garovga quyish (ko‘chmas mulk va boshqalar) kreditor — mulni ushlab turuvchi (garovga qo‘yilgan) shaxs agar garov bilan ta’minlangan majburiyatlar bajarilmasa, ushbu mulkdan o‘z hoxishiga binoan foydalanish xuquqiga egaligi tushuniladi O‘zbekiston Respublikasida garov munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 264, 289 sonli moddalari va Uzbekiston Respublikasining "Garov haqida" gi qonuni asosida boshqariladi. Garov asosida kreditor, agar qarzdor - gapov qo‘yuuvchi shaxs garov bilan ta’minlangan majburiyatni bajarmasa, ko‘yilgan mulk asosida o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishi xuquqiga egaligi va shu bilan birga, boshqa kreditorlar oldida nisbatan afzalliklarga egaligi ta’minlangan. Garovga quyilish mulk nafaqat qarz mablag‘larini

qaytarilishini, balki uning foizlarini va boshqa kurilgan zararlarni qoplanishini ta'minlashi shart. Bundan tashqari garovga qo'yilgan mulkni bozor narxlari tushib ketishini ham hisobga olish lozim. YUqoridagilardan kelib chiqib garovga quyilgan mulk berilayotgan kredit bahosidan yuqori bo'lishi lozim.

Garov asosida yuridik shaxslarning ham, jismoniy shaxslarning ham majburiyatlari ta'minlanishi mumkin. Garov shartnoma yoki qonun asosida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda garov shartnomasi keng tarqalgan bo'lib, qarzdor o'z hoxishiga binoan, o'z mulkini kreditor bilan shartnoma tuzgan holda garovga qo'yadi. Garov asosida haqiqiy talab etilayotgan mablag' ta'minlanishi mumkin. YA'ni, ushbu garov shartnomasi orqali boshqa maqsadlarda, boshqa shartnomalarda foydalanish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan garov predmeti bo'lib, garovga qo'yuvchi shaxsning har qanday mulkni, shu bilan birga qimmatbaho qog'ozlar va mulkka egalik xuquklari bo'lishi mumkin.

Xususiy mulkchilik qonuniga asosan, garov predmetining egasi gapovga qo'yuvchi shaxs bo'lishi mumkin. SHu bilan birga, garovga qo'yuvchi shaxs nafaqat ham qarzdor bo'lishi mumkin, balki uchinchi shaxs ham bo'lishi mumkin. Mulkdan foydalanish xuquqi, uning xaqiqiy egasi singari, mulkka egalik qilish, foydalanish va egalik qilish kabi xuquqlarni, agar qonun va shartnomalarda kqrsatilgan bo'lmasa, qarz beruvchi shaxsga beriladi. Vazirlar maxkamasining № 50 sonli 1.02.94 dagi "Vaqtinchalik shatnoma va garovlarni davlat registratsiyasi haqidagi" qonunning 5 bandida garov predmetiga kiritilmagan ayrim korxona va mulklar sanab o'tilgan.

Amaliyotda garovdan foydalanish uni qo'llashning maxsus mexanizmi bo'lishini ko'zda tutadi. Garov mexanizmi bu garov to'g'risidagi shartnomani tayyorlash, tuzish va ijro etish jarayonidir.

Garov mexanizmini amalga oshirish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

4. garov predmetlarini va turlarini tanlash;
5. garov predmetlarini baholash;
6. garov to'g'risida shartnomani tuzish va amalga oshirish;

7. garov undirishga murojaat qilish tartibi.

garov predmetining miqdor va sifat jihatlariga umumiy va maxsus talablar mavjud bo‘lib, sifat jihatiga bo‘lgan umumiy talablar quyidagilardan iborat:

- Garov predmeti qarz oluvchiga tegishli bo‘lishi kerak;
- Garov predmetlari pul qiymatiga ega bo‘lishlari shart;
- Garov predmetlari likvid bo‘lishi ya’ni realizatsiya qilinish xususiyatiga ega bo‘lishlari kerak.

Garovning miqdoriga bo‘lgan umumiy talab bu garovga qo‘yilgan mulk qiymatining berilgan kredit va unga hisoblangan foizlar summasidan ko‘p bo‘lishidan iborat.

Garovning sifat va miqdor jihatlariga bo‘lgan maxsus talablari garov shakliga va risklilik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Tovar-moddiy boyliklarning garov predmeti bo‘lishga maqbulligi 2 omil orqali aniqlanadi:

8. boyliklarning sifati;

9. kreditorni ularning saqlanishi ustidan nazorat qila olish imkoniyati.

Tovar-moddiy boyliklarining sifat mezonlari quyidagilar hisoblanadi: tez realizatsiya qilinishi, narxlarning nisbatan barqarorligi, sug‘urtalash imkoniyati, saqlanish muddatining uzoqliligi. SHuning uchun tez eskiradigan tovarlar garovga qabul qilinmaydi.

Faqatgina ushbu mezonlarni aniqlash va ularga mos keladigan boyliklarni garovga qabul qilish emas, balki ularni saqlanishini ta’minlash ham muhimdir. Faqat shundagina qo‘yilgan garov kreditning qaytarilishiga kafolat bo‘lishi mumkin.

Garov predmetiga quyidagilarni kiritish mumkin: korxona va tashkilotlar; asosiy fondlar (bino, inshootlar, uskunalar), tovar—material buyumlari, tovar-transport xujjatlari (varrant, konosament, ombor xujjatlari, shartnoma va b.), valyuta mablag‘lari-

qimmatbaho buyumlar va qimmatbaho qog‘ozlar.

1. Garov ikki shaklga bulinadi:
2. Garov predmeti o'z egasida qolishi.

Garov predmeti garovni oluvchini berilishi.

Garov ob'ekti o'z egasida qolgan holda u quyidagi xuquqlarga ega:

-garovga qo'yilgan mulkdan foydalanish va unga egalik qilish.

-garov bilan ta'minlangan, majburiyaglar bo'yicha qarz egasiga o'tkazish va boshqalar.

Bu holatda garov beruvchi shaxs o'z hisobidan garov predmetini umumiy qiymatini sug'urtalashi, uning yaxshi saqlanishi ta'minlashi va mulkni ijaraga berilishi haqida garov oluvchini ogohlantirishi lozim.

Garov predmetining o'z egasida qolishi quyidagi hollarda yuz beradi:

1. oborotdagi tovarlarni garovga quyish;
2. ko'chmas mulkni garovga quyish.

Oborotdagi govarlarni tarovga qo'yish garov vaqti kelganda garov beruvchi o'z oborotidagi tovarlarini hammasini yoki qisman sotib o'z qarzini summasini yoki undan ko'pini-qaytarishi tushuniladi. Bunda garovga qo'yuvchi shaxs o'z tovar mahsulotlarini hisob-kitobini va to'g'ri saqlanishini ta'minlashi shart. Oborotdagi tovarlarni garovga qo'iish asosan savdo va ta'minot tashkilotlarda ko'proq foydalaniladi Masalan, mahsulot va tovarlarni sotib olish.

Kuchmas mulk garovi (ipoteka)- korxona, tashkilot, bino, inshoot va qurilishlarni, er va undan foydalanish huquqlarini garovga quyish tushuniladi.

O'z kreditlarini bino, inshoot va qurilma uskunalarni garov asosida berishlarida, banklar nafaqat ularning qanchalik tez sotilishini, balki kredit oluvchining foyda olish darajasini, garovlarning sotilishini olgan holda, ularning kreditni qaytarish sharoitida va muhitini ham hisobga olishlari lozim.

Bank, garov predmetini ushlab turuvchi sub'ekt sifatida, garovga qo'yilgan mulkning hujjatlari asosida uning haqiqiyiligini, holatini va uni saqlanayotgan muhitini tekshirishga haqlidir.

Agar garov predmeti garov beruvchi tomonidan sarflangan yoki ishlatib etkazilgan bo'lsa, unda garovga beruvchi shaxs ushbu mulkni qayta tiklashi yoki

boshqa mulk bilan qoplashi lozim, aks holda bank-garov mulkini ushlab turuvchi sub'ekt sifatida berilgan kreditni o'z muddatidan oldini talab qilishga haqli hisoblanadi.

Garov qo'yishning ikkinchi shakli- garovga qo'yilgan mulkni o'z egasida emas, balki uni ushlab turuvchi shaxsda qolishi hisoblanadi. Bu tur boshqachasiga «zaklad» deb ham yuritiladi va bank amaliyotida qulay garov turi bo'lib, unda ko'chmas mulk bo'lmagan mulk gapovga qo'yiladi. Buning sababi shundaki, pul garov oluvchi (bank)ga berilganda.

Ushbu shakl bank faoliyatida keng qo'llanilib, asosan garovga ko'yilgan mulk ko'chmas mulk bo'lib hisoblanmasa bankda bunday garov e'tiborli bo'lib hisoblanadi. Buning asosiy sababi bankka ko'yilgan har qanday hollarda bank uni qaytarishga qodir ekanligi hisoblanadi.

Ushbu garov shakli quyidagi turlarda bulishi mumkin:

1. mustahkam (ishonarli) garov.
2. xuquqiy garov.

Mustahkam (ishonarli) garov klassik jihatdan, tovar va boshqa mulkni kredit tashkiloti omborida yoki qarz oluvchi omborida bank nazorati ostida saqlashi tushiniladi. Zakladga olingan qimmatbaho buyumlar o'z navbatida quyidagi talablarga javob berishi lozim: tez sotiladigan, sug'urtalash oson bo'lgan, bank nazorati ostida uzoq muddat saqlanishi mumkin bo'lishi lozim.

Albatta, ushbu mulklarni bank tomonidan nazorati turli xil qiyinchiliklarga va xarajatlarga olib keladi. Sharb mamlakatlarida ushbu xizmatlarni ombor tashkilotlari banklar uchun (xizmat) ko'rsatadi. U mulk va uning saqlanish bo'yicha to'laqonli nazorat olib borishi, undan tashqari bergan kreditining qaytishi imkoniyatlariga to'laroq ishonch hosil qilish mumkin. Bu garov turi 2 xil shaklda bulishi t.

- O'attiq garov
- Huquq garovi

O'attiq garov garovning klassik turi bo'lib, u tovar yoki boshqa mulkni bankka berishni va bank omborxonasida yoki qarz oluvchining omborida, lekin bank qulfi va qorovuli bilan qo'riqlab saqlanishi lozim. Garov yoki zaklad sifatida qabul

qilinadigan qiymatlik talablarga javob beradigan-tez sotiladigan, uzoq saqlanadigan, o'z sifatini yo'qotmaydigan, sug'urtalanadigan bo'lishi va bank nazorati ostida bo'lishi lozim. Zaklad qabul qilish va uni saqlash bank uchun xarajat talab qiluvchi, uning faoliyatiga to'g'ri kelmaydigan holat bo'lganligi uchun u qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Ba'zi xorijiy davlatda bank uchun bu funksiyani maxsus tashkilotlar— omborchi— kompaniyalar bajaradi.

Bunda faqatgina ombor xujjatlarining bo'lishi talab etiladi va omborchi kompaniyalar tomonidan yozib berilgan bu hujjat kreditning ta'minlanganli hisoblanadi.

Bu hujjat asosida bank o'z kreditlarini ta'minlanganligini nazorat qiladi va, ssudalar qaytarilmaganda ushbu xujjat orqali bank mulkni omborxonadan olib sotib o'z kreditlarini koplashi mumkin. O'zbekistonda ham xuddi shunlay xalqaro tajribalarni qo'llashni amalga oshirilish jarayonlarini tezlashtirish lozim.

Bank uchun qulay bo'lgan mustahkam (ishonchli) garov bo'lib tovar va turli transport xujjatlari hisoblanadi, shu bilan bir qatorda qimmat baho buyumlar va qimmatli qog'ozlar ham mustahkam garov sifatida qabul qilinishi mumkin. Birinchidan ular garov beruvchi tomonidan kreditni ta'minlash maqsadida bankka beriladi, chunki ular hech qanday ortiqcha xarajatlarni talab etmaydi. Ikkinchidan, ular yuqori likvidligi, tez sotiluvchanligi bilan ajralib turadi. Bu esa bankka katta ahamiyat kasb etadi. Huquqiy garovi xozirda O'zbekiston uchun yangi bo'lgan va huquqiy jihatdan ta'minlanmagan shakl bo'lib hisoblanadi. Garov sifatida turli mulkka huquqiy jihatdan egalik qilish (avtorlik huquqlari, tovar belgilari, nou-xau, patent) hujjatlari bo'lishi mumkin.

Bunda faqatgina garovga-quyilayotgan mulkka egalik qiluvchi shaxsgina garov beruvchi shaxs bo'lishi mumkin. Ijaraga olingan yoki egasi boshqa bo'lgan mulklar o'z egasining, ruxsatisiz garov ob'ekti bulishi mumkin emas.

Garov predmeti uni saqlanishini ta'minlash bilan bir qatorda bank uchun yana boshqa majburiyatlarni bajarishishga olib keladi. Masalan, garovni mulkini ushlab turuvchi sub'ekt (bank) shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa garov beruvchi manfaatlariga mos kelgan holda mulkning hisob-kitobini olib borishi lozim,

majburiyatlar bajarilgandan so'ng garov beruvchi mulkni qaytarilishini ta'minlashi lozim.

Garov predmetini kimda qolishidan qat'iy, nazar, garov mulkini beruvchi yoki uni oluvchi sub'ekt mulkni turli xil tabiiy ofatlardan sug'urtalashi lozim. Nafaqat tabiiy ofatlaridan, balki mulkni o'g'irlanishi yoki davlat organlari tomonidan garov mulkini beruvchi sub'ektning iqtisodiy faoliyatini to'xtatib quyishidan ham sug'urtalishi lozim. Sug'urta hodisalar bo'lib o'tib, mulkka zarar etkazganda, bank garov mulkini ushlab turuvchi, sub'ekt sifatida: sug'urta qoplamasini o'z krediti hisobiga olishga haklidir.

Garov predmeti har qanday hollarda ham sug'urta qilish mulkni beruvchi shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolik kodeksining ta'kidlashiga, qarz oluvchi bitta mulkni bir nechta kreditorga garovga qo'yish mumkin. SHuning uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 273-moddasiga asosan garovga qo'yilayotgan mulk, ilgari tuzilgan garov shartnomasiga asosan taqiqlanmasa, qabul qilinadi. SHuni unutmaslik lozimki, qonun chiqaruvchilar birinchidan, garovga quyilayotgan mulk majburiyat summasidan yuqori bo'lishi lozim; ikkinchidan, turli kreditorlarning muddatlari turlicha bo'lgani uchun, majburiyatlarni ham ketma-ket bajarish mumkin, bank kreditor sifatida mulkni garovga olishdan oldin, garovga qo'yilgan yoki qo'yilmaganligini tekshirib ko'rishlari lozimligini uqtiradilar. Bu esa, har bir bankni o'z ketmaketligida talablarini qo'yishi va mijozni krediglash masalasini hal etishini ta'minlaydi. Garov shartnomasi yuridik hujjat bo'lib, garov mulki ta'minlayotgan majburiyatdan holi ravishda tuziladi.

Garov shartnomasi og'zaki emas balki, yozma hujjat tarzida amalga oshirilishi lozim. Bu hujjatda garov predmetini shaklini, majburiyat shartlarini, majburiyat muddatini, mulkning hajmi va qiymatini, garov sub'ektlarining majburiyatlarini va garov shartlarini bajarilmaganda tortishuvni oldin xal etish masalalarini aks ettirishi lozim.

Garov shartnomasida, shular bilan birga, ikkala tarafning nomlari va adreslari garovga qo'yilgan mulkni qaerda joylashgani ko'rsatilishi lozim. Agar

yuqoridagi ko'rsatmalar ko'rsatilmasa garov shartnomasi xaqiqiy hujjat bo'lib hisoblanmaydi. Garov shartnomasini tuzilgan vaqtdan boshlab garov xuquqi paydo bo'ladi va garov mulkiga nisbatan garov xuquqi ushbu mulkni garovga berilgan vaktdan boshlanadi. (O'z.Res. F.K. 270-s.)

Garov shartnomalari uchun notarial guvohnomalar joriy etilgan. Ammo, ikkala tomonning kelishuvi notarial tomondan tasdiqlashga, har qanday kelishuv xoh og'zaki bo'lsin, asosiy shartnomaga qo'shimcha qilib kiritiladi.

Mulkning qanday shakl bo'lishidan qat'iy nazar, davlatning garov mulki ruyxatdan o'tishi majburiy belgilangan. YA'ni, garov shartnomasi tuzilib, unga qo'l qo'yilgandan so'ng va notarial tasdiqlagandan so'ng, garovga qo'yilgan mulk davlat garov organida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Garov mulki qo'yilgani hisobiga garovni ushlab turuvchi o'zining talablarini qondirishga haqli. YA'ni bu ushbu vaqtdagi garovni ushlab turuvchi subektning qilgan hamma xarajatlari (foizlari, zararlari, muddati o'tkazilib yuborilishi, mulkni ushlab turish xarajatlari va sud xarajatlari) kiradi.

Kreditor qo'ygan majburiyatlarini qarz oluvchi o'z vaqtida bajarmasa, garov predmet hisobidan kreditor olish mumkin. Bunda kreditor qo'yilgan muddatda sudga murojat etib, talab qilishga hakli. Sud organiga murojaat etmasdan, faqatgina garov sub'ektlarining shartnomalarida garov majburiyatlari bajarilmasa yoki bajarish shartlari ko'rsatilgan bo'lsa va ushbu shartnomani notarial tasdiqlatilgan bo'lsa kreditor mulk orqali talablarining qondirishi mumkin. Kreditor qo'yilgan majburiyatlarni bajarilmaganligini yoki to'liq bajarilmagan-ligini isbot qilishi lozim. Agar qarori bank hisobiga hal bo'lsa, unda mulk sotilib kreditor o'z talablarini u tushumdan qondirishi mumkinligi haqida hujjat beriladi.

Garov predmeti konunda ko'rsatilgan asosida, ommaviy savdo yo'li bilan sotiladi: mulkning boshlang'ich narxi sud qarori bilan belgilanadi. Eng yuqori bahoni to'lagan shaxs ga ushbu mulk sotiladi. Mulk sotilmagan vaqtda, bank va qarz oluvchi kelishib, bank o'z hisobiga olishi va talablarini qondirishi mumkin. Mulk qayta sotuvga chiqarilib sotilmay qolsa, kreditor mulkni 10% ga arzon qilib keyingi sotuvga chiqarishi mumkin. Agar garov oluvchi garovni sotish to'g'risidagi bildirishdan keyin mulk 1

oy davomida sotilmasa garov oluvchi uni o'z ihtiyorida qoldirish xuquqidan foydalansa shartnomasi tugatiladi.

Agar mulkni sotuvidan tushgan tushum kreditor talab kilayotgan summasidan yuqori bo'lsa, farq garov qo'ygan shaxsga qaytariladi va agar tushum kreditor talab qilayotgan summasidan kam bo'lsa, unda qolgan summani qarzdorning boshqa mulkidan olishi mumkin.

Agar bank talab qilayotgan summani 3 shaxs tomonidan amalga oshirilsa unda O'zbekiston Respublikasi talablarni osonlashtirish qonuniga muvofiq talab qilish hukuki 3 shaxsga o'tadi.

O'onun chiqaruvchi organlar quyidagi hollarda tortishuvsiz kreditor hisobiga hal etilishi mumkinligini ko'rsatgan. Bunda agar garov shartnomasida ko'rsatilgan bo'lsa va shartnoma notarial tasdiqlangan bo'lsa. YUqoridagilarga qo'shimcha ravishda (agar) garovga qo'yilgan mulk sotilgunga qadar garovga qo'yuvchi shaxs sotuvni to'xtatishi mumkin, agarda shartnoma majburiyatlarini bajarsa.

Garov huquqi garov majburiyatlari bajarilganda quyidagi hollarda to'xtaydi:

garov mulkini buzulishi, yo'qolishi yoki yo'q bo'lishi;

garov predmetini erkin sotuvda sotilishi;

garov mulkiga egalik qilish bankga o'tishi bilan.

Garov xuquqini to'xtashining eng sodda normal holi bo'lib, garov mulki orqali majburiyatlarni bajarilishi kerakli xujjatlar bilan tasdiklanishi lozim. Majburiyatlar to'liq bajarilmasa garov shartnomasi o'z kuchida qoladi.

Arizaga kafolat xati 2 nusxada biriktirilib, kafolat beruvchi sub'ekt, tashkilotning raxbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanishi lozim.

Kafolat xati quyidagi mazmunda yozilishi lozim:

Garov beruvchining hisobvarag'ida puli bo'lishidan qat'iy nazar bank kafolat ostida ssudani o'z vaqtida to'lamaganda, sizdan to'lov talabnomasi kelib tushguncha vakillik hisobvarag'ingizga ushbu summani to'lab berish majburiyatini oladi.

SHu shart bajarilmasa bank garov oluvchi bankka har kuni kafolatlangan summaning 5%, lekin 100% dan oshmagan holda sizning korrespondentlik

schyotingizga o'tkazish majburiyatini summasini biz to'lay olmasak bu summani bizning bosh bankimiz sizning vakillik hisobvarag'iga o'tkazadi. Kafolat xati summasi va garov beruvchining to'lash to'grisidagi majburiyati alohida schyotda saqlanadi.

Garov beruvchi banki xodimi kafolat xatida ko'rsatilgan imzo va pechatlarning xaqiqiyligini tekshiradi, mijozning to'lovga layoqatliligini tahlil qiladi va ijobiy qaror qabul qilinganda bank rahbari va bosh hisobchisi bu hujjatlarni imzolaydilar va bank pechati qo'yiladi. Keyinn rasmiylashtirilgan kafolat xati o'rnatilgan qoida bo'yicha ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun bosh bankga beriladi. Bosh bank tomonidan tasdiqlangan kafolat xagi kafolat beruvchining bankiga 9925-raqamli balansdan tashqari schetga kirim qilish uchun yuboriladi.

Kafolat beruvchining banki kredit bo'limining yozma ko'rsatmasiga asosan kafolat xatidagi summa 9925 balansdan tashkari schetga nominal qiymati bo'yicha kirim qilinadi va xat qimmatli qog'oz sifatida kreditni to'lash muddati kelguncha tijorat banki kassasida saqlanadi. O'aytarish muddati kelganda xarajatga chiqariladi. Bir vaqtning o'zida kafolat beruvchining banki kafolat beruvchi kafolat xatida ko'rsatilgan summani etkazishi uchun unga depozit schyot ochadi. Kafolat xatining 2 nusxasi kafolat beruvchiga uni qarz oluvchiga berib qo'yish uchun beriladi.

Bank boyliklar garovi ostida kredit berayotganda kreditni qaytarilishini ta'minlash uchun realizatsiya qilishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni hisobga olgan holda garov qiymatini ssuda qiymatiga mosligini tekshirishi shart.

Masalan, kredit ta'minotini tekshirishni quyidagi sxemasini keltirish mumkin.
(mln. so'm.):

• Berilgan ssuda bo'yicha qarzdor majburiyati	520.
2. SHu sanada garovga qo'yilgan boyliklar qiymati	700

3. Realizatsiyadagi yo‘qotishlar riskini hisobga olib o‘rnatilgan bank marjasi	30 %
4. Garovning real qiymati	700-(30%,700 dan)=490
5. Ta‘minotni ortiqchaligi (+), kamomadi (-)	490-520=-30

Kredit ta‘minotini tekshirish natijalariga ko‘ra bank o‘rnatgan marja tufayli garovdagi boyliklarning real hajmi ssuda qiymatidan 30 mln. so‘mga kamomad chiqmoqda. Bunda bank qarzdordan garovdagi boyliklar qiymatini belgilangan summaga to‘ldirib qo‘yishni talab qiladi.

Garov predmeti sifatini baholash mezonlari.

Ishonchlilik reytingi	Garovdagi mulk va ssuda qiymatining nisbati	Garov predmeti likvidligi	Garov predmetini nazorat qilish imkoniyati	Misollar
A (yuqori)	100 % yoki undan yuqori	Tez sotiladi	Butunlay bank nazoratida	Bankdagi depozit
V	100 % dan kam	Narxlar tebranishi va realizatsiyada qiyinchiliklar bo‘lishi mumkin.		Bankka saqlash uchun berilgan kotirovka qilinadigan qimmatli qog‘ozlar.
C	100 % dan kam		Nazorat qilishda muammolar bor.	1. Kotirovkalan-maydigan qimmatli qog‘ozlar. 2. Tovar-moddiy boyliklar.
D	100 % dan kam	Narx tushadi, sotishda muammolar bor.	Nazorat qilishda muammolar bor.	Tovar-moddiy boyliklar
E	100 % dan kam	Narx tushadi	Nazorat yo‘q	Tovar-moddiy boyliklar

Talablar va mulkiy huquqlarni o‘tkazish (sessiya). Ba’zi mamlakatlar amaliyotida kredit ta‘minoti sifatida talab va mulkiy huquqlarni o‘tkazish (sessiya) qo‘llaniladi. Sessiya – bu qarzdor hujjati bo‘lib, unga asosan qarzdor o‘zining talablari yoki mulkiy huquqlarini kredit ta‘minoti sifatida bankka o‘tkazadi.

Amaliyotda sessiyaning 2 ta turi ishlatiladi: Ochiq va yashirin sessiya.

Ochiq sessiyada talabning o'tkazilganligi to'lovchiga ma'lum qilinadi. YA'hirin sessiyada uchinchi shaxs ogohlantirilmaydi, majburiyatlarini qarz oluvchiga, qarz oluvchi esa uni bankka to'lab beradi. SHuning uchun mijozlarga o'z obro'si va imidjini saqlab qolishda yashirin sessiya afzalroq hisoblanadi. Lekin banklar bu sessiyani riski yuqoriligi uchun uncha qo'llashmaydilar.

Talablar va mulkiy huquqlarni o'tkazish ta'minoti bo'yicha kredit berilganda, risklilik darajasini hisobga olib, kredit ta'minotning 40 %igacha berilishi mumkin.

Halqaro amaliyotda kafolat va kafilliklar kredit ta'minotining shakllaridan hisoblanadi. Bular ham garov kabi kreditor manfaatlarini yuridik va iqtisodiy tomondan himoya qiladi. Bularning garovdan farqli tomoni shuki, bunda javobgarlik qarzdorning emas, balki uchinchi shaxs – kafilning zimmasiga tushadi.

Kafolatlanayotgan majburiyatlarning sub'ekti – garant sifatida moliyaviy jihatidan barqaror korxonalar, mablag'ga ega bo'lgan maxsus muassasalar, banklar ishtirok etishi mumkin.

AKSHda uzoq muddat davomida "10q10" prinsipi qo'llanilgan. Bunda qarz oluvchi kreditni olishdan oldin 10% va olganidan keyin yana 10 %, jami 20 % miqdorida pulni bankka depozitga qo'yishi kerak bo'ladi. Lekin bu holatda kafolat kreditor manfaatlarini qisman himoya qilishga xizmat qiladi xolos.

Kafolatning boshqa bir turi bu qarzdor bilan yaqin aloqalarda bo'lgan barqaror moliyaviy korxona bo'lishi mumkin. Bunda garant korxona haqida ma'lumotlar kerak bo'ladi. Agar korxona ham shu bankda schyot ochgan bo'lsa, uni kreditga layoqatliligini hisoblash oson bo'lishi mumkin, lekin u boshqa bankda hisobvara q ochgan bo'lsa, uni kreditga layoqatliligini hisoblashda qiyinchiliklar bo'ladi. Kafolatning samaradorligini bir qator omillar bilan bog'liq:

1. Garantning moliyaviy holatini bank tomonidan real baholash.
2. Kredit berishdan oldin bank kafil bilan uchrashib, uni ushbu majburiyatni to'lashga tayyorligiga ishonch hosil qilish kerak.
3. Kafillar o'zlarining imkoniyatlari etmaydigan summaga kafolat bermasligi lozim.

garov mexanizmi, kafolat, kafillik va boshqalardan foydalanishda hozirgi amaliyotda quyidagi asosiy kamchiliklari mavjud:

10.kredit ta'minotining ikkilamchi shakllarini qayta baholash va mijozni kreditga layoqatliligini baholashda, pul okimini taxlil qilishdagi kamchiliklar;.

11.garov ob'ektining sifati, uni saqlash va ishlatilishi, tartibi;

12.kafilning moliyaviy holati ustidan dastlabki va keyingi nazorat qilish mexanizmining yo'qligi;.

13.garov shartnomasi shartlarini haqiqatdagi risk bilan mos kelmasligi;

14.garov shartnomalari va kafillik xatlarini rasmiylashtirishdagi, ularni haqiqiy emasligiga olib keladigan kamchiliklar.

O'zbekistonda kredit ta'minotining ikkilamchi shakllarini rivojlantirish istiqbollari haqida gapirganda ularning har birida mavjud bo'lgan risklarni baholashga ham ahamiyat berish lozim.

Bu borada Germaniya tajribasi maqsadga muvofiqdir. Bu erda banklar ta'minot samaradorligini baholashning 3 balli tizimidan foydalanadilar va unga mos ravishda kreditning yuqori chegarasini belgilaydilar. Misol tariqasida quyidagi jadvalni keltirish mumkin.

Jadval.

Ta'minotning ikkilamchi shakllarini sifatini baholash.

Kredit ta'minoti shakli	YUtuqlar	Kamchiliklar	Sifat reytingi ballda	Kreditning maksimal summasi, ta'minotga nisbatan
1. Ipoteka.	1. narxning barqarorligi; 2. ko'p marta foydalanish mumkinligi; 3. saqlanishini nazorat qilish osonligi; 4. garov beruvchi tomonidan ishlatilish imkoniyati	a. notarial tasdik uchun qilinadigan yuqori xarajatlar. b. baholashning qiyinligi	3	60-80%
2. Kredit bergan bankda mavjud bo'lgan qo'yilma-larning	1. kam xarajatlar; 2. yuqori likvid ta'minoti.	Solik huquqi bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin.	3	100%

garovi.				
3. Kafillik (kafolat)	1. kafillik haqida yozma bitim. 2. kam xarajatlar. javobgarlikda 2-shaxsning ishtiroki.	Kafilning kreditga layoqatliligini tekshirishda muammo bo'lishi mumkin.	2	Kafilning kreditga layoqatliligiga ko'ra 100% gacha
Kredit ta'minoti shakli	YUtuqlar	Kamchiliklar	Sifat reytingi ballda	Kreditning maksimal summasi, ta'mingotga nisbatan, %
4. O'immatli qog'ozlar garovi	1. kam xarajatlar. 2. narxlar o'zgarishiini nazorat qilishni qulayligi. 3. realizatsiyanig osonligi	Bozor narxi tusatdan tushib ketishi mumkin.	2	Aksiyalar 50-60% ishonchli foiz keltiradigan qimmatli qog'ozlar 70-80%
5. Mol etkazish yoki xizmatlar ko'rsatish bo'yicha talablarni o'tkazish.	1. kam xarajatlar 2. ochiq sessiyada tez foydalanish	a. nazoratning intensivligi. b. soliq bilan bog'liq muammolar.	1	20-40%
6. Mulkka egalik qilish huquqini o'tkazish.	1. kam xarajatlar 2. likvidligi yuqori bo'lganda-tez sotilishi mumkinligi.	a. baholash muammolari. b. nazorat qilish muammolari. c. sudga murojaat qilishdan foylanish	1	20-50%

YUqori samaradorlikni anglatadigan eng yuqori ballga ega bo'lgan ta'minot shakllari ipoteka va depozit quyilmalarining garovi hisoblanadi. Bu holatlarda kreditning maksimal chegarasi ham yuqori. SHu bilan birga, ipotekani baholashning qiyinligi kreditning maksimal summasini biroz tushishiga sabab bo'ladi.

Kafillik (kafolat) va qimmatli qog'ozlar garoviga nisbatan past ball olingan. Kafilning kreditga layoqatliligi yuqori bo'lganda kredit summasi 100%, shubhali bo'lganda esa kafillik shartnomasi yoki kafolat xatidagi summaga nisbatan kamroq belgilanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'onunida ko'rsatib o'tilganidek, tijorat banklari jismoniy va huquqiy shaxslarning mablag'larini haq to'lash asosida turli omonatlar va depozitlarga jalb qilishlari,

omonat va depozitlar uchun to'lanadigan foizlarning o'rnini qoplash uchun ularni kreditlarga, qimmatli qog'ozlarga va investitsiyalarga joylashtirishlari, hamda daromad olishlari kerak. Kredit berish chog'ida banklar ta'minlanganlik, haq to'lash, aniq maqsadga qaratilganlik, qaytarib berish, muddatlilik qoidalariga amal qilishlari shart. Eng avvalo, ta'minlanganlik asosida kreditning berilishi kreditning bankka qaytib kelishi uchun sharoit yaratish mumkinligini e'tiborga olmoq lozim.

Moliyaviy jihatdan eng barqaror, xizmat ko'rsatadigan bank bilan ishonchli munosabatlarga erishgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga beriladigan ishonchli kredit bu hisobga kirmaydi. Ta'minlashning asosiy turlari mol-mulkni va qimmatbaho qog'ozlarni garovga qo'yish hamda kafolatlardan iboratdir. Kredit bo'yicha olingan ta'minlanganlik (garov, mol-mulk va boshqalar) kredit summasi va u bo'yicha foiz stavkalarini to'lashga etarli bo'lgandagina kredit ta'minlangan deb baholanishi mumkin. Olingan kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish zahirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot hamda mavjud moddiy boyliklarni ta'minlash uchun beriladi. Garov sharti bilan beriladigan kreditni rasmiylashtiradigan vaqtida tijorat banki qarz oluvchi bilan yozma shartnoma tuzadi. SHartnomada garov turi va uning bahosi, mohiyati, miqdori va garov bilan ta'minlanadigan majburiyatning bajarilish muddati, hamda mol-mulk taraflarning kaysi birida ekanligini ko'rsatilishi shart. Bu shartnoma notarial tasdiklangan va adliya idoralarida ruyxatga olingan bo'lishi kerak. Mol-mulkni garovga qo'yish qarz oluvchi mablag'lari hisobidan sug'urta idoralarida sug'urtalab quyilishi shart.

Agar kredit oluvchi kreditni o'z vaqtida qaytara olmasa, u holda garovni sotish choralari ko'riladi. kredit miqdori odatda garovga qo'yiladigan mulk qiymatining 50 %idan 80 foizigacha miqdorida beriladi.

SHu o'rinda ta'minotining asosiy turlarini kayd etish lozimdir. YA'ni ular:

15. O'immatli qog'ozlar va mol-mulk garovi;
16. Uchinchi shaxsning kafilligi;

17. “O‘zbekinvest”, “O‘zagrosug‘urta”, “Kafolat” va “Madad” sug‘urta kompaniyalari, “O‘zgosstraxnadzor” litsenziyasiga ega bo‘lgan kreditni to‘lay olmaslik riskini sug‘urta qiladigan sug‘urta polislaridir.

Hozirgi paytda tijorat banklari garov, kafillik yoki sug‘urta shartnomalarini kredit shartnomasini tuzgandan keyin rasmiylashtiradilar. Lekin shartnomani kredit qaytishini kafolatlovchi hujjatlar taqdim etilganidan keyingina kuchga kirishi maqsadga muvofiq deb hisoblanishi mumkin.

O‘uyidagi jadval orqali garovni baholash prinsiplarini ko‘rishimiz mumkin.

Garovni baholash pripsiylari.

Garov turi	Garovni baholash yoki bozor bahosi	Garov sifatida qiymati
SHaxsiy kafolat	Moliyaviy hisobot vositasidagi hujjatlarga bog‘liq	0%
Sug‘urta polisi yoki bank kafolati	Moliyaviy hisobot vositasidagi hujjatlarga bog‘liq. Boshqaruv qarorida “ijobiy ro‘yxat” ichida bo‘lishi kerak	100%gacha
Xususiy uy (shaxsiy)	Ko‘chmas mulk agentidan belgilangan bozor bahosi undan garov xududining realizatsiyasi shu zahotiy oq amalga oshmaganligi sababli 1 yil uchun hisoblangan foizlar ayriladi. Sud qarorida qabul uchun qoida bo‘yicha 1 yil kutish kerak.	3 ta qiymatdan eng kichigi-ning maksimum 50 %i
Bo‘sh er (bog‘, uchastka)	sotuv amalga oshmaganligi sababli hisoblangan foizlar ayriladi. sotib olish bahosi (xarid bir yildan ortik bo‘lmagan vaqtda qilingan bo‘lishi kerak)	3 ta qiymatdan eng kichigi-ning maksimum 50 %i
Biznes mulk (magazin, mehmonxona, sex, ofis)	Bank baholashning odatiy texnik jarayoni bilan mos holda baholash	3 ta qiymatdan eng kichigi-ning maksimum 50 %i
Asbob-uskuna va texnolog (asos. vositalar)	Kompyuter texnologiyalari sotib olish bahosi. (Asbob-uskuna) – har yilgi amotizatsiyaning 70%ni, sotib olingan yilni ko‘shib olgan holda	80 %
Hayotni sug‘urtalovchi polis	Narx ko‘rsatilmaydi	0 %
Davlatning kiska muddatli majburiyatlari	Birjadan tashkari bozorda xaridor tomonidan taklif qilingan narxdan 100%	90 %
Davlat obligatsiyalari	Toshkent, Seul, Tokio, Nyu-yorkdagi birja fondlarida yoki shu davlatlarga tegishli valyutalarda va xukumat	90 %

	chiqargan obligatsiyalar bo'yicha va boshqalar.	
--	---	--

Ishonch shartnomasi.

Ishonch shartnomasi- kreditor oldida ishonch bildiruvchi tomonidan- qarz olgan shaxsning majburiyatlarini to'la yoki qisman o'z majburiyatiga olishi tushuniladi. Bildirish kreditor uchun majburiyatlar bajarilmaganda ishonch shartnomasi orqali talablarini qondirishga katta ehtimol yaratadi. Chunki kreditor oldida qarzdor ham, ishonch bildiruvchi sub'ekt ham mas'uliyatga (majburiyatchi) ega bo'ladi. Qarz oluvchi va ishonch bildiruvchi kreditor oldida bir qarzdor (birga ish olib boruvchi shaxs) sifatida javob beradilar.

Ishonch bildiruvchi sub'ekt kreditor oldida qarzdor kabi bir xil javob beradi. YA'ni qarzdor bo'lishi lozim bo'lgan foizlar, sud xarajatlarini qoplash va (boshqa) kreditor ko'rgan boshqa zararlarni qarzdor to'lay olmagan summalarni to'lashga javob beradi. g'zma ravishda ishonch bildiruvchi sub'ekt kredit shartnomasiga kiritgan o'zgartishlariga va o'zi belgilagan majburiyatlarga javob beradi.

Ishonch shartnomasi yozma ravishda va notarial tasdiqlagan bo'lishi, lozim, aks holda hujjat xaqiqiy hisoblanmaydi. Qarz oluvchi banki-kreditor va ishonch bildiruvchi bilan tuzilgan ishonch shartnomasida qarz oluvchi, ishonch bildiruvchi va bank adreslari ishonch bildiruvchi majburiyatlari (to'lov summasi va to'lov turi va shartlari), ishonch bildiruvchi va bank o'rtasidagi hisob-kitoblar va boshqalar aks ettiriladi.

Ishonch bildirish quyidagi hollarda to'xtaydi:

majburiyatlar bajarilganda;

shartnomada ko'rsatilgan ishonch bildirish muddati tugaganda;

qarz majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazilganda, agar yangi qarzdorga ishonch bildirishni hoxlamasa.

Agar shartnomada ishonch bildirish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, ishonch bildiruvchi majburiyatlarini to'lash muddati kelgan kundan boshlab kreditor ishonch bildiruvchiga to'lov talabnomasiga ariza bermasa ishonch bildirish tuxtaydi.

Agar kreditor— bank ishonch bildiruvchiga to'lov talabnomasiga ariza bermasa va o'z summasini olsa, unda qarzdin talab qilish hujjatlarining hammasi ishonch bildiruvchi sub'ektga o'tadi.

Kreditlarning qaytarilishiga kafil bo'luvchi huquqiy shaxslar tomonidan kafolatlarni rasmiylashtirish chog'ida Markaziy bank juda qattiq talablarni ilgari suradi.

Birinchidan: qarzning muddatida to'lanishi uchun javobgarlikni faqat kafolat beruvchiga xizmat ko'rsatadigan bank emas balki, asosiy bank ham o'z zimmasiga oladi.

Ikkinchidan: kafolat summasi maxsus depozit hisobvarag'iga o'tkazib qo'yilmog'i kerak. SHu tariqa qarz kafolat beruvchi tomonidan uzilishi ehtimolining oldi olinadi, ya'ni depozitga o'tkazib qo'yilgan korxona mablag'lar uchun korxonaga foiz to'lanadi. SHu sababli, kafolat beruvchining manfaatiga ko'p zarar etmaydi. Agar kreditni qaytarib berish vaqti kelganda qarz oluvchida mablag' bo'lmasa, kafolat beruvchi o'z topshiriqnomasi bilan depozit hisobvarag'idagi band qilib qo'yilgan summani bevosita qarz oluvchining ssuda hisobvarag'iga o'tkazadi. SHunday qilib kafolatga binoan bank boshqa kredit muassasa (kafil) boshqa shaxs (prinsipal) iltimosiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyatlar shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida prinsipalga yozma majburiyat beradi. Kafillik shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Kafillik shartnomasiga: kafillik beruvchi bank hisobvarag'ining holati haqida ma'lumotnoma, kafilning boshqa banklardagi bank hiiobvaraqlari haqidagi ma'lumotlar, ulardagi qoldiq ko'rsatilgan holda, kafillik beruvchi o'z banki oldida ssuda yoki boshqa qarzlar yo'qligi haqida ma'lumotnoma, kafilda 2-son kartoteka yo'qligi haqida ma'lumotnoma, kafil moliyaviy holati tahlili.

Kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajargan qarzdor bu haqda kafilni darhol xabardor qilishi shart. Kafil qarzdorga ko'rsatgan xizmatlari uchun haq olish huquqiga ega.

Umuman olganda, kafillik shartnomasi kelgusida vujudga keladigan majburiyatni ta'minlash uchun ham tuzilishi mumkin. O'immatli qog'ozlar garovi ostidagi kredit, ya'ni lombard krediti alohida ssuda schyotidan tovar-moddiy qiymatliklar va xizmatlari uchun qimmatli qog'ozlar garovi ostida kredit beriladi. Kredit berishda ta'minlanganlik sifatida davlatning qimmatli qog'ozlari va bank emitentlarning aksiya, obligatsiya, depozit sertifikatlarini qabul qilishi mumkin. Bankning o'zi tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlari bundan mustasno. Bu kreditning o'ziga xos xususiyati garov shartnoma tuzilgan kundagi nominal qiymat bo'yicha emas, balki garov sotilayotgan vaqtda yuzaga keladigan ko'rs risklari munosabati bilan uning muayyan qismi uchun baholanadi. O'immatli qog'ozlarning garov qiymati birja qiymatining 80 %idan, kotirovkalanmaydigan qimmatli qog'ozlar garov qiymati nominal qiymatining 60 % dan oshmasligi zarur. Lombard krediti beriladigan hollarda garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan daromadlar qarz oluvchining muddatsiz hisobvarag'iga qo'yiladi. Ssuda ta'minoti hujjatlarda uning egasi tomonidan bank foydasiga ondosament orqali rasmiylashtiriladi.

Kredit ta'minoti sifatida bank qarz oluvchidan nomi yozilgan va ko'rsatuvchi (taqdim qiluvchi)ga aksiya va obligatsiyalarni qabul qilishi mumkin. Nomi yozilgan aksiya va obligatsiyalarni bankka topshirish ularga egalik qilish huquqini o'tganini tasdiqlovchi yuridik hujjatlarni rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi. Ko'rsatuvchiga obligatsiyalar aylanuvchan hisoblanadi va qo'ldan qo'lga erkin o'tishi mumkin. Bunday obligatsiyalar kompaniyalar va boshqa institutlar tomonidan pullarni jalb qilish maksadida chiqariladi. Ular bo'yicha foizlar oldindan kelishib olingan davrlarda to'lanadi. Taqdim qiluvchiga obligatsiyalarning ro'yxatdan o'tgan egasi yo'qligi tufayli ular bo'yicha foiz to'lovlarini talab qilishi uchun obligatsiyaga ilova qilinadigan qirqma ko'ponlar

asos bo‘ladi. Bitta shunday ko‘pon obligatsiya bo‘yicha foiz hisobida hisoblangan summani bir marotaba olish huquqini beradi. So‘ngra qirqib olinadi.

Bank taqdim etuvchiga obligatsiya bo‘yicha kredit berganda garov guvohnomasi hujjatini to‘ldirish orqali uni o‘z egaligiga oladi. Ushbu hujjatning to‘ldirilishi obligatsiyalar bankka shunchaki saqlash uchun emas, balki garov sifatida o‘tganini tasdiqlovchi zaruriy shart hisoblanadi. SHunday qilib, bank zarurat tug‘ilganda ularni sotish va kreditni qaytmasligidan ko‘rilgan zararni qoplash huquqini qo‘lga kiritadi.

Amaliyotda ssudalarni vekselar bilan ta‘minlash keng qo‘llaniladi. Veksel ta‘minoti ostidagi kreditlar 2 xil ko‘rinishda bo‘ladi: veksellarni hisobga olish va ular bo‘yicha ssudalar. Veksellarni hisobga olish banklarning kredit berishning bir usuli. Ssudalarning bu shakli hisob yoki diskont nomi bilan yuritiladi va qisqa muddatli xarakterga ega. Veksel hisobining mohiyati uning egasining indossamentiga ko‘ra uning bank tomonidan sotib olinishidir. Vekselni bank tomonidan sotib olinishi unga kreditorlik funksiyalarini utganligini bildiradi. Lekin banklar har qanday veksellarni ham hisobga qabul qilavermaydilar, faqatgina to‘lanishiga shubha qilmagan veksellarnigina qabul qiladilar. Vekselni hisobga olinishiga odatda uni bergan firmaning moliyaviy ahvolini baholash to‘sqinlik qiladi. Xazina veksellari va bank akseptlagan vekselar alohida ishonch qozongan.

Vekselar hisobi bo‘yicha bank foydasi vekselda ko‘rsatilgan summa bilan uni sotib olish o‘rtasidagi farqni anglatadi. Bu farq ma‘lum darajada markaziy bank diskont stavkasi orqali aniqlanadigan ssuda foizidan boshqa narsa emas. Zarurat tug‘ilgan paytda bank o‘z likvidligini yaxshilash uchun uni to‘lov muddatini kutmasdan, uni Markaziy bankda qayta hisobdan o‘tkazishi mumkin. To‘g‘ri, bunda u o‘z foydasining bir qismini yo‘qotadi.

Veksel ta‘minoti ostidagi ssudalarning yana bir ko‘rinishi bu ularni garovga olish bo‘yicha kreditdir. Bunda kredit hajmi veksel bahosining 60-80%ini tashkil qiladi. Kreditni yoki u bo‘yicha foizlarni vaqtida qaytarilmasligi vekselda egalik qilish huquqini bankka o‘tishiga olib keladi. Kredit qaytarilganda esa veksel egasiga qaytariladi. Ssudalarni ta‘minlashning yana bir ko‘rinishi mavjud –

moliyaviy talablar bilan, bularga ish haqini to'lash bo'yicha talablar, sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lovlar va shu kabilar kiradi. Banklar ssudalar ta'minotiga xat sug'urtasi polislarini yaxshirok qabul qiladilar. Bu yuqori darajadagi likvidlik va aniq belgilangan baho bilan bog'liqdir. Bunday ta'minot ostida ssudani berishda, bank bir qator holatlarni hisobga olishi kerak. Birinchidan, sug'urta kompaniyasining o'zining moliyaviy ahvolini baholash zarur. Ikkinchidan, sug'urta summasini oluvchi kim ekanligini aniqlash zarur. Rasmiylashtirish paytida bankni sug'urta summasining benefitsiar (oluvchisi) bo'lishini nazarda tutish zarur. Agar uchinchi shaxs benefitsiar bo'lgan bo'lsa, shartnomani rasmiylashtirishga u ham jalb etiladi. Polisni o'tkazish haqidagi hujjat 2 nusxada to'ldiriladi, bittasi bankda qoladi, ikkinchisi sug'urta kompaniyasiga yuboriladi. Sug'urta kompaniyasi hujjatni olgani haqida bankni xabardor qilganidan so'ng bank xotirjam ssudani berishi mumkin.

Ta'minlanganlik ko'rsatkichi bo'yicha, Markaziy bank metodikasiga ko'ra, birinchidan ssudalar ta'minlangan va ta'minlanmagan ssudalarga bo'linadi; ikkinchidan, bo'lish yana beshta kategoriyaga ajratiladi: standart, nostandart, shubhali, xavfli va umidsiz